the past and the future, is in the first place in the works of M. Tokhtaev. Due to the fact that the subject of these years was not studied on a scientific basis, and a number of artists who created during this period, trying to illuminate the problems of universality and nationality in their works with bold new pictorial means, set an example to the artists of the 80s and 90s in this regard. This is the spiritual that takes place on the wings of a person's imagination, dreams or dreams. They appear as an indescribable inner breath and breath of reality as a characteristic of S. Alibekov's works. The common feature of the creative principles of M. Tokhtaev and S. Alibekov is that they have a strong surrealist view of reality. In all their works (whether a person is depicted or not) there is a reference to a person and his perception of the world. This reference is hidden in the layers of symbolic pictures and associative images.

REFERENCES

1. Махмудов.Т. “Ўзбекистон замонавий санъати ривожланишидаги асосий тенденцияларининг эстетик таҳлили”. Москва. -1979 й.
2. Норкулов Н. Шарқ миниатюра мактаби. “Қадимий тасвирлар”. 29-бет.
3. Низомиддинов И. XII-XVII асрлар Шарқ маваноунахр миниатюра мактаби. 35-бет.
4. Собеседник №20 (221) май. Взгляд. Своими глазами. «Изобретатель действительность”. Три рецензии представителей смежных профессий на творчества Салвадора Дали.
5. 5.Токтош Р. Художественные критические этюды. Т. Изд. Фан. 1992.
6. Махмудов Т. «Санъатда плюрализм». Совет Ўзбекистони санъати. 9-сон. 1988й. 4 бет.

KO'NGILOCHAR VA REKLAMA VIDEOKONTENTLARDA EKTRAN YOZUVLARINING QO'LLANISHI

Isokulov Abdullo Oblokul o'g'li

Perfect university xususiy oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisi.

E-mail: abdulloisakulov@gmail.com

tel: +998999575489

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8337039>

Annotatsiya. Televideniya namoyish etiladigan ko'rsatuvlarda ekran yozuvlaridan turli maqsadlarda foydalaniladi. Ularning ba'zilari ko'rsatuv ishtirokchilarining nutqini ifodalasa, boshqalari videokontentga qo'shimcha ma'lumot berish uchun qo'llanadi. Ba'zi ekran yozuvlari teleko'rsatuv davomida boshlovchi tomonidan aytilayotgan ma'lumotlarni umumlashtiradi. Ko'ngilochar va reklama videokontentlarda ham o'ziga xos ekran yozuvlari qo'llanadi. Bunda teleko'rsatuv maqsadi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: ko'ngilochar videokontent, reklama videokontenti, ekran yozuvlari, guruhlashtirish, nutqiy intensiya.

USE OF TELEVISION CAPTIONS IN ENTERTAINMENT AND ADVERTISING VIDEO CONTENT

Abstract. Captions are used for various purposes in television broadcasts. Some of them are the speech of the show participants, while others are used to provide additional information to the video content. Some credits summarize what the host says during the telecast. Entertainment and promotional video content also uses unique captions. The purpose of the TV show is also important.

Key words: entertainment video content, advertising video content, captions, grouping, speech intence.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКРАННОЙ ЗАПИСИ В РАЗВЛЕКАТЕЛЬНОМ И РЕКЛАМНОМ ВИДЕОКОНТЕНТЕ

Аннотация. Титры используются для различных целей в телевизионных передачах. Некоторые из них представляют собой речь участников шоу, а другие используются для предоставления дополнительной информации к видеоконтенту. Некоторые титры резюмируют то, что ведущий говорит во время телепередачи. Развлекательный и рекламный видеоконтент также использует уникальные титры. Цель телешоу также важна.

Ключевые слова: развлекательный видеоконтент, рекламный видеоконтент, титры, группировка, речевой замысел.

Televideniya qo'llanadigan ekran yozuvlarini guruhlashtirishda ularning turli o'ziga xosliklariga tayanish mumkin. Bunda tadqiqotchi ekran yozuvlarining qanday mazmundagi videokontentda qo'llanishi, nima maqsadda yaratilganligi, qanday ko'rinishda yoki teleekranning qaysi qismiga joylashtirilganligi kabilarning har birini asosiy tayanch nuqtasi sifatida qabul qilishi mumkin bo'ladi. Chunki guruhlash "biror belgisi, turi, xili va boshqa xususiyatlariga qarab guruhlariga, qismlarga bo'lish" [1:529] ekan, sanalganlarning har biri shunday asos bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bundan ekran yozuvlarini guruhlariga ajratish bevosita teleko'rsatuvlarning o'zini

ham tasniflash bilan bog‘liq ekanligi anglashiladi. Ko‘ngilochar va reklama bilan bog‘liq videokontentlarda qo‘llangan ekran yozuvlari ham alohida tahlilni talab qiladi.

Ko‘ngilochar videokontent. Bu turdagi teledasturlar ekran oldida tomoshabinlarning hordiq chiqirishlariga mo‘ljallangan. Ko‘ngilochar videokontentlar sirasiga konsert, tok-show, kinofilm kabilarni kiritish mumkin. Hozirgi kunda televideniya, jumladan, milliy televideniya ham faqat ko‘ngilochar dasturlar namoyish etiladigan telekanallar ham mavjud [2]. Masalan, “Navo” telekanalining maqsadlaridan biri sifatida “zamonaviy milliy va xorijiy estrada, o‘zbek va jahon mumtoz musiqasi, raqs san’ati, simfonik va cholg‘u musiqa ijrochiligi yo‘nalishlarida xilma-xil va rang-baramg janrlardagi telemahsulotlarni efirga uzatish” [3] dan iboratligi uning ko‘ngilochar telekanallardan biri ekanligini bildiradi. Teletomoshabinlarning jahon va o‘zbek milliy mumtoz musiqasi, qolaversa, zamonaviy estrada san’atining eng yaxshi namunalarini tinglab, eng yaxshi ishlangan videokliplarni tomosha qilib hordiq chiqarishlariga xizmat qiladigan bu telekanal ham ekran yozuvlaridan samarali foydalanadi, albatta. Bu maqsadlarning amalga oshishida eng zamonaviy animatsion dasturlardan foydalanib yaratilgan ekran yozuvlarining o‘rni ham beqiyos. Masalan, “Navo” telekanalining “Sen zo‘rsan” teleloyhasida shunday yozuvlardan foydalanilgan [4]:



Ko‘rsatuv boshlanishida va uning qismlari namoyishida loyihaning nomini anglatuvchi ekran yozuvi o‘ziga xos dizaynerlik mahorati mahsuli hisoblanadi. Bunday ekran yozuvlari ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarga bo‘lgan tomoshabinning qiziqishini orttirishi shubhasiz. Boshlovchining ismi va sharifi har xil ranglarda berilishi ham ekran yozuvlarini ko‘ngilochar teleko‘rsatuvlar uchun moslashtirish maqsadida amalga oshirilgan.


Kinofilmlar ham ko‘ngilochar teleko‘rsatuvlar sifatida televideniya dasturlarda tomoshabinlar diqqatini jalb qilishda faol qo‘llanadi. Zero, kinofilm “birin-ketin plyonkaga tushirilgan fototasvirlar majmui, ular bir syujet asosida suratga olinib, ekran orqali ko‘rsatishga mo‘ljallanadigan kino san’ati asari” [5:249] ning bir turi ekan, bu syujet teletomoshabinlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda muhim ahamiyatga ega. Kinofilmlarda ekran yozuvlari turli maqsadlarda: film va uni yaratgan shaxslar va kinokompaniya nomi haqida ma‘lumot berishi, qahramonlar va muallif nutqini ifodalashi, uning boshqa tilga tarjimasini bildirishi mumkin. Kinofilmlarda qo‘llanuvchi ekran matnlarini tadqiq qilgan G.Slishkin va M.Yefremovalar bunday yozuvlar qo‘llanishiga ko‘ra uch xil: boshlanmada, film ichida va yakunda qo‘llanadigan yozuvlar kabilarga ajratiladi [6:127]. Yakuniy qism, odatda, televideniya namoyish etiladigan kinofilmlarda namoyish etilmaydi yoki keyingi ko‘rsatuv boshlanmasi bilan (ekranni ikki qismga bo‘lgan holda) birga efirga uzatiladi. Chunki bu qismda film ijodkorlari, unda ishtirok etgan texnik xodimlargacha bo‘lgan shaxslarning uzun ro‘yxati keltiriladi. Chunki bu qismda keltirilgan ekran

yozuvlari kinotanqidchilar, film ijodkorlarinigina qiziqtiradi, ammo televideniye namoyishlari mo'ljallanadigan asosiy auditoriya uchun filmning yakunida beriladigan titrlar muhim sanalmaydi.

Ko'ngilochar dasturlarda ekran yozuvlari teletomoshabin bilan muloqotga kirishishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu ayrim tijoriy dasturlar namoyishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Televideniya namoyish etiladigan xit-parad, realiti-show kabi tomoshabinning ovozi turli vositalar bilan yig'iladigan teleko'rsatuvlarda muayyan ishtirokchini qo'llab-quvvatlash uchun ijodkorlar bilan bog'lanish manzili, raqamini ifodalovchi ekran yozuvlarining faol qo'llanishi fikrimizni dalillaydi. Bunda ovoz jo'natiladigan raqam yirik yozuvlar bilan, yaqqol ko'zga tashlanadigan qilib joylashtiriladi va bu yozuv harakatlanib turishi tomoshabinning uni tez topib olishiga ko'maklashadi. Albatta, bu kabi ekran yozuvlari telekanal va ko'rsatuv ijodkorlarining tijoriy maqsadlarida qo'llanadi.

Anglashiladiki, ko'ngilochar teleko'rsatuvlarda ekran yozuvlari muhim ahamiyatga ega. Bunday yozuvlar tomoshabinlarning diqqatini jalb qilish, qo'shimcha axborot berish, videokontentga bo'lgan qiziqishni orttirish, shuningdek, tomoshabin bilan bog'lanish, muloqotga kirishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

4. Reklama videokontentlari. Reklama hozirgi kunga kelib ko'p qirrali hodisa sifatida televideniye, matbuot, internet, jamoat transporti, ko'chalarda, umuman, hamma joyda hayotimizning ajralmas qismiga aylandi, deyishimiz mumkin. Muvaffaqiyatli reklama tayyorlash mahsulot ishlab chiqaruvchilari va xizmat ko'rsatuvchilarni eng ko'p qiziqtirib kelayotgan mavzulardandir. Reklama matnlari bir qancha tillarda, masalan, qozoq [7:72-76], turk [8:207], qirg'iz [9:132-137] tillarida lingvistik tadqiq qilinganligi ham fikrimizni dalillaydi. Televideniya namoyish etiladigan reklamalarda qo'llanadigan ekran yozuvlari o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Chunki reklamalarning asosiy maqsadi tomoshabinning diqqatini jalb qilishdan iborat bo'ladi. Shu sababli televideniye reklamalarida kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilgan ekran yozuvlaridan eng ko'p foydalaniladi. Masalan, "Artel" firmasining reklamalarida ham shunday holatni kuzatishimiz mumkin [10]:



Keltirilgan namunalarning birinchisi 30 soniyalik reklamaning yakuni bo'lganligi sababli firmaning ranglariga xos bo'lgan yorqin ranglarda tasvirlangan bo'lsa, ikkinchisi reklamaning kirish qismi va u oq-qora tasvirlar vositasida tayyorlangan. Televideniya bir ko'rsatuv namoyishi davomida boshqa bir ko'rsatuvning qachon efirga uzatilishi haqidagi ma'lumot – anons ham reklamaning bir turi hisoblanadi. Anonslarda keyingi ko'rsatuvga xos bo'lgan eng muhim tasvirlar (deylik, aktyorlar, narsa-buyumlar tasviri) bilan ekran yozuvlari birga qo'llanishi tomoshabinning diqqatini bir muddat o'ziga jalb qiladi. Natijada teletomoshabin anons

qilinayotgan teleko'rsatuv namoyishi haqida qo'shimcha ma'lumotga ega bo'ladi. Bu telekanal tomoshabinlari sonining oshishiga xizmat qiladi.

Ba'zi ekran matnlari telekanal faoliyat yuritayotgan davlat qonunchiligi talablariga ko'ra tanlanishi, o'zgartirilishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklar reklamasiga muayyan cheklovlar mavjud. Bu ular reklamasini televideniya berilayotganda qo'llanadigan ekran matnlariga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Masalan, 2022-yilda qabul qilingan "Reklama to'g'risida"gi qonunda "teleko'rsatuvlar davomida harakatlanuvchi yozuvlar vositasida beriladigan reklamalarga yo'l qo'ymasligi" [11] bayon qilingan. Shuningdek, ushbu qonunda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan pivoni, tabiiy va ko'piklanadigan vinolarni reklama qilishda "bunday mahsulotlarni haddan ziyod iste'mol qilishning zarari haqida reklamaning asosiy maydoni va vaqtining kamida o'n foizini tashkil qiluvchi ogohlantirish hamda ushbu mahsulotni iste'mol qilishi tavsiya etilmaydigan shaxslar to'g'risidagi axborot bilan birga berilishi" [11] belgilab qo'yilgan. Bunday reklamalarda qayd etilgan ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi ekran yozuvlari nihoyatda kichik yozuvlarda namoyish etiladi. Bu, albatta, mahsulot ishlab chiqaruvchining maqsadlariga mos keladi.

Televideniya namoyishi etiladigan videokontentlarning yuqorida ajratilgan turlarini yana kichik ichki turlarga ajratish mumkin. Ammo ularda qo'llanadigan ekran matnlarining mohiyati va umumiy shakli ajratilgan to'rt turga mos holda shakllanadi. Anglashiladiki, televideniya qo'llanadigan ekran yozuvlari videokontentning namoyish maqsadidan kelib chiqib, turlicha shakllantiriladi. Axborot beruvchi va ta'limiy teleko'rsatuvlar uchun nisbatan oddiy bo'lgan – harakatlanuvchi yozuvlar ("yuguruvchi satrlar") va taqdimotdan ko'proq foydalanilsa, ko'ngilochar va reklamaga mo'ljallangan videokontentlarda ijodiy yondashilib yaratilgan animatsion ekran yozuvlari qo'llaniladi. Bunday teleko'rsatuvlar uchun rasmiy titrlar ham qo'l keladi.

REFERENCES

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, 1-жилд, – Тошкент: ЎзМЭ. 2020. – 680.
2. <https://lex.uz/ru/acts/-3089213>
3. <https://www.mtrk.uz/uz/tv/navo/about/>
4. <https://www.youtube.com/watch?v=JUkpjni2Pvg>
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 14 жилдлик, 9-жилд, Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – 704 б.
6. Слышкин Г.Г., Ефремова М.А., Кинотекст (опыт лингвокультурологического анализа). – Москва: Водолей Publishers, 2004. – 153 с.
7. Мисяченко С., Сабиева Е., Рекламный текст как отражение казахской культуры // Филологический аспект, Методика преподавания языка и литературы, №4, 2019. – С.72-76.
8. Tuncer E., Yazili basinda yer alan reklam metinlerinin göstergebilimsel çerçevesi, fil. fan. dokt. diss., – Istanbul 2018. – 207 b.
9. Найманова Ч., Синтаксические особенности рекламного дискурса в английском и кыргызском языках // Вестник Кыргызстана, №2, 2017, – С. 132-137.
10. https://www.youtube.com/watch?v=w_YLLN9TufI
11. <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>

12. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.
13. Ganiyeva, M. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS (IN MATHEMATICS LESSONS). *Science and innovation*, 2(B3), 30-33.

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINING HOZIRGI EKOLOGIK AHVOLI

Suyunova Komila Sanjar qizi

Toshkent davlat Agrar universiteti
O'rmon xo'jaligi va landshaft dizayn fakulteti
O'rmonchilik yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Tel: +99897171-10-99

Qodirova Arofat Abdulkarimovna

Toshkent davlat Agrar universiteti
O'rmon xo'jaligi va landshaft dizayn fakulteti
3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8337120>

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda qishloq xo'jaligi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar va qishloq xo'jaligining hozirgi ekologik ahvoriga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, hosil, savdo, korxonalar, zavod, chiqindi, qo'riqxonalar, sanoat markazlari, tabiiy landshaft, yaylov, dala.

CURRENT ECOLOGICAL CONDITION OF AGRICULTURE IN UZBEKISTAN

Abstract. This article is devoted to the conditions, opportunities and current ecological situation of agriculture in Uzbekistan.

Key words: Agriculture, harvest, trade, enterprise, factory, waste, reserve, industrial centers, natural landscape, pasture, field.

СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Данная статья посвящена условиям, возможностям и современному экологическому состоянию сельского хозяйства Узбекистана.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, урожай, торговля, предприятие, фабрика, отходы, заповедник, промышленные центры, природный ландшафт, пастбище, поле.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning qulay hududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqariladi. Chunki bu hududda tabiiy-iqlim sharoitlar yetarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperatura 26-30° ni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo'lib, bir yilda bir necha marta hosil olish imkonini beradi.

Aholi zich yashaydigan Samarqand va Farg'ona viloyatlariga yirik kimyo zavodlarining joylashishini no'rin deb hisoblash mumkin. Hozirgi davrda kelib, respublikada kun sayin aholining o'sib borishini e'tiborga olgan holda, yangi turar joy hududlarini barpo etish talab qilinadi. Respublikamizning ko'pchilik shahar va boshqa turar joy markazlari qadimdan shakillanganligi, savdo va boshqa turdagi ijtimoiy ma'muriy xizmat korxonalariga moslashganligi uchun atroflariga esa sanoat markazlarining tashkil etilishi, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ayrim joylarida zavod rahbarlarining tashabbusi bilan yirik zavodlar atroflarida ham turar joy hududlari barpo etiladi. Masalan, Samarqand kimyo zavodi yonida "Kimyogarlar" shaharchasi barpo etilgan shaharcha rivojlanib borishi tufayli, alohida ahamiyatga ega bo'lgan

kichik shahar toifasiga yaqin hisoblanadi. Shaharcha hududida yil davomida vaqti-vaqti bilan kimyo zavodi tutunlari paydo bo'lishi turardi. Respublikamizda tabiiy boyliklardan asosiysi sug'oriladigan yerlar bo'lib, ushbu joylardan sanoat va turar joylarini joylashtirish tabiat muhitini buzilishiga va respublikaning kelgusidagimãnviy boyliklarni yo'qolishiga olib keldi. Ushbu omillarni e'tiborga olib, tabiat muhitini muhofaza qilish tabiiy boyliklarni saqlash va ulardan samarali foydalanish hamda iqlimni saqlab qolish maqsadida faoliyat darajasiga qarab respublikamiz mintaqalariga bo'linadi:

1. Tabiatdagi qo'riqxonalar, yirik o'rmonlar, tog`-dam olish joylari, daryo ko'l vasuv havzalarining qirg'oqlari hamda tabiiy iqlim omillari bo'yicha ahamiyatli hisoblanadigan hududlar.

2. Qishloq xo'jalik ekinlariga moslashgan hududlar (sug'oriladigan yerlar va boshqa har xil o'simliklar hamda daraxtzorlar mumkin bo'lgan joylar).

3. Turar joy va o'zidan zararsiz chiqindilar chiqaradigan sanoat markazlari joylashgan hududlar bunday hududlarda shaharsozlik va tibbiy geyinik talablar asosida ular orasida himoya mintaqasi joylashadi.

Bunday zararsiz korxonalar turkumini atmosferaga zaharli tutun chiqarmaydigan suv havzalari va zamanga o'zining chiqindisini o'tkazmaydigan o'zidan katta shovqin chiqarmaydigan korxonalar tashkil qiladi.

Ekologik nuqtai nazaridan dam olish va davolanish uchun taqsimlanayotgan hududiy mintaqalar respublika viloyat va tumanlarda bosh reja loyihasida ko'rsatiladi. Unda ishlab chiqarish kuchlarining turar joy hududlarining o'rni ommaviy dam olish sayohatchilar va ular davolanish uchun joylar ko'rsatiladi. Bunday hududiy taqsimot atrof muhitni muhofaza qilish uchun eng yuqori darajadagi shaharsozlik tadbiri bo'lib, hisoblanadi.

Zarafshon daryosi qirg'oqlari va Urgut tog'lari va boshqa tabiat ko'rkam joylar ma'daniy hordiq chiqarish dam olish maskani sifatida ajratilishi mumkin.

Agar viloyatlarda hududiy taqsimotni maqsadga binoan ishlab chiqarish yo'lga quyilsa o'sha joy aholisining turmush tarsi keskin ravishda rivojlanadi, yaxshilanadi. Tabiiy muhitning holati nuqtayi nazaridan va O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish chizma loyihasi asosida respublika hududini uch ta ekologik faoliyat doirasidagi mintaqalarga ajratish mumkin:

-tabiiy landshaft

-xo'jaliklar uchun foydalanishi chegaralangan mintaqalar

-xo'jaliklar jadal foydalanishi mumkin bo'lgan mintaqalar

Birinchi faoliyat mintaqasiga kuchli va maxsus tabiatni muhofaza qilish talab etilgan holatlar kiradi qo'riqxonalar milliy bog'lar o'zlashtiriladigan hudud, o'rmon xo'jaligi ko'chat yetishtiriladigan xo'jalik, ovchilik xo'jaliklari.

Respublika hududida bir qancha qo'riqxonalar bo'lib, ular davlat tomonidan qo'riqlanadi. Qo'riqxonada tabiat boyligi bo'lib, soni kamayib ketadigan jonivorlar va o'simliklar qo'riqlanadi. Qo'riqxonalar bilan birgalikda bir necha milliy bog'lar ham mavjud. Bu bog'larda qadimiy daraxtlar va o'simliklar rivojlanishi uchun imkoniyat yaratilgan.

Shunday bog'lardan Toshkent viloyati hududida Bo'stonliq va Ohangaron tumanlariga qarashli Chotqol tog'o'rmon qo'riqxonasi bo'lib, uning maydoni 500 ming ni tashkil qiladi. Sherobod tumanidagi qo'riqxonasi esa 254 mingga, Qashqadaryo viloyati hududidagi Shahrisabz,

Yakkabogʻ, Kitob, Qamashi va Dehqonobod tumanlaridagi “Gʻuzor” qoriqxonasi maydoni 250 mingga.

Haydar koʻl Nurota va Tomdi tumani atrofidagi qoʻriqxonaning maydoni esa 150 mingga yaqin. Ushbu qoʻriqxonalarining va milliy bogʻlarning yordamida suv yoʻnalishlari oʻz holiday saqlanadi. Selning miqdori kamayadi. Daraxtzorlar barpo etilishiga imkoniyat yaratiladi va tabiiy qayta shakillanish roʻyobga chiqadi. Bunda tabiiy muhit tadbirlari birinchi navbatda tabiatni oʻz holatida saqlashga qaratilgan boʻlishi kerak. Ikinchi faoliyat doirasidagi mintaqaga ochiq past tekisliklar adirlar va inson tasirida nisbatan oʻzgargan togʻ oldi hududlari kiradi. Bu mintaqada tabiiy muhitni ifloslantiradigan ishlab chiqarish korxonalarining koʻpchiligi joylashgan boʻlib, birinchi navbatda ularning ekologik taʼsirini ishonchli tadbirlar orqali kamaytirish talab qilinadi. Uchunchi faoliyat doirasidagi mintaqasi esa sugʻoriladigan hududlar kiradi. Bunda qishloq xoʻjaligi yaxshi rivojlangan boʻlib, shuning bilan bir qatorda sanoat markazlari hisoblangan shahar va qishloqlar oʻz oʻrnini topgan. Shuning uchun ham ushbu mintaqada havoning eng ustki va eng ostki suvlarining buzilishi, tuzilishinin ghaddan tashqari yomon holatdagiligi tabiiy muhitga taʼsir qiladi.

Eng yirik sugʻrinish hududlari Fargʻona va Zarafshon vodiysida, Amudaryoning quyi qismida, Sirdaryoning oʻrta qismida va Surxandaryo vodiysida joylashgan. Mintaqada tezlik bilan ekologiyaga boʻlgan antropologik taʼsirni cheklash lozim. Tabiiy holdagi landshaft mintaqasi 44,1 ming km yoki 9,8 % hududni tashkil etadi. Xoʻjalikda foydalanish cheklangan mintaq 355,14 ming kilometer yoki 47,4 %. Xoʻjalik uchun jadal foydalanish mumkin boʻlgan mintaq 48,3 ming km. kv. Yoki 10,8 % hududni tashkil etadi. Samarqand va Jizzax viloyatlarida noqulay, nisbatan qulay va noqulay hisoblangan tabiiy muhit mintaqalari boʻlib, qulay chegara qiymatlariga toʻgʻri keluvchi mintaqalarga ajratilgan Muhandislik ekologiyasi nuqtayi nazaridan qulay sharoit deb hisoblangan: mintaqaga: qoʻriqxonalar hududlari, ormonchilik, Urgut, Samarqand va Qoʻshrabot tumanlarida togʻli joylar kiradi. Bu joylarda qoʻriqxonalar va oʻrmon xoʻjaliklarining mavjudligi sababli ob-havoga, suv havzalari, yer usti qatlamiga insonning taʼsiri kam.

Ekologik cheklangan noqulay sharoitdagi mintaqadagi togʻ oldi tumanlari, adirlar va odam taʼsirida nisbatan kamroq oʻzgartirilgan hududlar tashkil qiladi. Bunga Samarqand viloyatining Qoʻshrabot tumani, Samarqandning bir qismi, Urgut tumani Jizzax viloyati Baxmal tumaning bir qismi, Zomin, Gʻallaorol hamda oʻrtasoy past tekisligi atrofidagi Forish tumani kiradi. Atmosferadagi chang miqdori haddan tashqari koʻp suv miqdori favqulotda cheklangan. Tuproq nurash jarayoniga uchragan boʻlib, u xalq xoʻjaligiga hamma zarar yetkazadi. Shu mintaqada tabiiy muhoitga inson faoliyati taʼsirini kamaytirish bialn birga sugʻorish maydonlari atrofida shamolni toʻsuvchi daraxtzorlar barpo etib, yerga solinadigan kimyoviy oʻgʻitlar miqdorini kamaytirish, yer ustki va ostki suvlarini ifloslantirishdan saqlash tadbirlarini qoʻllash lozim. Ekologik noqulay ushbu mintaq qishloq xoʻjaligiga moslashagn sugʻoriladigan maydonlardan iborat boʻlish, unda sanoat markazlari joylashgan. Shuning uchun mintaqada tabiat muhitini ifloslantiradigan manbalar koʻp boʻlganligi sababli ularning zararli taʼsirini oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

-Oqdaryo, Qora daryo quyi oqimidagi Narpay va Kattaqoʻrgʻon yer osti yuqori darajada ifloslangan.

-Kattaqoʻrgʻon suv omborining gʻarbiy qismiga suvni himoya qilishi maqsadida ekilgan oʻrmonga kimyoviy moddlarning zararli taʼsiri bor.

-Pastdargom tumanining bir qismiga Samarqand superfosfat zavodining ta'siri tufayli joining havosi va suv manbalari zaharlangan.

-Jonboy va Samarqand tumanining bir qismi Zarafshon davlat qo'riqxonasi atrofida chiqindilar va oqava suvlar ta'sirida ekologik muammolar yuzaga keladi. Insonning turmushi va yashash sharoiti ijtimoiy faolligi tabiat va uning g'oyliklaridan foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiiy sharoitning qulayligi tufayli sug'orishga asoslangan qishloq xo'jaligining yuksaltirishga xizmat qilsa, suv manbalarining notekis taqsimlanganligi, yerning yuqori darajada shorlanganligi va boshqa bir qator omillar, qishloq xo'jaligining rivojlanishiga keskin to'sqinlik qiladi. Shunga binoan, bu omillarni o'z vaqtida to'la hisobga olish lozim. Hozirga kelib 4.1 darajada shorlangan. Kimyoviy o'g'itlar bilan hosildorlikni oshirish mumkin, lekin, yerga har yili tonnalab kimyoviy o'g'itlar berilishi, yer holatini bora-bora o'zgartiradi, uni oddiy til bilan aytganda (charchatadi). Ikkinchidan bunday o'g'itlar mevalarni iste'mol qilish, sog'lom avlod, umuman inson salomatligiga putur yetkazadi.

Meneral o'g'itlar ko'plab ishlatilish natijasida suv havzalari va yer osti suvlari, tuproq qatlamlari haddan ortiq ifloslanmoqda. Meva, sabzavot va poliz maxsulotlari tarkibida kimyoviy elementlar miqdori ko'p. Respublika paxta dalalarining har bir gektariga o'rtacha 54.5 kg turli kimyoviy moddalarning to'g'ri kelganligi tashvishli xoldir.

Yangi ekin maydonlarini ochish, paxtazorlarning yildan yilga kengaytirilishi ularni suv bilan ta'mirlash uchun bag'riga kanallar qazilib, obihayotning, zovur suvlarining qayta daryo o'zanlariga tashlanishi, suv tarkibining ifloslanishi olib, keldi. Suv tanqisligi sezilayotganligiga qaramasdan suvni tejash uchun yangi sug'orish usullari va texnologik jarayonning g'ustkashlik bilan joriy etilish usullari va texnologiya jarayonlarining sustkashlik bilan joriy etilishi xo'jaliklararo va xo'jaliklarning shaharliklari o'zanida sodir bo'layotgan milliardlab kubometr suv sivilishining oldini olish ishlari oqsayotganligi, suv tanqisligini yanada kuchaytirmoqda.

Adirlarda, yaylovlarda yangi yerlarning ochilishi asrlar davomidayerning yuqori qatlamida paydo bo'lgan o'simliklarning yo'qolib ketishiga olib keldi. Bu o'simliklar ildizi juda chuqur bo'lgan shuning uchun ham bunday yaylovlarda o'tlagan mollarning goshti va suti shirin bo'lgan. Qorako'l terilari ham juda yuqori sifatli bo'lgan. Hozirgi texnika vositalari "faoliyati" natijasida yaylovlarda bunaqangi mazzali yoki sifatli chorva maxsulotlarni ba'zi joylardagina uchratish mumkin.

Kishilar oxirgi paytda tog' oraliqlarini ham o'zlashtirib, dehqonchilik va "yashirin" ekinlar ekish bilan shug'ullanib, dorivor o'simliklarning ekishga va shu joylarda unga necha barobar ziyod daromat keltiruvchi chorvachilikka to'sqinlik qila boshladilar. Daryo va kanallardan sug'oriladigan loyqa qumli suvni tindirgichlar yordamida to'g'ridan tog'ri ekinzorlarga oqizishga shu joylarda hosildor yerlarning yuza qismida yillar o'tishi bilan qumloq qatlamini oshishiga sababchi bo'ldilar. Buning oqibatlarini Urgut tumani "quyi qishloq" va "Goyibota" qishloqlarining ekinzor yerlaridagi bir vaqt hosildor bo'lgan yerlarni misol keltirish mumkin. Bu ikkala qishloq o'rtasidan yangi ariq kanali o'tgan. Shu ariqning sharq tomoni balandlik bo'lib, qadimda sug'orilmagan. G'arb tomoni pastlik bo'lib, Yangi ariq suvi bilan sug'orilganligi uchun hozirgi paytda yangi olingan yuqori tomondagi yerlarning hosili quyi tomondagi hosilga nisbatan ikki uch barobar sifati bilan ham, og'irligi bilan ham farq qiladi. Ikkala tarafdin quritilgan 5 metrli uzunlikdagi ipga tizilgan tamaki bargining og'irligi tarozida tortilganda-quyi tomondagi o'rta

hisobda 4-6 kg, yuqori tomonidagi esa 12-14 kgni tashkil qiladi. Vaholangki, ikki tarafga ham bir xil mehnat bir xil ozuqa sarflanadi.

Buning sababi yer usti qismida vaqt o'tishi bilan ariqdan oqib kelayotgan qumni ekinzorga tarqalib ketishi natijasida shu zamin qadimgi zaminlarga nisbatan issiqlik haroratiga chidamsiz bo'lib, ikki uch barobar suv sarfini talab qiladi. Agarda jamoa xo'jaliklari asosiy kanaldan suvni olish joyida maxsus tindirgich hovuz o'rnatib, tindirilgan suvni ekinzorga yuborilsa ekinzorni sug'orish uchun ketadigan suv sarfi ikki uch barobar tejaladi. Hovuzda cho'kkan tozza va uvilgan qumdan shu xo'jalik qurilish materiallari sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ko'pgina tog'larda tabiiy o'sadigan o'simliklar: rivoch, tog' piyozi, sunbul lola maydonlari yil sayin kamayib bormoqda. Masalan, Urgut tog'laridagi rivoch va tog' piyozlari tipiga selitra solinib, suniy tarzda va ko'paytirilib, bozorda sotilmoqda. Natijada bu o'imliklar g'oyat kamayib ketmoqda.

Atmosfera havosi va suv manbalarining ifloslanishi shaharda istiqomat qilish uchun zarur bo'lgan muayyan shart-sharoitlarni ayniqsa yomonlashtiradi, uning iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy soha tarmoqlari darajasini pasaytiradi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sanoat jihatidan ko'proq rivojlangan shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi besh yuz mingdan ortiq turli moqddalar ta'sirida bo'lar ekan.

Shahar havosining buzulishi yirik shaharlardagi haroratni bir muncha ko'tarib yuborishi ham mumkin. Ko'p qavatli binolar va transport vositalaridan keladigan issiqlikni tez tarqalib ketish qiyinligi tufayli shunday xodisa yuz beradi. Shaharlarda tabiiy muhitning qisman bo'lsada ifloslanishi kishilar sog'lligiga, yashash sharoitiga, aholining faravonligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir kishi faqat havo suvning ifloslanganligidan oziq-ovqat mahsulotlarida netratlarning haddan tashqari ko'p bo'lishidan o'rta hisobidan yiliga o'n kun kasal bo'lar ekan. Ular orasida nafas olish yo'llari qon aylanishi, oshqozon-ichak, allergic xastaliklari ko'proq uchraydi. Shahar aholisining ishdan bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi ham atrof-muhitning qay ahvolda ekanligi bilan bog'liq.

Ayniqsa urbanizatsiya jarayoni kuchayib borayotgan bir sharoitda xususan insonning tabiat bilan munosabatida uning o'ziga xos ekolog ehtiyojlari shakllana boradi.

Atrof-muhit, inson-sog'liq asosan shovqun-suron atmosfera havosi va suvning sarflanishi orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunga ko'ra shaharlarda istiqomat qilish tabiiy tartibni huquqiy jihatlarni aniqlash va ularga rioya etishni ta'minlashi zarur.

Bu huquqiy qoidalarda tashqi muhitni suv manbalarni zararli, oddalar bilan ifloslanishidan saqlash, shovqin-suron natijasida ro'y beradigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish kabi masalalar kiradi.

Turli xil sanoat tarmoqlari transport vositalari, qurilishning shakllanishi va rivojlanishi yangi shaharlar sonining ko'payib borishi ayniqsa issiq iqlimda O'zbekiston sharoitida yangidan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. O'zbekiston hozirgi kunga kelib ekologik vaziyat eng murakkablashgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo'rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma'ruzalar matni. -T.: TIM, 2012

2. Salomov T. Hamdamov Q.S. Tursunxo'jayev T.L., To'raxo'jayev T.I., Hakomov R.X., O'roqov N.I., Aripov I.M., Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
3. Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti, -T.: MCHJ —RAM-S||, - 2007
4. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M., Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
5. Salimov T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jayev T. L., To'xtayev T.I., Xakimov R.X., O'roqov N.L., Aripov I.M. Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
6. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. —Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi. O'quv qo'llanma. T.: —O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasil bosmaxonasi nashriyoti, 2016.

TARAQQIYOT ASRIDA ISHSIZLIK MUAMMOLARI

Otabek G'ofurov

O'zbekiston Milliy universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi talabasi

E-mail: otabekgofurov891@gmail.com

tel: 94 947 97 99

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8339693>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fan, texnika rivojlanib borayotgan davrimizda inson mehnat kuchiga ehtiyoj kamayib borayotgani va bu jahonda ishsizlik muammolarini keltirib chiqarayotgani hususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Samaradorlik, iqtisodiyot, tizim, taraqqiyot, inson, jamiyat, ijtimoiy, ishsizlik, layoqat, ishchi kuchi, kambag'allik, mehnat resurslari, sanoat, bandlik, kasb, sarmoya, mulkchilik, mehnat bozori.

PROBLEMS OF UNEMPLOYMENT IN THE AGE OF DEVELOPMENT

Abstract. This article talks about the fact that the need for human labor is decreasing in our time when science and technology are developing, and this is causing problems of unemployment in the world.

Keywords: Productivity, system, economy, development, human, society, social, unemployment, ability, workforce, poverty, labor resources, industry, employment, occupation, investment, ownership, labor market.

ПРОБЛЕМЫ БЕЗРАБОТИЦЫ В ЭПОХУ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье говорится о том, что потребность в человеческом труде снижается в наше время, когда развивается наука и техника, и это вызывает проблемы безработицы в мире.

Ключевые слова: Производительность, экономика, система, маърузвитие, человек, общество, социальное, безработица, способность, рабочая сила, бедность, трудовые ресурсы, промышленность, занятость, занятие, инвестиции, собственность, рынок труда.

Kirish. Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda yashayotgan ekanmiz, inson jismoniy kuchiga emas, inson tafakkuriga suyanib qoladigan jamiyat barpo etilayotgandek go'yo. Bu bir tarafdin jamiyat uchun samarali va har taraflama insonni qiladigan vazifasini tez va oson bajarishiga olib keladi, ammo, bir tomondan dunyoda ishsizlik muammolarini keltirib chiqaradi. Hozirgi vaqt mobaynida o'tish davri iqtisodiyotining oldida turgan dolzarb muammolardan biri – mehnat bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirishdir. Buning uchun, hammadan avval ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining obyektiv qonunlaridan savodli foydalanish zarur. Ma'lumki, taraqqiyot sohibi bo'lib xizmat qilgan inson jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi hisoblanadi. Faqat inson ehtiyojini juda muhim deb bilgan va uning samarali takror ishlab chiqarilishini ta'minlagan jamiyatgina eng yuqori taraqqiyotga erishadi. Jamiyatning boshqa barcha vositalari: mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish va ilmiy salohiyat, moliya, narxlar ushbu asosiy maqsadga bo'ysunishi kerak. Bu degani, bugungi bozorga qarab, iqtisodiy tizim harakatini to'g'ri mo'ljalga olish, o'tish davrini tezlatish yoxud sekinlashtirishdir.

Mehnat bozori – bozorning boshqa barcha tizimchalari bilan uzviy bog‘langan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bandlik va ishsizlik muammolari muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bandlik o‘z navbatida o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq, qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, ularga mehnat daromadi keltiradigan faoliyatidir. Unumli va ijtimoiy mehnat qilishga bo‘lgan o‘z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat, shu jumladan haq to‘lanadigan ishni bajarishga aloqasi bo‘lmagan faoliyat bilan shug‘ullanish mutloq huquqi fuqarolarga tegishli hisoblanadi. Darhaqiqat, talabga ega bo‘lish uchun ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta turib, u o‘z iste‘mol sifatlarini yo‘qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim. Nafaqat o‘zini qayta ishlab chiqarish, balki mehnat resurslari va butun aholining sifat ko‘rsatkichlari ham yaxshilanishini rag‘batlantirib borib, kelajakda qayta ishlab chiqarishga asos solishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, mehnat bozorida raqobat xodimning mehnat qobiliyatini takomillashtiruvchi asosiy kuch sifatida mavjud bo‘lishi lozim. Shu munosabat bilan ishchi kuchiga talabni shakllantiruvchi tizimda xuddi shunday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, ya‘ni xaridorlar – mulkdorlar o‘rtasida raqobat paydo bo‘lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mehnat bozorining boshqa muhim nazariy qoidasi – uning o‘z-o‘zini hududiy ifodalash haqidagi tasavvuri. Xodim hatto yollanganda ham, o‘zining “mehnatga qobiliyatlari”ni qayta ishlab chiqarishga ehtiyojini boshidan doimiy kechirib, bozor bilan aloqasini uzmaydi. Bundan tashqari, xodim eng yaxshi sharoitlarni qidirib, bir yollovchidan boshqasiga o‘tishga tabiiy intilishi ham mavjuddir. Amaliyotning ko‘rsatishicha, ishlab chiqarish kuchlari darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, migratsion faollik ham shunchalik jadaldir. Bunda xodimlarning bir qismi mehnat bozorida vaqti-vaqti bilan paydo bo‘lib, vaqtincha ishlab chiqarishda ishtirok etmaydi.

Prof. V. Kulakovning hisob-kitoblariga ko‘ra, ish bilan band bo‘lganlarning katta qismi shunday harakatda bo‘ladi: har yili sanoatda 35% gacha, qurilishda 40% , temiryo‘l transportlarida 37% ishtirok etadi. Shuning uchun mehnat bozori ijtimoiy bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy-mehnat sohasining tarkibiy qismidir. Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida mehnat bozorining o‘nlab ta‘riflari keltiriladi. Masalan, yangi sinfiy maktabni yaratuvchilar D. Gilder, A. Laffer, M. Feddstayn, R. Xollar mehnat bozorini ichki bir xil bo‘lmagan va g‘oyat o‘suvi hamda bozor qonunlariga bo‘ysunuvchi tizim sifatida qaraydilar. Narx-navo mexanizmi uning asosiy regulatori bo‘lib xizmat qiladi. Mehnat narxi va ish haqi darajasi ishchi kuchiga talab va taklifga ta‘sir qiladi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, kerakli mutanosiblik va muvozanatni saqlaydi. Tabiiy bozor mexanizmlariga ko‘ra, ishchi kuchi narx-navo, bozor konyunkturasiga tez va ephillik bilan javob beradi, uning haqiqiy ehtiyojiga muvofiq ko‘payadi yoki kamayadi. Jadal mehnat bozori sharoitlarida ishsizlik – mehnatga layoqatli aholining band bo‘lmagan qismi davra aylanishi vazifasini bajaruvchi tabiiy hodisa. Keynsman maktabining asoschisi J. Keyns o‘z konsepsiyasini «Bandlik, foiz va pullarning umumiy nazariyasi» nomli kitobida bayon qilgan. U mehnat bozorini sustkash, statistik tizim sifatida ko‘rib chiqadi, ishchi kuchi narxi (ish haqi)ni yetarli darajada qat‘iy, deb qayd etadi.

Majburiy ishsizlikning mavjudligi majmuaviy samarali talab yetishmasligi bilan asoslangan, uni budjet va kredit-pul tartibiga solishning samarali (ekspansiyonistik) choralari yo‘q qilishi mumkin. Talabning yetishmasligi mehnatga pul to‘lashning uning pasayishi tomoniga

egiluvchan emasligi oqibatida vujudga keladi, buning natijasida talab pasayganda ishlab chiqarish hajmi va bandlik qisqaradi, ish haqining nominal stavkalari o'zgarishsiz qoladi. Davlat bozorni tartibga solib boruvchi vazifasini o'taydi, u majmuaviy talabni oshirib yoki pasaytirib, ushbu tengsizlikni yo'q qilishi mumkin. Ishchi kuchiga jami talab investitsiya va ishlab chiqarish hajmlari bilan tartibga solinadi.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida davlatning eng asosiy vazifalari, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimini topish, mavjud davlat dasturlari ijrosini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda aholini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ayniqsa ishsizlik, norasmiy ish bilan bandlik va kambag'allik darajasini kamaytirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan mazkur muammolar va ularning yechimlari aniq ko'rsatilgan: kambag'allikni kamaytirish – bu alohida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir". Bu esa mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashi, ishsizlikni kamaytirishni taqozo etadi. Ularni ijobiy hal qilish aholi turmush darajasini oshirishga olib keladi. Hozir mamlakat mehnat resurslarining ish bilan band bo'lmagan qismi ko'rsatkichi asta-sekin o'sib borish an'anasiga – tendensiyasiga ega. Bunday holat sanoat mehnatining tor doirada qo'llanilishi, yangi ish joylarini yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining yetarli emasligi, mehnat resurslari sonining ish joylari miqdoriga nisbatan tezroq o'sishi, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida mutanosiblikning mavjud emasligi, mahalliy kadrlar malakasi va raqobat qobiliyatining pastligi va ularning ish axtarish harakatlari sustligi bilan asoslanadi.

Bundan tashqari, mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga yangi yerlar o'zlashtirilishining kamayishi, intensiv texnologiya va kam mehnat talab qiladigan texnikaning yuqori unumsiz qo'llanilishi, xo'jalik yuritish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning yangi bozor usullaridan samarasiz foydalanilishi, kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlik rivojlanishining past darajasi, ish bilan band bo'lganlar moddiy manfaatdorligining pasayishi va inflatsiya jarayonlari kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Holbuki, sanab o'tilgan omillar bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining muqarrar belgilaridir. Aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri mehnat bozorini maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish hamda uni tartibga solish hisoblanadi. Bu ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi uzviy aloqalar va ziddiyatlarni, ular hamkorligining samaradordik mezonlarini aniqlashga, qishloq mehnatkashlari kasb malakasini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashga hamda jonli mehnat resurslarini "ortiqcha" va ish joylari "taqchil" sharoitlarda ishchi kuchiga talab va taklifni makroiqtisodiy tartibga solishga, pirovardida ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tadbirlarni maqsadga muvofiq ravishda ishlab chiqishga samarali imkon beradi.

Bunday tadbirlarni ishlab chiqish sodir bo'layotgan jarayonlarni chuqur o'rganishni, mehnat bozorining shakllantirilishi va rivojlantirilishining eng muhim muammolarini va ularni ijobiy yechish yo'llarini aniqlashni taqozo qiladi. Respublikamiz uchun mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha muammoni hal qilishning eng samarali

vositalaridan biri bo'lgan mehnat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tadqiq qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ularni o'rganish quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning inobatga olinishini taqozo etadi: 1) Respublikada mehnatga qobiliyatli aholining 60% dan ortig'i qishloq joylarda yashaydi va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 40% dan ko'prog'ini ishlab chiqaradi; 2) noqishloq xo'jaligi ishchi joylari yetishmasligi sababli ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnat resurslari ulushi respublikaning ish bilan band bo'lmagan butun aholisining 60% dan ortig'ini tashkil qiladi va ularning soni o'smoqda; 3) mehnatga qobiliyatli, ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnatkashlari malakasi va safarbarligining pastligi ularning yashash joylaridan shaharga va mamlakatning kam mehnat bilan ta'minlangan hududlariga hamda xorijiy davlatlar obyektlariga qarab harakat qilishlariga asosiy to'siq bo'lmoqda; mehnat resurslari sonining mehnatni tatbiq etish mintaqalarga nisbatan tezroq o'sishi yashirin ishsizlikni, ayniqsa, qishloq xo'jaligida ishchi kuchini taklif etish unga talabdan oshib ketadigan darajada ko'payishiga bevosita yordam beradi; 4) qayta ishlash sanoati, qurilish va xizmat ko'rsatish korxonalari hamda xususiy xo'jaliklarda yangi ishchi joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi ratsional nisbatni ta'minlash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.

Bozor iqtisodiyoti davrida mehnat bozorini «mehnatga qobiliyatli» ishchi kuchini xarid qilish-sotishni amalga oshiruvchi tizim sifatida ko'rib chiqish o'rinli. Shuning uchun u ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy mehnat sohasining ochiq, murakkab, ko'p aspektli va o'suvchi tizimchasi bo'lib, ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantiruvchidir. Mazkur bozor ishchi kuchiga talab va aholining taklifini tartibga solishda bevosita ishtirok etadi va oqilona bandlikning shakllanishi hamda ishsizlikni kamaytirishga ko'maklashadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations). Mehnat bozorida raqobat bir tomondan insonlar o'rtasida bir- biriga nisbatan egoizmlik hissini paydo qilsa bir tomondan mehnat bozorini o'sishiga olib keladi. Bu esa o'z o'rnida mehnat bozorini kengayishiga va rivojlanib borgan sari ishchi kuchiga talabni orttiradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, ekinlarni yetishtirishda tarkibiy tuzilmani qayta ko'rish, zarar keltirib ishlayotgan korxonalarni tugatish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni joriy etish hisobiga asosan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidan bo'shatilayotgan xodimlar soni tez ko'paymoqda.

Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishni rag'batlantirish usullarini tadqiq etish mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga hamda mazkur hudud uchun samarali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilganidir. Mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va xarid qilish hamda servis xizmati ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo'yicha ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish kuchlari va bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish, agrar sektordagi ishdan vaqtincha bo'shatilayotgan shaxslar uchun mavjud korxonalarni kengaytirish va qayta ta'mirlash hamda yangi ish joylarini yaratish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – sarmoyalar hajmini ko'paytirishni rag'batlantirish mazkur uslubning qo'llanishining asosiy yo'nalishlaridir. Ishchi kuchlariga talabni oshirishni mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor iqtisodiyot tarmoqlarida ish joylarini yaratish hamda mavjudlarini qayta ta'mirlash va yangi, zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to'g'ridan to'g'ri jalb qilish orqali tartibga solish mumkin.

Dotatsiyalar, subsidiyalar va kreditlarni agro-sanoat majmui korxonalarini, ayniqsa, qayta ishlash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnat faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko'p bolali ayollar, mehnatga layoqatli pensionerlar, nogironlar, o'smirlar va hokazolarga mos ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa ortiqcha mehnat resurslarini yuqorida aytib o'tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalb etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy va malaka tarkibiga bevosita ta'sir o'tkazish mumkin. Muvaqqat ish joylarini yaratish va mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirishni rag'batlantirish – aholi bandligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri.

U korxonalarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, budjet to'lovlari va xodimlarning vaqtincha va qisman bandligi uchun ijtimoiy sug'urta badallarini kamaytirish, ularni ishga qabul qilish jarayonini yengillatish, bandlikning noan'anaviy shakllarini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni to'lash kabi chora-tadbirlar yordamida amalga oshiriladi. Mehnat bozori shakllanishiga ishchi kuchining «mehnatga bo'lgan qobiliyati» tovarga aylanishi, erkin taklifi, ish beruvchilarning ishchi kuchiga mustaqil talabi, iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi, ko'p mulkchilikning rivojlanishi kabi iqtisodiy, ijtimoiy na huquqiy shart-sharoitlar bevosita ta'sir etadi. Mehnat bozori shakllanishida asosiy muammo bo'lgan ishchi kuchiga talabning ortishi hamda uning taklifi kamayishi turli omillar, tamoyillar va cheklovchilar ta'sirida amalga oshiriladi.

Mehnat bozorining asosiy tarkibiy qismlarni mukammal tadqiq qilish uning shakllanish jarayonini batafsil ifodalabgina qolmasdan, balki bu sohada yechilishi lozim bo'lgan asosiy muammolarning aniqlanishiga ham imkon beradi: ishchi kuchiga talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan ortiqcha xodimlar ozod bo'lishini tezlatish; ish bilan band bo'lmagan, mehnatga layoqatli aholining raqobatbardoshligi va malakasini oshirish, turg'unligini kamaytirish va uning ijtimoiy himoyalanganligini ta'minlashdan iborat.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni // «Mehnat» gazetasi. —T., 1993-yil, 1-oktabr.
2. Usmonov S.N, Dodoboev Yu.T. «Bozor iqtisodiyoti asoslari». Toshkent: «Fan»-1999
3. Xolmo'minov Sh.R., Xolmurodov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti.

MEHNAT JAMOASIDA HODIMLARING PSIXOLOGIK JARAYONLARI

Otabek G'ofurov

O'zbekiston Milliy universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi talabasi

E-mail: otabekgofurov891@gmail.com

tel: 94 947 97 99

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8339710>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat jamoasida hodimlarning bir-biriga bo'lgan ijobiy va salbiy munosabatlari, psixologik jarayonlar va mehnat jamoasini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: g'oya, tadqiqot, ishlab chiqarish, inson faoliyati, jarayon, munosabat, ijtimoiy-psixologik, rahbar, sintez, tabaqalanish, tipik, intensiv, mehnat.

PSYCHOLOGICAL PROCESSES OF EMPLOYEES IN THE WORK TEAM

Abstract. This article talks about the positive and negative relations of employees to each other in the work team, psychological processes and measures aimed at comprehensive development of the work team.

Keywords: idea, research, production, human activity, process, attitude, socio-psychological, leader, synthesis, differentiation, typical, intensive, work.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ СОТРУДНИКОВ В РАБОЧЕМ КОЛЛЕКТИВЕ

Аннотация. В данной статье говорится о положительных и отрицательных отношениях сотрудников друг к другу в рабочем коллективе, психологических процессах и мерах, направленных на всестороннее развитие рабочего коллектива.

Ключевые слова: идея, исследование, производство, человеческая деятельность, процесс, отношение, социально-психологический, руководитель, синтез, дифференциация, типичный, интенсивный, труд.

Abstract. There are some important stages in the process of psychomotor development in children. A period of sports-related activities is included in these stages. At this stage, which covers the period of childhood, the level of physical and motor development of children increases significantly. Physical and motor development is supported by directing children of this age group to sports. One of the most important motor skills that children develop through playing sports is strength. Children's strength development is positively influenced by appropriate exercises to support strength development. Research aimed at developing strength in children should take into account the principles of psychomotor development in order to achieve the best results and eliminate the risks of any disability in children. This study focuses on strength development in children, the contribution of sports to strength development, strength training in children and strength training in children.

Keywords: Child, Psychomotor Development, Strength Development, Physical, Exercises, Sprint Physiological, Education, Individual.

СИЛОВЫЕ ТРЕНИРОВКИ И СИЛОВЫЕ ТРЕНИРОВКИ У ДЕТЕЙ

Аннотация. В процессе психомоторного развития детей можно выделить несколько важных этапов. В эти этапы входит период занятий спортом. На этом этапе, охватывающем период детства, значительно повышается уровень физического и двигательного развития детей. Физическое и двигательное развитие поддерживается путем направления детей этой возрастной группы на занятия спортом. Одним из наиболее важных двигательных навыков, которые развивают дети, занимаясь спортом, является сила. На развитие силы детей положительно влияют соответствующие упражнения, способствующие развитию силы. Исследования, направленные на развитие силы у детей, должны учитывать принципы психомоторного развития, чтобы достичь наилучших результатов и исключить риски возникновения каких-либо нарушений у детей. Это исследование посвящено развитию силы у детей, вкладу спорта в развитие силы, силовой тренировке у детей и силовой тренировке у детей.

Ключевые слова: Ребенок, Психомоторное развитие, Силовое развитие, Физические, Упражнения, Физиологический спринт, Обучение, Индивидуальный.

Kirish

Psixomotor rivojlanish odamlar hayoti davomida davom etadigan vosita mahoratida yuzaga keladigan xatti-harakatlarni boshqarish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Psixomotor harakatlar bu sezgi organlari, ong va mushaklar birgalikdagi ishi bilan amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, psixomotor xatti-harakatlarni boshqarishga imkon beradigan jarayon psixomotor rivojlanishni anglatadi. Psixomotor rivojlanish inson hayotining barcha davrlarida har xil tezlik yoki shakllarda bo'lsa ham uzluksiz jarayondir. Psixomotor rivojlanish va jismoniy rivojlanish bir-biri bilan parallel ravishda sodir bo'ladi va bu ikki rivojlanish jarayoni ajralmas tuzilishga ega. Bundan tashqari, sog'lom psixomotor rivojlanish, jismoniy uning rivojlanishidan tashqari, aqliy, hissiy va ijtimoiy shuningdek, rivojlanish uchun sog'lom bo'lish juda muhimdir.³⁹

Bolalarda sport bilan bog'liq harakatlar davri psixomotor rivojlanish davrida muhim bu bir joyga ega. Bu davr bolalarning umumiy rivojlanish davrlarida bo'lgan maktab davriga to'g'ri keladi. Bu davr ham ko'p ko'nikma va malakalarni talab qiladigan harakatlar boshlangan va rivojlangan davrdir. Ushbu davrda bolalarning motor qobiliyatlaridan biri bo'lgan kuch xususiyatining rivojlanishi hali savol tug'dirmaydi. Aksincha, bolalarda yosh ortishi bilan kuch ortishi ham sodir bo'ladi

Sport bilan shug'ullanish vosita xususiyatlaridan biri bo'lgan kuchni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. O'tkazilgan tadqiqotlarda sport bilan shug'ullanish inson organizmiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi ko'p sohalarda ijobiy hissa qo'shishi va kuch-quvvat rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi aniqlandi.⁴⁰ Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z maktablarida mashq qiladigan jismoniy tarbiya darslarining maqsadlari orasida bolalar ham bor, tortish, uloqtirish va hokazo. kuch xususiyatlarining yaxshilanishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, ilmiy o'lchovda baholanganda sport bilan shug'ullanish yoki amaliy kuch mashqlarining bolalarda kuch rivojlanishiga ta'sirini o'rganadigan ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Kuch tushunchasi

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga baho bersak, ko'pgina olimlar kuch tushunchasini bir xil narsani anglatuvchi turli ifodalar bilan aniqlashgandek tuyuladi. Kuch tushunchasi fizikada ob'ektlarning pozitsiyalarini, harakatlarini va shakllarini o'zgartiradigan ta'sir, biomexanikada esa harakat va muvozanatni ta'minlaydigan ta'sirlar sifatida tavsiflanadi.

Sport ma'nosida olingan ishlash testi natijalari baholanganda, kuch xarakteristikasi ba'zi sport tarmoqlarida ishlashga bevosita yoki bilvosita ta'sir qilishi aniqlandi. Ayniqsa, og'ir vaznli sport turlarida kuch sifati va miqdori katta ahamiyatga ega. Og'ir va engil vaznlilarni taqqoslashda, o'lchovlar va musobaqalarda olingan natijalarga ko'ra, engil vaznlilar og'ir vaznlilarga qaraganda kuchliroq va muvaffaqiyatliroq ekanligi aniqlandi. Bu jamoaviy sport bilan shug'ullanadigan shaxslar va shaxslarga ham tegishli bu haqiqiy ekanligini bildiradi.⁴¹

Ichki va tashqi qarshiliklarni engishga imkon beradigan kuch bu asab va mushaklar qobiliyati sifatida belgilanadi. Sportchi ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan eng katta kuch darajasi bu harakatning biomexanik xususiyatiga va mushak guruhlarining hajmiga bog'liq. Kuch xususiyati kuch va tezlanish ko'paytmasiga teng bo'lgani uchun, bu kuch darajasida sodir bo'ladigan o'sish ikki xususiyatdan birini yoki ikkalasini o'zgartirish orqali taqdim etiladi. Shunga ko'ra, biz yuqori dastur tezligi va uzoq vaqt davomida qo'llaniladigan kuch katta quvvatni keltirib chiqaradi deb aytishimiz mumkin. 12 13. Bundan tashqari, mushaklar kuchiga ba'zi morfologik-fiziologik, muvofiqlashtiruvchi va motivatsion omillar ta'sir qiladi.

³⁹ Omzun JC, Mikesky AE, Surburg PR. Neuromuscular adaptations following prepubescent strength training. *Med Sci Sports Exerc* 1994;26:4:510-4.

⁴⁰ Faigenbaum AD, Milliken LA, Loud RL, Burak BT, Doherty CL, Westcott WL. Comparison of 1 and 2 days per week of strength training in children. *Res Q Exerc Sport* 2002;73:4:16-24.

⁴¹ Suman OE, Spies RJ, Celis MM, Mlack RP, Herndon DN. Effects of a 12-week resistance exercise program on skeletal muscle strength in children with burn injuries. *J Appl Physiol* 2001;91:1168-75.

Bolalarda kuchni rivojlantirish

Bolalarda kuchning rivojlanishi yoshga parallel ravishda, suyak tizimidagi balandlik, vazn, mushaklar nisbati va mushak massasining rivojlanishi bilan parallel ravishda ortadi. Ushbu rivojlanish tananing sport tuzilishiga ega bo'lishiga yordam beradi. Biroq, kuch darajasining yaxshilanishi nafaqat qo'llar tizimining mosligiga bog'liq. Chunki bolalarda kuchning rivojlanishi gormonal rivojlanishning rivojlanishiga bog'liq bo'lib, Markaziy asab tizimining maqsadga muvofiq ishlay boshlashi va O₂ qarzdorlikni yaxshiroq tuta bilish qobiliyati ham rivojlanadi. Shu sabablarga ko'ra bolalarda maksimal kuch, tezkor kuch va kuchning uzluksizligi rivojlanishida yoshga xos farqlar bo'lishi mumkin. 8-11 yoshda, ular boshlang'ich maktabda bo'lganida va 11-13 yoshda, o'rta maktabda bo'lganida bolalarning Motor rivojlanishi yuqori darajada. Shu sababli bolalar bo'lgan bu davrlar ularning harakat malakalari rivojlanayotgan paytda "ideal yosh" deb ataladi.⁴²

Kuchning rivojlanishini baholasak, bolalarning maktabgacha yoshdagi kuch darajasi pastligi ma'lum bo'ladi. 6-8 yosh guruhidagi bolalar boshlang'ich maktabning birinchi yillarida kichik mushak guruhlari uchraydi, katta mushaklar va kichik mushaklar o'rtasidagi muvofiqshartlash darajasi past bo'ladi. Erkaklarda maksimal quvvat rivojlanishi 10-13 yosh orasidagi oldingi davrlarga nisbatan past darajada bo'lsa-da, 13-14 yoshda sekinlasha boshlaydi. Qizlarda maksimal kuchning rivojlanishi 14 yoshida yakunlanadi. Kuchda doimiylik xususiyatining rivojlanishi o'g'il va qiz bolalarda o'xshash darajalarda sodir bo'ladi. Va o'n yoshdan keyin erkaklar foydasiga rivojlanish farqi paydo bo'ladi. Boshqa tomondan, tez kuch maksimal kuch bilan parallel ravishda rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, otish kuchi qiz bolalarda 13-14 yoshda, o'g'il bolalarda otish kuchi esa maksimal darajaga etadi uning rivojlanishi uzoq vaqt davom etmoqda.

Sprint kuchini baholasak, birinchi maktab yoshi bundan buyon o'g'il bolalar qizlarga qaraganda yaxshiroq sekinlasha olishlarini ko'rish mumkin va ular orasidagi farq har yili oshib boradi va bu davr oxiriga kelib qizlar maksimal sprint kuchiga erishadilar. ma'lumki, 12-13 yoshdagi qizlar va o'g'il bolalarning vertikal sakrash va uzunlikka sakrash chiqishlari o'xshash darajada bo'lib, balog'at davrida o'g'il bolalar qizlarga qaraganda yaxshiroq sakrash ko'rsatkichlarini namoyish etishadi. Bundan tashqari, ushbu yosh davri tez kuch bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boshlang'ich sport yoshi sifatida uchraydi. Erkaklarda kuchning rivojlanishidan tashqari, vertikal va gorizontol sakrash ko'rsatkichlarining ijobiy yaxshilanishi 13-14 yoshda asabnovembermuskulyar tizimning tez yaxshilanishi tufayli kuzatiladi. O'smirlilik davrida o'g'il bolalarning umumiy kuch darajalari qizlarga nisbatan yuqori bo'ladi. Bu erkaklarda testosteron gormonining ko'payishiga asoslangan. Ayniqsa, erkaklarda 13 yosh-bu testosteronning chiqarilishi va kuchning rivojlanishi tez bo'lgan davr.⁴³

Bolalar uchun kuch mashqlari

Bolalarda muvaffaqiyatli kuch mashqlari uchun birinchi tavsiya har bir bolaning jismoniy mahorat darajasiga qarab individual o'quv dasturini tashkil qilishdir. Kuchni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarda kuch-quvvat mashqlarini endigina boshlayotgan shaxslar avval umumiy kuch xususiyatini rivojlantirishlari kerak. Sportchi ishtirok sport turi, kuch ta'lim katta mushak guruhlari uchun sabr tayyorlash keyin surish-pull yoki engil og'irliklari bilan boshlash mumkin. Bu erda noyabr mushaklarning kuchini emas, balki mushaklarning sifatini yaxshilash va jarohatlardan himoya ta'sirini ta'minlashdir.⁴⁴ Bundan tashqari, rivojlanish yoshidagi bolalarda

⁴² Ramsay JA, Bilimkie CJ, Smith K, Garner S, Macdougall JD, Sale DG. Strength training effects in prepubescent boys. *Med Sci Sports Exerc* 1990;22:605-14.

⁴³ Eniseler N. Çocuk ve gençlerde futbol. İstanbul: TFF Futbol Eğitim Yayınları; 2009.

⁴⁴ Karatosun H. Futbol da Fiziksel Performans Gelişimi. Isparta: Altıntuğ Ofset; 2012.

kuch-quvvat mashg'ulotlariga moslashish muhim masaladir. Chunki bolalarning kuch-quvvat mashqlariga moslashishi ularning sog'lig'i va ish faoliyatini rivojlantirish uchun muhimdir.⁴⁵

Ilk maktab yoshidagi bolalarda avvalo asosiy kuch xarakteristikasini tarbiyalash kerak. Shu sababli, yuk ko'tarish xususiyatini yaxshilash uchun kuch uzluksizligini o'rganish va tezkor kuch tadqiqotlari qo'llanilishi kerak. Mushakalar uchun asosiy holatlar uchun muhim rol o'ynaydigan orqa, qo'l va oyoqlarning va bu mushak guruhlarining nurlari birinchi navbatda mustahkamlanadi. Ushbu davrda kuch-quvvat mashqlarini endigina boshlayotgan bolalarda ko'p qirrali kuchlarning rivojlanishini ta'minlash, charchoqqa qarshilik va yuk ko'tarish qobiliyatini rivojlantirish maqsad qilingan. Boshlang'ich maktab yoshidagi va muntazam ravishda mashq qiladigan bolalarga qo'llaniladigan kuch-quvvat tadqiqotlarida ko'p qirrali rivojlanish mashqlari sport o'yinlari va jangovar sport turlari kabi sohalarda qo'llanilishi mumkin. O'rta maktab yoshi, tadqiqotlar katta mushak guruhlari umumiy va ko'p qirrali rivojlantirishga qaratilgan tana og'irligi yoki qo'shimcha og'irliklari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan mashqlar mazmuniga qo'shimcha ravishda barda o'z-o'zini tortib olish, barda oktyabr yoki parallel, handstand, push-up va sakrash ketma-ketliklari qo'shilishi mumkin. Shunga qaramay, noyabr bu davrda qorin va orqa mushaklarini rivojlantiradigan tadqiqotlar o'tkazilishi kerak. Kuch uzluksizligi tadqiqotlariga maksimal takrorlanish sonining 50% bo'lgan tadqiqotlar kiritilishi mumkin, so'ngra takrorlanish soni asta-sekin ko'paytirilishi mumkin. Tez kuch-quvvat mashg'ulotlarida yukni asta-sekin oshirish printsipi tufayli ish yuki oshiriladi va maksimal kuch-quvvat mashqlari uchun infratuzilma ta'minlanadi.

Mushaklarda to'g'ri bolalarda kuch ta'lim amaliy, mushak kuchi rivojlantirish, suyak rivojlanishiga ijobiy ta'sir va o'sish salohiyati qo'llab-quvvatlash kutilgan natijalar. Bundan tashqari, bolalarda yoshga mos keladigan kuch-quvvat mashqlari nogironlik va jismoniy stress bilan bog'liq salbiy ta'sirlarni kamaytiradi. Yuqori zichlikdagi kuch mashqlari bilan xavfsizlik choralari ko'rmasdan unga yuqori qarshilik-oktyabr og'irliklari bilan mashq qilish skelet suyaklarining o'sish zonalariga zarar etkazadi. Shu sababli, mashq qilish usuli va kuch-quvvat mashqlaridagi yuk mezonlari mashg'ulot maqsadlariga muvofiq belgilanishi kerak. Bundan tashqari, kuch-quvvat mashqlari yoshidan katta bo'lganlar kuch-quvvat mashqlari tarixiga ega bo'lmaganlarga qaraganda tez-tez mashq qilishlari mumkin.⁴⁶

Kuch-quvvat mashqlarini bajarishdan oldin, bajariladigan mashg'ulot mazmuniga muvofiq isitish ishlari olib borilishi kerak. Ayniqsa, cho'zish mashqlaridan foydalanish kerak. Kuchni o'rganish va o'spirinlarda yangi boshlanuvchilar uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarining asosiy maqsadlaridan biri bu mustahkam tarkibiy va fiziologik asosni ishlab chiqishdir. Bunday yondashuvsiz doimiy yaxshilanish mavjudligi bu mumkin emas. Shuning uchun, noyabr bu kuch-quvvat mashqlari haqida, murabbiylar tananing asosiy mushak guruhlariga qaratilgan kuch-quvvat mashqlarini bajarishlari kerak. Kuch o'rganishdan oldin qo'llaniladigan harakatlarni bolalar tushunadigan tarzda tushuntirish va o'rgatish kerak. Bundan tashqari, kuch-quvvat mashg'ulotlarida ishtirok etadigan bolalar kerakli harakatlarni bajara olishlari kerak. Biroq, bolalarning qiziqishlarini diqqat bilan tinglash, kuch-quvvat mashqlari haqida fikr-mulohazalar olish, bolalarni rag'batlantirish va ijobiy yordam berishga harakat qilish kerak.

Natijada

Bolalarda kuchning rivojlanishi yosh guruhlariga qarab farq qiladi. Bundan tashqari, muhim munosabatlar mavjud dek bolalarga qo'llaniladigan kuch-quvvat mashg'ulotlarining mazmuni va kuchni rivojlantirish. Bundan tashqari, ayrim davrlarda o'g'il va qiz bolalarning kuch-quvvat rivojlanishi bir-biridan farqli darajada bo'ladi. Shuning uchun bu muhim masala dek bolalarga qo'llaniladigan kuch mashqlarini bolalar o'rtasidagi individual farqlarga va psixomotor

⁴⁵ Faigenbaum AD. Strength training and children's health. J Physical Educ Recre Dance 2001;72:24-30.

⁴⁶Virgilio SJ. Fitness education for children. USA: Human Kinetics; 1997.

rivojlanish davrlariga qarash kerak. Shuning uchun bolalarga kuch-quvvat mashqlarini qo'llaydigan murabbiylar yoki murabbiylar bolalarda psixomotor rivojlanish to'g'risida bilimdon bo'lishlari kerak. Natijada, kuch ongli bolalar uchun qo'llaniladigan aytishimiz mumkinki, ularning mashg'ulotlari kuch rivojlanishini oshiradi.

REFERENCES

1. Omzun JC, Mikesky AE, Surburg PR. Neuromuscular adaptations following prepubescent strength training. *Med Sci Sports Exerc* 1994;26:4:510-4.
2. Faigenbaum AD, Milliken LA, Loud RL, Burak BT, Doherty CL, Westcott WL. Comparison of 1 and 2 days per week of strength training in children. *Res Q Exerc Sport* 2002;73:416-24.
3. Suman OE, Spies RJ, Celis MM, Mlack RP, Herndon DN. Effects of a 12-week resistance exercise program on skeletal muscle strength in children with burn injuries. *J Appl Physiol* 2001;91:1168-75.
4. Ramsay JA, Bilimkie CJ, Smith K, Garner S, Macdougall JD, Sale DG. Strength training effects in prepubescent boys. *Med Sci Sports Exerc* 1990;22:605-14.
5. Eniseler N. Çocuk ve gençlerde futbol. İstanbul: TFF Futbol Eğitim Yayınları; 2009.
6. Karatosun H. Futbol da Fiziksel Performans Gelişimi. Isparta: Altıntuğ Ofset; 2012.
7. Faigenbaum AD. Strength training and children's health. *J Physical Educ Recre Dance* 2001;72:24-30.
8. Virgilio SJ. Fitness education for children. USA: Human Kinetics; 1997.

BUXORO VILOYATIDA TA'LIM XIZMATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Umurova Behishtibonu Murodilloyevna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8364162>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyatida ta'lim xizmatlari va uni rivojlantirish tendensiyalari masalalari haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan bo'lib, ta'limning rivojlanish yo'nalishlari, taraqqiyot tendensiyalari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Maqola so'ngida xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmatlari, rivojlantirish tendensiyalari, ta'limning rivojlanish yo'nalishlari.

EDUCATIONAL SERVICES AND TRENDS OF ITS DEVELOPMENT IN BUKHARA REGION

Abstract. This article talks about issues of educational services and trends of its development in Bukhara region. Reasonable opinions and considerations are used throughout the article, and information is given about the directions of education development and development trends. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

Key words: educational services, development trends, directions of educational development.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УСЛУГИ И ТЕНДЕНЦИИ ИХ РАЗВИТИЯ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы образовательной услуги и тенденции ее развития в Бухарской области. На протяжении всей статьи использованы обоснованные мнения и соображения, представлена информация о направлениях развития образования и тенденциях развития. Выводы и предложения приведены в конце статьи.

Ключевые слова: образовательные услуги, тенденции развития, направления развития образования.

Bugungi kunda Buxoro viloyatida ta'lim xizmatlari va uni rivojlantirish tendensiyalari masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aytish mumkinki, uzluksiz ta'lim tizimida quyidagi o'ziga xos holatlar vujudga kelgan:

1. Ta'lim resurslari ta'lim ehtiyojlariga mos kelmasligi tufayli shaxsning ijtimoiy hayot va bulg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatining umumiy pastligi;

2. Ta'lim sifatini nazorat qiluvchi vakolatli tuzilmalarning o'quv-tarbiya muassalarini litsenziyalash va akkreditatsiya qilishni rasmiy tashkil etish bilan cheklanib, ularning amalda kechayotgan ta'lim jarayonini yetarlicha nazorat qilmasligi;

3. Ma'rifiy masalalar o'ta jiddiy moliyaviy tanqislik sharoitida ishlash, ta'lim soxasini tijoratlashtirishning hozirgi xolati uni inqirozdan olib chiqa olmaslik;

4. Strategik nuqtai nazardan ta'lim tizimi va jarayonini uning barcha tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning samarali konsepsiyasi ishlab chiqilmaganligi, shuningdek ma'rifiy muassasalar faoliyatini ma'lum bir tarzda tartibga solib turadigan qonun-qoidalar mavjudligi, biroq ta'lim tizimi va jarayonida shakllangan umumiy qoliplar uning yaxlit rivojlanishiga emas, balki ayrim qismlarining yomonlashuviga olib kelganligi;

5. Ma'rifiy muassasalar faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi kuchayganligi, ularning haqiqiy mustaqilligini qat'iy tartibga soluvchi me'yoriy – huquqiy hujjatlar (moliyaviy erkinlik, variativ DTS, o'quv rejalari va dasturlari va sh.k.) mavjud emasligi;

6. Pedagogik kadrlar tayyorlash siyosatining aniq konsepsiyasi to'liq ishlab chiqilmaganligi;

7. Ma'rifiy muassasalar (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari), ayniqsa asosiy oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik salohiyati pastligi;

8. Ta'lim-tarbiya sohasida xalqaro hamkorlikning kengayishi va yangi ta'limtarbiya texnologiyalarining qo'llanilishi. Zamonaviy ta'lim tizimi va jarayoni o'tmishdagi faoliyatga emas, balki kelajak faoliyatga yo'naltirilgan bo'lsa, chinakam innovatsion xususiyatga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan bugungi ta'lim tizimi va jarayonida quyidagi umumiy taraqqiyot tendensiyalari kuzatilmoqda:

1. Ta'lim tizimi va jarayonini demokratlashtirish. Ta'lim tizimi va turlari mazmunini tanlash erkinligi, ularning xammabopligi, ta'lim tizimi va jarayonini boshqarishning demokratik tabiati va ma'rifiy muassasalar avtonomiyasi.

2. Ta'lim jarayonini va o'qituvchi-talaba mexnatini individuallashtirish. Individuallashtirish sinf (auditoritiya) mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtni kamaytirish hisobiga o'qituvchi-talabalarning mustaqil ijodiy ishlari hajmini sezilarli oshirishni nazarda tutadi.

3. Ta'limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish. Ta'lim jarayonida asosiy e'tibor o'quvchi talaba shaxsiga yo'naltiriladi. O'quvchi-talaba ta'limiy faoliyat subyektiga aylanadi. Ularning madaniy dunyoqarashi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar xisobiga kengaytiriladi. Insonparvarlashtirish tushunchasi ostida umuminsoniy qadriyatlar, inson hayoti va salomatligi, shaxsning erkin kamol topishi tushuniladi. Ijtimoiylashtirish o'quvchi talabalar uchun ham eng qulay shakllar metodlar va shartsharoitlar yaratilishini o'z ichiga oladiki, bunda insoniy munosabatlar, o'z fikrlarga chidamlilik, jamiyat oldidagi javobgarlik kabilar shakllantirishirilishi lozim.

4. Ta'lim tizimi va jarayonini kompyutirlashtirish. Kompyutirlashtirish nafaqat xisoblash va grafik ishlari uchun, balki axborot tizimlariga kirish uslubi, shuningdek avtomatlashtirilgan tizimlar va ma'lumotlarni taqdim etish vositasi sifatida test va pedagogik nazorat uchun xam katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

5. Ta'lim tizimi va jarayonini fundamentallashtirish. Bu o'qituvchi-talabalarning fundamental (umumilliy) tayyorgarligini kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Fundamental fanlar bo'lg'usi mutaxassislariga o'z soxasida erkin mo'ljal olishga, to'plangan yangi matreallarni mustaqil tahlil qilishga, noto'g'ri qarorlar qabul qilishining oldini olishga imkon beradi. Texnologiyalarning tez o'zgarishi yaxshi fundamental tayyorgarlikni va yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish qobilyatini talab etadiki, bu ishni tor doirada amalga oshirib bulmaydi.

6. Ta'limiy dasturlarni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, shu jumladan tegishli tarmoqning yetakchi korxonalariga ta'limiy xizmatlarni taqdim etish. Bu shuni anglatadiki, o'quvchi-talabalar maxsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi sherik korxonalarda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

7. Uzluksiz ta'lim va mustaqil ta'lim olish o'quvchi talabalarning mustaqil ta'lim olish qobilyati va ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning uzluksiz ta'lim tizimiga qo'shilishi xamda

o‘z bilimi, ko‘nikmasi va malakasini doimiy oshirishga imkon beradi. Shuningdek, o‘quvchi-talabalarning amaliy loyihalarga, o‘quv ishlarining jamoaviy shakllariga (xamkorlik, sheriklik) jalb etilishini anglatadi. Uzlüksiz ta‘lim va mustaqil ta‘lim olishni tashkil etish vazifalari qo‘shimcha norasmiy (kurslar, treninglar, qisqa dasturlar, masofaviy ta‘lim va sh.k) va kundalik ta‘lim (internet-resurslar, radio, televedenie, gazeta-jurnal, kutubxona va sh.k) bilan ham hal etilishi mumkin.

8. Ijodiy o‘quvchi-talaba shaxsini shakllantirish. Bu o‘quvchi-talabalarda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishga imkon beruvchi samarali ta‘lim texnologiyalari ishlab chiqilishini taqozo qiladi. O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar ma‘rifiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari quyidagilardan dalolat bermoqda:

1) ijtimoiy va ma‘naviy taraqqiyotning zaruriy sharti sifatida aholining ilm-ma‘rifatga, ya‘ni ma‘lumotli, o‘qimishli bo‘lishiga ishtiyoqi, qiziqishlarini muntazam ortib bormoqda;

2) bepul ta‘lim tarbiya beriladigan davlat ma‘rifiy muassasalari tarmog‘i kengaytirib bormoqda,

3) xususiy ma‘rifiy muassasalarda pulli ta‘lim xizmatini ko‘rsatish tendensiyasi saqlanib qolmoqda,

4) davlat byudjeti hisobidan ta‘lim tizimini moliyalashtirish hajmi oshib bormoqda,

5) ma‘rifiy muassasalar uchun turli manbalardan mablag‘lar to‘planmoqda;

6) ma‘rifiy muassasalarni hududiy boshqarish tamoyili kengaymoqda;

7) turli yo‘nalishdagi ma‘rifiy muassasalarning tuzilmaviy xilma-xilligi ortib bormoqda,

8) ma‘rifiy muassasalarda o‘quvchi-talaba tomonidan tanlab o‘rganiladigan o‘quv fanlarga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqilgan holda pedagogika fani taraqqiyotiga ta‘sir etuvchi quyidagi jihatlarni ta‘kidlash mumkin:

- matematik-statistik, biopsixologik va gnoseologik fanlar natijalaridan keng foydalanish asosida pedagogikaning insonshunoslik fanlari bilan chuqur aloqalar o‘rnatishi va ilmiy pedagogik bilimlar integratsiyasining kuchayishi;

- dunyoni pedagogik anglashning nazariy fundamental doirasi kengayish, ya‘ni pedagogika fanining ilmiy maqomi va ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish, rivojlantirish uchun nazariydan amaliyotga harakatlanish;

- pedagogika fanlar taraqqiyotini ta‘minlashda matematik-statistik va semantik – semasiologik axborot manbalaridan tizimli foydalanishga o‘tilishi;

- ijtimoiy xulq-atvor meyorlarini uyg‘unlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini boshqarishda ta‘lim jarayonini axborotlashtirishga alohida e‘tiborning kuchayishi;

- pedagogika fanining o‘ziga qarashli harakatlanish, taraqqiyot yo‘lini saqlab qolishga erishish va uning boshqa fanlar kategoriyalardan o‘rinsiz foydalanishi xisobiga tushunarsiz murakkablashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

Global pedagogik muammolarni hal etish uchun shaxslararo, millatlararo va davlataro munosabatlarni insonparvarlashtirish va axloqiy me‘yorlar to‘liq taminlanishiga doir ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish. O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ma‘rifiy tizimida sodir bo‘layotgan tub yangilanishlar jarayonni jahon ma‘rifiy tizimiga integratsiyalashuv va uning rivojlanish tendensiyalariga hamohang ekanligidan darak bermoqda.

REFERENCES

1. Jumanova F., Avazova C., Jabborova G., Xusnetdinov U. Umumiy pedagogika asoslari. Darslik. -T.: 2020 y
2. Azizxodjayeva.N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahurat. -T.: “Fan va texnologiyalar ” nashriyoti. 2006.
3. Mutalipova M. Xalq pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2015.
4. Ochilov.M Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi, Nasaf, 2000.
5. Mardonov SH.Q Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagogik kadrlarni tayorlash va malakasini oshirish. -T.: Fan, 2006.
6. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T: Moliya , 2003
7. Qurbonov M. Milliy Tarbiya –T.: Manaviyat, 2007.

INTERNET QURILMALARINING IOT (INTERNET OF THINGS) TEXNOLOGIYALARI

Islomov Muhammad Husniddin o'g'li

Jizzax politexnika institute assistenti
muhammadjon040497@gmail.com

Irisboyev Farhod Boymirzayevich

Jizzax politexnika institute assistenti
farhodirisboyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8364215>

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda texnologiyalar rivojlanishning boshlang'ich bosqichida bo'lganligi sababli inson ishtirokisiz IoT qurilmasi hech bir jarayonni amalga oshira olmaydi. Hozircha "aqlli" narsalar, asosan, ba'zi jarayonlarni avtomatlashtirish uchun ishlaydi. Kunduzi va kechasi iqlim sharoitini saqlashning turli rejimlarini ta'minlaydigan zamonaviy konditsionerlar bunga misol bo'la oladi. Ammo ularning aksariyati odamning borligi yoki yo'qligidan, xonadagi odamlarning soni va boshqa sharoitlardan qat'iy nazar, berilgan dasturni bajaradi.

Kalit so'zlar: Internet, texnologiya, IoT tizimi, Tarmoq, Tizimlar, Global ekotizim.

IOT (INTERNET OF THINGS) TECHNOLOGIES OF INTERNET DEVICES

Abstract. Currently, since the technologies are at the initial stage of development, an IoT device cannot perform any process without human participation. So far, "smart" things work mainly to automate some processes. An example of this is modern air conditioners that provide different modes of maintaining climate conditions during the day and at night. But most of them perform the given program regardless of the presence or absence of a person, the number of people in the room and other conditions.

Keywords: Internet, technology, IoT system, Network, Systems, Global ecosystem.

ИОТ (ИНТЕРНЕТ ВЕЩЕЙ) ТЕХНОЛОГИИ ИНТЕРНЕТ-УСТРОЙСТВ

Аннотация. В настоящее время, поскольку технологии находятся на начальной стадии развития, IoT-устройство не может выполнять ни один процесс без участия человека. Пока что «умные» вещи работают в основном для автоматизации некоторых процессов. Примером тому являются современные кондиционеры, обеспечивающие разные режимы поддержания климатических условий днем и ночью. Но большинство из них выполняют заданную программу независимо от присутствия или отсутствия человека, количества людей в помещении и других условий.

Ключевые слова: Интернет, технология, система IoT, сеть, системы, глобальная экосистема.

IoT (Internet of things) qurilmasi qanday ishlaydi

IoT (Internet of things) - Unda u jismoniy ob'ektlar (narsalar) bir -biri bilan yoki tashqi dunyo bilan qisman yoki to'liq inson ishtirokisiz o'zaro ta'sir o'tkazishga imkon beruvchi tushuncha sifatida qaraladi. Shu maqsadda tarmoqdagi bunday qurilmalarning tegishli assotsiatsiyalari ishlatiladi. Aslida, bu shuni anglatadiki, kundalik hayotda atrofimizdagi narsalar (eng sodda, masalan, qahva qaynatgichlardan tortib, mashinagacha) kerakli ma'lumotlarni o'zlarini o'rtasida uzatishi mumkin, bu IoT ning aralashuvisiz (nazoratisiz) odamga maksimal qulaylikni beradi [1].

IoT asosini tavsiflashda bir nechta asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

• **Qurilma (narsa)** - ma’lumotlarni yig‘ish, tarmoqqa kirish va ma’lumotlarni uzatish va masofadan boshqarish uchun sensorlar bilan jihozlangan alohida qurilma yoki uskunalari to‘plami.

• **IoT tizimi** - mahalliy yoki global qurilmalar tarmoqlari, shuningdek ularga yangilarini ulashga imkon beradigan, masofadan boshqarish, saqlash, uzatish va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydigan komponentlar [2].

IoT qurilmasida bir necha darajalar mavjud:

• **Jismoniy**- bu qurilmalarda ishlatiladigan apparat yechimlarini nazarda tutadi - sensorlar va aktuatorlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va boshqarish signallarini chiqarish uchun mikrokontrollerlar, ma’lumotlarni saqlash uchun xotira qurilmalari, tarmoq portlari.

• **Tarmoq** - bu ma’lumotlarni uzatish vositasi (masalan, kabel liniyalari yoki radiokanal), yo‘riqnomaga va boshqalar sifatida tushuniladi. Tarmoqdagi qurilmalarning o‘zaro bog‘liqligi uchun javob beradigan butun infratuzilma hisoblanadi.

• **Ilovalar**- ma’lumotlar va boshqaruv signallarini uzatish, identifikatsiyalash va o‘zaro ta’sir qilish uchun ishlatiladigan protokollar va interfeyslar [3].

IoT ning soddalashtirilgan modeli, Ron Van Kranenburgning so‘zlariga ko‘ra, bir necha qatlamlarning birligini ifodalaydi:

1. **Ob’ektlar (narsalar)** - apparat darajasida, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashning o‘ziga xos funktsiyalari, bajarilgan harakatlar, identifikatsiya vositalari.

2. **Tizimlar** – ma’lum bir foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatish - masofadan boshqarish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ma’lumotlarni qayta ishlashga imkon beradigan tarmoq darajasidagi va dastur darajasidagi ob’ektlarni birlashtirish (bunday tizimga misol qilib “aqlli uy”).

3. **IoT tizimi** - keng miqyosda turar joy yoki butun mamlakat sifatida qarash mumkin, buning natijasida mahalliy tizimlar yangi imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, do‘konda tovarlarga buyurtma berish yoki ta’tilga avtomatik rejimda sayohat qilishda joylarni bron qilish.

4. **Global ekotizim** – “Narsalar Interneti”. Aqlli shahar tushunchasi (bosish mumkin bo‘lgan rasm) [4-5].

Natijada, kontseptsyaning asosiy qoidalari shakllandi (IoTning ishlashiga qo‘yiladigan talablar):

• Tizim har kuni inson hayoti va faoliyati haqida ma’lumot to‘plashi, ularni qayta ishlashi va ma’lumotlarni saqlashi kerak.

• Alohida qurilmalar va umuman ekotizimning vazifalari yakuniy natijaga erishishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

• Odamlarni maqsadga erishish vazifasi beriladi, unga erishish yo‘llari emas.

Masalan, ideal holda, muzlatgich egasining odatlarini tahlil qilib, oddiy nonushta qilish uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarga buyurtma beradi, uy egasi ishdan kelguniga qadar xonani isitish uchun isitish tizimini yoqadi va aqlli buyuq yuboradi. Tibbiyotda tashxis ma’lumotlarini shaxsiy shifokorga yuboradi va dorixonadan kerakli dori - darmonlarni sotib oladi [6].

Internet qurilmalari

Narsalar Interneti tushunchasi (IoT) aqlli ravishda ulangan qurilmalar va tizimlarda ko‘milgan datchiklar va mashinalarda va boshqa jismoniy narsalarda to‘plangan ma’lumotlardan foydalanish uchun yaratilgan. IoT - bu bir nechta mashinadan mashinaga qo‘llaniladigan dasturlar

bir-biriga bogʻlangan va koʻpincha bir nechta joylardan maʼlumotlar almashinuvini taʼminlaydigan qurilma. Ulanish har bir obʼektga oʻrnatilgan maʼlumotlarni qayta ishlash qurilmalariga Internet orqali maʼlumotlarni qabul qilish va yuborish imkoniyatini beradi. Narsalar Internetining barcha taʼriflari uchun umumiy boʻlgan narsa shundaki, u kompyuterlar, datchiklar va obʼektlarning bir-biri bilan oʻzaro aloqasi va maʼlumotlarni qayta ishlashiga eʼtibor beradi [3].

Narsalar interneti anʼanaviy xizmatlardan ancha farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bogʻlangan narsalar anʼanaviy xizmatdagi odamlardir, ular narsalar Internetidagi narsalardir. Ulanishlar anʼanaviy xizmatdagi odamlar soni bilan bogʻliq boʻlsa, ular narsalar Internetidagi obʼektlar soni bilan bogʻliq. Asosiy xizmat anʼanaviy xizmatlarga ulanish boʻlsa, Internetda narsalar va qurilmalar mavjud. Har bir foydalanuvchiga oʻrtacha ulanish anʼanaviy xizmatlar uchun yuqori, Internet narsalar uchun pastroq. Boshqa tomondan, biznes modeli anʼanaviy xizmatlarda B2I (biznesdan isteʼmolchiga), Internetdagi narsalarda B2I (biznesdan isteʼmolchiga) [4].

Qisqacha aytganda, narsalar interneti maʼlumot toʻplaydigan va almashadigan va Internetga ulangan milliardlab jismoniy qurilmalarni nazarda tutadi. Kompyuter chiplari arzonlashishi va simsiz tarmoqlarning keng qoʻllanilishi bilan koʻplab obʼektlar narsalar Internetining bir qismidir.



Internet qurilmalari.

IoT maʼlumotlari qanday uzatiladi - Qurilmalarning oʻzaro taʼsiri va aloqasi uchun bitta (usuldan) foydalanish kerak boʻladi. Toʻliq texnik tahlil Cisco tomonidan amalga oshirilgan, natijada IP texnologiyasini yangi turdagi tarmoqlar talablariga moslashtirish mumkinligi aniqlandi. Bu holda, bu faqat turli xil qurilmalar orasidagi aloqa vositasini bildiradi, shu paytgacha bitta mashina tili haqida gapirishga hojat yoʻq. Ammo bunday boshlanish bilan ham, biz aytishimiz mumkinki, alohida jihozlarning murakkab majmuasi standartlashtiriladi va bu Internetda boʻlgani kabi amalga oshiriladi [7].

IoT haddan tashqari tezlikda oʻsib bormoqda, va oxir-oqibat trillionlab IoT qurilmalari Internetda paydo boʻla boshladi. IoT qurilmalarini Internetga joylashtirish radio spektriga katta talabni qoʻya boshladi. Bunga qarshi kurashish uchun va qurilmalarini ishonchliligini taʼminlash

uchun IoT qurilmalarida axborot uzatishga mo'ljallangan CR joriy etilishi juda zarur bo'ldi. Bundan tashqari, spektrning turli qismlari, masalan FM radio spektri, ikkilamchi litsenziyaning hayotiyligi uchun tahlil qilinishi kerak edi. Bu tahlil axborot uzatishga mo'ljallangan CR orqali amalga oshiriladi [7].

Hozirgi kunda Internet aloqasining asosiy usuli - bu insondan insonga bo'lgan aloqadir (I2I). O2O aloqalari - bu qurilmalar o'rtasida sodir bo'ladigan aloqa insonlarning o'zaro ta'sirini talab qiladi. O2O aloqalariga misollar elektron pochta va ijtimoiy shaxsiy kompyuter yoki ovozi suhbatlar va matnli xabarlar orqali media almashinuvi ya'ni aqlli telefon orqali bir-biri bilan aloqa qilish imkon yarata boshladi. IoT ning paydo bo'lishi bilan Internet aloqalari usullari paydo bo'ldi. Insondan narsaga (I2N) va narsadan narsaga (N2N) kommunikatsiyalar, shuningdek, mashinadan mashinaga (M2M) kabi aloqa usullari hozirgi kunda keng qo'llaniladi va IoT ning asosiy qurilish bloklaridan biri hisoblanadi [8].

REFERENCES

1. Besekersky Teoriya sistemavtomaticheskogo upravleniya [Theory of automatic control systems]. Besekersky, E. P. Popov-3rd Ed., ispr. - M.: Nauka Publ., 1975, 768 p. (in Russian)
2. M. Bogdanovich Radio receiving devices with a large dynamic range / B. M. Bogdanovich - M.: Radio and Communications, 1984, 177 p.
3. V. N Golubev. Effective selectivity of radio receiving devices В.Н.Голубев. Moscow:Svyaz, 1978, 239 p. (in Russian)
4. С.М. Отажонов, А.М. Худойбердиев, К.А Ботиров, М.М. Халилов, Н.Юнусов. У. Мамажонов Тензочувствительности полупроводниковых пленок с мелких и глубоких примесей при температуре жидким гелием //Международный журнал "Universum" технические наук. 2019. Vol. 2., № 12(69.2). стр. 28-33 DOI-10.3243/UniTech.2019.69/12-25.
5. Y.Zhang, R.Yu, M.Nekovee, L.Y and S.G.Xie, "«Cognitive Machine-to Machine Communications: Visions and Potentials for the Smart Grid» IEEE Network Journal, 2012.
6. President's Council of Advisors on Science and Technology, «Realizing the Full Potential of Government-Held Spectrum to Spur Economic Growth» Washington D.C., 2012.
7. D.A.Roberson, C.S.Hood, J.L.LoCicero and J.T.MacDonald, «Spectral Occupancy and Interference Studies in support of Cognitive Radio Technology Deployment» in IEEE Workshop on Network Technologies for Software Defined Radio Networks, Reston, 2006.
8. S.W.Ellingson, «Spectral Occupancy at VHF: Implications for Frequency Agile Cognitive Radio» in IEEE Vehicular Technology Conference, Dallas, 2005.

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA VULGARIZM VA VARVARIZMLARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Ra’no Boyto‘rayeva

Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti
1-bosqich talabasi. Tel.: 91-733-12-08

S.Tuliboyev

Ilmiy rahbar.

TerDU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8364250>

Annotatsiya. Tilda so‘kish, qarg‘ash ma‘nolarini ifodalaydigan yoki, soha mutaxassislari tili bilan aytganda “tushunarsiz nutq” deb nomlangan so‘zlardan foydalanish hollari ko‘plab uchraydi. Bularni qisqa qilib vulgarizmlar va varvarizmlar deb o‘rganamiz. Bunday so‘zlar badiiy asarlarda qahramonlarning xarakterini chuqurroq ochish uchun xizmat qiladi. Ushbu maqolada ham O‘tkir Hoshimov asarlarida vulgarizm va varvarizmlardan foydalanish orqali obrazlar xarakterini ochishda ijodkor uslubi va mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: varvarizmlar, vulgarizmlar, nutqning sofliqi, haqorat so‘zlar, nutqning tozaligi, ekspressivlik, obraz, xarakter.

THE SPECIFIC PLACE OF VULGARISM AND BARBARISMS IN OTKIR HASHIMOV'S WORKS

Abstract. In the language, there are many cases of using words that express the meaning of cursing, or, in the language of experts, "unintelligible speech". We will briefly study these as vulgarisms and barbarisms. Such words serve to reveal the character of the heroes in the works of art. This article also talks about the artist's style and skill in revealing the character of the characters through the use of vulgarisms and barbarisms in the works of Otkir Hoshimov.

Key words: barbarisms, vulgarisms, purity of speech, insults, purity of speech, expressiveness, image, character.

ОСОБОЕ МЕСТО ВУЛГАРИЗМА И ВАРВАРИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ОТКИРА ГАШИМОВА

Аннотация. В языке много случаев употребления слов, выражающих значение ругательства, или, говоря языком знатоков, «невнятной речи». Мы кратко рассмотрим их как вульгаризмы и варварства. Такие слова служат для раскрытия характера героев в художественных произведениях. В данной статье также говорится о стиле и мастерстве художника в раскрытии характера персонажей посредством использования вульгаризмов и варваризмов в произведениях Откира Хошимова.

Ключевые слова: варваризмы, вульгаризмы, чистота речи, оскорбления, чистота речи, выразительность, образ, характер.

Nutqimizda shunday so‘zlar borki, ular nutqning soflogiga putur yetkazadi, adabiy tildan mutlaqo yiroq hisoblanadi. Ammo badiiy asarlarda bunday so‘zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Mazkur so‘zlarga misol qilib vulgarizm va varvarizmlarni olishimiz mumkin.

Vulgarizmlar — haqorat ma‘nosida qo‘llanadigan qo‘pol so‘zlardir. Masalan, yer yutkur, oqpadar, qiztaloq kabi. Vulgarizmlardan badiiy adabiyotda ayrim qahramonlarning dag‘alligini,

madaniyatsizligini ko'rsatish uchun foydalaniladi. Ammo bunday so'zlar odatiy nutqda ishlatilmaydi. Nutqiy tozalikka rioya qilmaslik uning ta'sir kuchini pasaytiradi.

Tilshunoslikda vulgarizm deb ataluvchi haqorat so'zlarida o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi. Haqorat so'zlari badiiy asarlarda, asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning nutqida ishlatilayotganiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo'ladi.

Vulgarizmlar aslida nutqni nursizlantiruvchi, tinglovchi yoki o'quvchida salbiy munosabat uyg'otuvchi birliklar sanalsa-da, og'zaki va yozma nutqda ularning o'ziga xos o'рни mavjud. So'zlashuv nutqi bo'yicha kuzatishlar olib borgan professor B.O'rinboyev mazkur uslubga xoslangan vulgarizmlarni ma'nosi va qo'llanish doirasiga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

1) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: *dum, tekinxo'r, ayyor, buzuq, xomkalla, xumpar, noinsof, mag'zava, yuzsiz, esipas, lanj, latta, ig'vogar, xotinboz* kabilar. Bunday so'z va iboralarda so'zlovchining tinglovchiga salbiy munosabati, ichki hayajoni, nafrati, jirkanishi kuchli ifodasini topgan.

2) kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: *ko'ppak, maymoq, ilonbosh, simyog'och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, qo'ng'iz, mo'ylov, kal, qiyshiq, qo'tir, so'loqmon, bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda* kabilar. Bunday vulgar so'z va iboralar biror predmet nomiga nisbat berish, yaqinlashtirish, o'xshatish natijasida paydo bo'ladi.

3) so'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *yaramas, abrax, xumpar, nomard, badbaxt, nonko'r, ahmoq, gumroh, galvars, kasofat, ko'ppak, shallaqi, iblis, juvonmarg, benomus, vaysaqi* kabilar. Bunday vulgar so'z va iboralarda suhbatdoshlarning ichki hayajoni, ruhiy holati, g'azabi kuchli ifodalangan bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, vulgarizm va varvarizmlar badiiy asarlarda qahramonlarning xarakterini chuqurroq ochish uchun xizmat qiladi. Ijodkor qahramonning nutqi orqali uning ijtimoiy mavqei, xulqi, ijobiy yoki salbiyligini ochib beradi. Shuning bilan birga, nafaqat so'zlovchining, qolaversa, mazkur nutq qaratilgan shaxsning ham xarakterini ochib berishga erishadi.

Iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlarida ham shu kabi so'zlarni uchratish mumkin. Misol uchun, yozuvchining "Dunyoning ishlari" qissasi tarkibiga kiruvchi "Qanoat" nomli hikoyasida yozuvchining qo'shnisi, ya'ni Mo'min akaning xotini — Kelinoyi tilidan juda ko'p qarg'ish so'zlar keltiriladi:

*"... — Kecha mani shunday so'kdi, shunday so'kdi, yigitgina o'lgur! — Kelinoyi ikki qo'li bilan sharaqlatib soniga shapatiladi. — Onamni so'kdiya, bo'yginang go'rda chirigur"*⁴⁷.

Bunday so'zlarda ko'p hollarda ekspressivlik ifodalanadi, ya'ni bunday so'zlar, asosan, so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, muallif tomonidan ekspressivlik hosil qilish uchun asar qahramonlari tomonidan nutqning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi.

"... — Nimaga xafa bo'lmas ekanman? — Kelinoyi yana ham qattiqroq shang'illay boshladi. — Kechqurun o'sma ezib qo'yuvdim. Shu savil qurib qolmasin, deb qoshimga qo'ya qoluvdim. Ha, moshkichiri jindak tagiga olib, qotib ketibdi. Shungayam ota go'ri qozixonami?"

⁴⁷. Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari". Sharq, Toshkent- 2005-y. 40-b.

«Pardoz-andoz qilgandan ko'ra ovqatingga qarasang o'lasanmi!» deydi-ya, **go'rso'xta!** Ha, pardoz qilsam, o'ynashimga qipmanmi, **qirchiningdan qiyilgur!** Qirmochmi, balomi, zahringga yeyavermaysanmi, **yergina yutgur!** Xah, onamni so'kkan **tillaring tanglayingga yopishgur!** Tag'in nima deydi, deng? Aybni menga to'nkaydi: tiling bir qarich, deydi. Voy, tilimni gapirgan **tillaring jodida qiyma-qiyma bo'lsin-a.** Yeldek kelib, seldek olmasa aslo rozimasman!

— Voy nega qarg'amas ekanman? **Og'zi-burningdan laxta-laxta qoning kelgurni,** nega qarg'amas ekanman?⁴⁸

Yuqoridagi kabi holatlar so'zlovchining tinglovchiga yoki o'zga shaxsga nisbatan salbiy munosabatini aks ettirish jarayonida yuzaga keladi. Ba'zida muallif qahramonining alamini, qahr-u g'azabini ifodalash uchun haqorat so'zlardan keng foydalanadi.

Varvarizmlar esa ma'lum bir tilga chet tillardan kirib kelgan, tilda to'la o'zlashmay, yotligi bilinib turadigan so'z va iboralardir. Varvarizmlar ham xuddi vulgarizmlar kabi, asosan, so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, tilning adabiy me'yorini buzadi va uning asosiy lug'at tarkibiga kirmaydi. Varvarizmlardan ba'zan badiiy adabiyotda mahalliy muhitni berish, obrazlarni xoslashtirishda foydalaniladi. Masalan, **karochi, vapshe, tak** kabi so'zlar. Asosan, rus tilidan kirib kelgan so'zlar ko'proq ishlatiladi.

Atoqli olim Nizomiddin Mahmudov tilshunoslikda varvarizmlar deb yuritiladigan boshqa til birliklarini o'zbek tiliga o'zlashgan, adabiy tilning leksik me'yorlari sirasidan o'rin olgan chet so'zlardan farqlash kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha har qanday chet so'z emas, balki faqat varvarizmlar nutqning sofligini buzadigan unsurlar sifatida qaraladi.⁴⁹

M. Yo'ldoshev "Cho'lpon so'zining sirlari" kitobida varvarizmni boshqa so'zlardan ajratish kerakligi haqida shunday fikrlarni bildiradi: badiiy asarda qo'llangan har qanday ajnabiy so'z yoki iborani varvarizm deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, "Kecha va Kunduz" romanida *shafe, mustahiq, alalxusus, dasisa, kasirul-adad, itob* kabi juda ko'plab arabcha, *ori, sarzanish, xonaqoh, gulbun* kabi forscha so'zlar ishlatilgan, ammo ularni varvarizm deb qarash mumkin emas⁵⁰. Bu kabi so'zlar bizning tilimizda, ayniqsa, yozma adabiyotimiz tilida turli tarzda har xil sabab bilan juda eski zamonlardan qo'llanilib keladi.

Shu kabi so'zlarni aniqlashda ham O'rkir Hoshimov asarlariga murojaat qilamiz. Yozuvchining "Ikki karra ikki besh" qissasining O'n beshinchi bob, ya'ni "Rais buva otalik qilmoqchi" deb nomlangan bobida varvarizmlardan o'rinli foydalanilgan. Masalan:

"**Malades,** o'zimizning onamiz! Bormisiz, enajon!"⁵¹

Yoki bosh qahramonning qarindoshi Jovli aka tilidan keltirilgan gapni ham misol qilish mumkin: "Menimcha, Ergashev **nenormalniy** odam! Uni jinnixonaga topshirish kerak". ...

"...Qo'rqmanglar. **Pajalista!** Rayon prokuraturasi Ergashevga o'xshaganlarni izlab yuribdi o'zi..."

"...Qo'shoqjon **malades** yigit. Tuhmatga chidolmay ig'vogarni bo'g'ib turganining ustiga borib qoldim. Ajratib olmasam o'ldirib qo'yardi..."

⁴⁸ Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari". Sharq, Toshkent- 2005-y, 40-b.

⁴⁹ Mahmudov N. "O'qituvchi nutqi madaniyati". Toshkent; Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007

⁵⁰ Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent; Fan, 2008

⁵¹ Hoshimov O'. Ikki karra ikki besh. Toshkent; O'qituvchi, 2018, 316-bet

“Ergaship har xil **kavarniy** savollar bilan oddiy mehnatkashlarni chalg‘itmoqchi bo‘lgan...”⁵²

Bu kabi varvarizmlar adibning deyarli barcha asarlarida uchraydi. Varvarizmlar, odatda, o‘zga yerga xos rasm-odatni tasvirlashda, mahalliy muhitni berishda va yaratishda foydalaniladi.

Xullas, varvarizmlar badiiy nutqda yozuvchining mahorati bilan o‘ziga xos estetik vazifani bajaradigan vositaga aylanadi. Badiiy asardagi personajlarning xarakteri, ichki dunyosi, madaniy-ma’rifiy saviyasi kabi bir qator jihatlarni ta’kidlab ifodalashda varvarizmlar alohida o‘rin tutadi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, varvar so‘zlarni qo‘llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi.

REFERENCES

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida vokativ gap kategoriyasi. Toshkent; 1972
3. Nizomiddin Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent; Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007
4. M. Yo‘ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent; Fan, 2008
5. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. Toshkent; Sharq, 2005-yil
6. O‘tkir Hoshimov. Ikki karra ikki besh. Toshkent;

⁵² Hoshimov O‘. Ikki karra ikki besh. Toshkent; O‘qituvchi, 2018, 316-bet

БУХОРО ОБЛАСТИДА 1950-ЙИЛЛАРДА СУҒОРИШ ИНШОТЛАРИ ҚУРИШ ТАРИХИ

Мирзоев Шарифжон Миршакарович

Осиё Халқаро университети ўқитувчиси

Бухоро давлат университети таянч докторанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8364305>

Аннотация. Ушбу мақолада Бухоро областида 1950-йилларда суғориш иншоотларини қуриш тарихи бўйича маълумотлар келтирилиб ўтилган.

Калим сўзлар: суғориш иншоотлари, суғориш тизимлари, ёгингарчилик миқдори, сув йўллари, сув хўжалиги ташиқотлари.

HISTORY OF CONSTRUCTION OF IRRIGATION FACILITIES IN BUKHARA REGION IN 1950S

Abstract. This article provides information on the history of the construction of irrigation facilities in the Bukhara region in the 1950s.

Key words: irrigation facilities, Irrigation systems, amount of precipitation, waterways, water management organizations.

ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА ИРРИГАЦИОННЫХ СООРУЖЕНИЙ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ В 1950-Е ГОДЫ.

Аннотация. В данной статье представлены сведения об истории строительства ирригационных сооружений в Бухарской области в 1950-е годы.

Ключевые слова: ирригационные сооружения, оросительные системы, количество осадков, водные пути, водохозяйственные организации.

Янги суғориш тизимларига ўтиш қарори Бухоро областида мавжуд сув муаммосини яққол кўрсатиб берди. Суғориш тизимлари деярли яроқсиз ҳолатига келиб қолаганди. Мисол учун, Зарафшон дарёсида мавжуд Хархур, Дуоба, Мохонқўл каби иншоотлар авария ҳолатида эди. Ушбу объектлар зудлик билан транспорт ва ишчи кучи билан таъминлаш талаб этарди.

Акс ҳолда 1951 йилда ёгингарчилик миқдори меъёридан бир неча бор ортиқ бўлиши, дарё сув сатҳи ниҳоятда кўтарилиши натижасида ирригация иншоотларга талофат кўриши мукинлигидан Республика Сув хўжалиги вазирлиги Бухоро области раҳбариятини огоҳлантиради⁵³. Юқорида келтирилган мисол сув мўл бўлган йилларда ҳам область экин майдонларига сувни тенг ва барқарор тақсимлаш имконияти йўқлигидан далолат бериб турибди. Сув йўллари, коллектор ва заур тармоқларини тозалаш ишлари талаб даражасида эмас. 1953 йилни 20 январ ҳолатидаги маълумотга қараганда область бўйича тозалаш ишлари палани 52 фоизга бажарилган.

Бу ишларга режа бўйича ҳар куни 30 минг киши қатнашуви лозим бўлган ҳолда, фақат 6,5 минг киши иштирок этган. Экскаватор парки ва бошқа ер казиш механизмлари колхозлараро коллектор тармоғини тозалашда нўноқлик қилган⁵⁴. Шунга қарамасдан сув таъминотини яхшилашга қартилган тадбирлар кўлами тизимли кенгайтириб борилди.

⁵³ Бухоро вилоят давлат архиви 1111-фонд, 1-рўйхат, 136-иш, 83-варақ

⁵⁴ Бухоро вилоят давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат, 906-йиғма жилд, 30-варақ

1952 йилни 12 апрель санасида Обком партия томонидан “Бухорода пахта хомашёси етиштиришни янада кўпайтириш чора-тадбирлари тўғриси”даги қарор қабул қилинди. Унда область суғориладиган ерлари мелиоратив ҳолатини яхшилаш, сув хўжалигини механизациялаш ҳамда алмашлаб экишни жорий қилиш асосида яқин 2-3 йилда пахта ҳосилдорлигини 22 центнерга етказиш вазифа қилиб қўйилди. Белгиланган вазифаларни асосий қисми сув таъминоти масаласига алоқадор бўлди. Область қишлоқ ва сув хўжалиги ташкилотлари эскидан экилиб келинаётган ҳамда янги суғорилиши режа қилинган ерларни сув билан таъминлаш, мелиоратив ҳолатини яхшилаш ишларига 15 от кучига эга бўлган жами:3200 дан ортиқ трактор, 69 та экскаватор ва кўплаб бошқа ер қозиш ва текислаш маиналарини жалб этади⁵⁵.

Истикболда Марказий Бухоро коллектори куриш, Жанубий-Бухоро ташламаси зах сувларини Қоракўл воҳасидан чиқариб бориш, Моҳонқўл ташламасида замонавий инженерлик типидagi иншоотлар куриш кўзда тутилди. 1954-1955 йиллар коллектр ва дренаж тармоқлари 8,5 млн³ млнга, Зарафшон дарёсидан сув олишга мўлжалланган иношатлари ҳажмини 300 тага етказиш ҳамда Қуйимозор сув омбори курилиш ишларини яқунлашга қарор қилинди⁵⁶. Зарафшон воҳасини сув таъминотига қаратилган кенг-кўламдаги тадбирлар ўз самарасини берган бўлса-да, соҳада амалга ошириши режа қилинган ишлар кўп эди.

Жумладан, Зарафшон дараёсидан сув олувчи каналларни бирлаштириш ва уларда шлюзлар куриш; Вобкент, Жўйзар ва Хайрабод сув иншоотларида қайта куриш ишларини олиб бориш; Бухорони жанубий заур зонасида Зарафшон дарёси чап қирғоғида, Бухорони шимолий заур зонаси Зарафшон дарёси ўнг қирғоғи, Қоракўл дельтаси, Бухоро райони ва Кармана районида мавжуд заурлар қайта курилиб, янги заурлар чиқариш; ишлаб чиқариш тажрибаси шаклидаги 3 та қудуқсимон заурлар куриш; Зарафшон дарёсида Торабод сув узелини куриш кабилардан иборат бўлди.

XX аср 50-йиллар бошида область ирригация ва мелиорация тизимларини ривожлантириш мақсадида белгиланган чора-тадбирлар кейинчалик сув таъминоти яхшиланишига оз бўлсада ҳисса қўшди. Аммо, муаммони тўлиқ бартараф этишга мувофиқ бўлинмади. Гидротехник иншоотлар қайта курилди, тозаланди, назоратга олинди. Лекин, Заафшон дарёси юқори оқимида сув сарфини кескин ошрилиши ҳисобига Бухоро областга келувчи сув ҳажми йилдан-йилга камайиб боради.

1954 йил 3 июнь ЎзССР Министрлар Совети “Самарқанд ва Бухоро областлари ўртасидаги сув тақсимоти тўғрисида”ги қарорини қабул қилди. Қарорда ҳар иккала область раҳбариятидан сув тақсимоти масаласига жиддий эътибор қаратиш талаб этилди:

-Бухоро областига келувчи сув ҳажми камайган тақдирда Каттакўрғон сув омборидан эҳтиёж қондирилсин;

-1954 йил августидан Бухоро области Тўдақўл ва Қуйимозор сув омборларини фойдалнишга топширилсин;

-Нарпай канали дамбасида 24 соат ишлашга эриши мақсадида зурур ишчи кучи ва мутахасисларни жалб этиш кабилар⁵⁷;

⁵⁵ Бухоро вилоят давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат, 906-йиғма жилд, 33-варақ.

⁵⁶ Бухоро вилоят давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат, 906-йиғма жилд, 33-варақ.

⁵⁷ Бухоро вилоят давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат, 876-йиғма жилд, 173-варақ

Аммо, ушбу режалари шошма-шошалик ҳамда вазиятдан келиб чиқиб фавқулотда қабул қилнган қарорлар эди. Зотан, Нарпай кана сув ўтказиш қобилияти ҳисобга олинмасдан катта ҳажмда сув берилгани боис авария кузатилди. Бу каби авариялар қайта такрорланмаслигини олдина олиш мақсадида юқоридаги қарорда дамбага алоҳида этибор қартилганди.

Қийинчиликларга қарамасдан 50-йиллар орхилларида ирригация соҳасида бир қадар ижобий натижаларга эришилди. 1959 йил область 53328 га суғориладиган ерлар янги суғориш тизимига ўтказилди. 1649 га ерла ирригация-мелиорация ишлари олиб борилди, шундан 1223 га қўриқ, шу йилда янги суғориш тизимлари режасига асосан 87512 дарах кўчатлари экилди⁵⁸. Янги суғориш тизимларига ўтилиши муносабати билан сув парланиши камайди, ерларни шўрланиш ва ботқоқга айланишига чек қўйилди шунингдек, суғориладиган ерлар оптималлаштирилди.

Оптималлаштириш натижасида область ҳудуди тартибсиз ер фонди 5 га дан 25 гагача бўлган йирик участкаларга бирлаштирилди. Суғориш картасини умумлаштирилиши шароитида мавжуд техникадан унумли фойдаланиш ва суғорма деҳқончиликни комплекс механизациялаш имконияти юзага келди.

Суғориш тизимларини ривожланиши экин майдонлари мелиоратив ҳолатини яхшиланишига олиб келди. Қуйи Зарафон воҳаси шўрланиши ва ботқоқланишини олдини олиш мақсадида йирик коллекторлар: Марказий Олот 16 км узунликда Олот районида, Шимолий Бухоро 28 км узунликда Гиждувон район, Нақиб 20 км узунликда Ромитан район, Катгазаур 16,5 км узунликда Қизилтепа район, Харгўш 23 км узунликда Галаосиё райони ва бошқалар қурилиб фойдаланишга топширилди⁵⁹.

50-йиллар охириларида келиб область ирригация ва мелиорация борасида ижобий ўзгаришлар кўзга ташлана бошлади. Бироқ, муттасил ўсиб бораётган сувга бўлган эҳтиёжни таъминлаш имконияти бўлмади. Ирригация тизимлари баҳорда юқори сув босимида дош бера олмаса, кузда талаб этилган сувни дарёдан олиш имкониятига эга бўла олмади. Бу ҳолатда сув хўжалиги органлари юқоридан сувти тежаш ва ундан унумли фойдаланиш кўрсатилган директив топшириқлар олиб туради.

Жумладан, ҳар бир колхоз ва совхозлар вегитация даврида ички сув ресурсларидан фойдаланиш чора-тадбирларини кўришга топшириқ берилади. Унда мавжуд коллектрлар ва ботқоқларда тўпланиб қолган сувларни насослар ёрдамида тортиб далаларни суғориш мақсадида фойдаланишга йўналтириш таъкидланади⁶⁰. Юқорида келтирилган мисоллар область сув муаммоси ҳалигача долзарб бўлиб қолаётганидан далолат беради. Сув маласаласини бартараф этилма экан, совет ҳукумати беллаган режаларни амалга оширишни амалда иложи йўқлиги барчага маълум бўлиб қолди.

Республика ҳукумати СССР раҳбарияти эътиборини Бухоро областидаги вазията қаратишга мувофақ бўлди. 1958 йилда Зарафшон аодийсини сув билан таъминланишини тубдан яхшилаш мақсадида Амударё сувини Бухоро областига ташлаш лойиҳаларини

⁵⁸ Ауму-Бухоро ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси жорий архиви, 1950-йиғма жилд, 75-варақ

⁵⁹ М.М.Тагиев. Из истории ирригационного строительства низовьев Зарафшанской долины. –Тошкент: Фан, 1978. –С. 52.

⁶⁰ Бухоро вилоят давлат архиви 1111-фонд, 1-рўйхат, 136-йиғма жилд, 151-варақ

амалда рўёбга чиқариш ишлари бошлаб юборилди⁶¹. Зеро, Аму-Қоракў, Аму-Бухоро (Биринчи ва иккинчи навбатлари) каналлари Амударё сувини Бухоро области экин майдонлари суғорилишига катта ҳисса қўша бошлади. Кўп йиллик ору – ҳаваслар рўёбга чиқарилди. Бухоро области сув таъминоти 1975 йилга бориб юз фоиз Амударёда суғориш системасига ўтказилди. Ўз ўрнида муаммолар ижобий ҳал этилиб, қишлоқ хўжалиги тармоқлари ривожига муносиб ҳисса қўша бошлаганди.

⁶¹ М.Тагиев. Амударё сувлари Бухоро далаларида. –Тошкент: Фан, 1988. –Б. 15.

BOSHLANG'ICH KARIYES DAVOSI

Iskandarova Adiba

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Urganch filiali Stomatologiya fakulteti 4-kurs talabasi

Quryazov Akbar Qurambayevich

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8365684>

Annotatsiya. Ushbu maqolada endi boshlangan kariyes kasalligini samarali oldini olish va davolash haqida to'xtalib o'tilgan. Davolash samaradorligi kariyes dog'i mavjud tishlarni dori chaplashga yaxshilab tayyorlash ishlari bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: tishlar, kariyes, kariyes davolash, boshlang'ich kariyes.

PRIMARY CARIES TREATMENT

Abstract. This article focuses on the effective prevention and treatment of caries that has just begun. The effectiveness of the treatment is related to the preparation of the teeth with caries stains.

Key words: teeth, caries, caries treatment, initial caries.

ЛЕЧЕНИЕ ПЕРВИЧНОГО КАРИЕСА

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется эффективной профилактике и лечению только начавшегося кариеса. Эффективность лечения связана с препарированием зубов с пятнами кариеса.

Ключевые слова: зубы, кариес, лечение кариеса, начальный кариес.

Sut tishlarida boshlang'ich kariyes (dog'li kariyes, yuza kariyes) ni tish to'qimalariga tig' tekizmasdan konservativ usulda davolash bugungi kunda keng tarqalgan. Erta yoshdagi (1-3 yosh) bolalarda boshlang'ich kariyes kumushlash o'tkazish yo'li bilan davolanadi.

Bunda tishlar yuzasidan yumshoq karashlar yaxshilab tozalanadi, antiseptiklar bilan yuvib quritiladi, davolanayotgan tishlar paxta bolishchalar yordamida so'lak va milklardan ajratiladi. 40 Kumushli eritma shilliq pardaga tushsa uni kuydirish xususiyatiga egaligini esda tutish lozim!

Shikatlangan soxada dentin yumshoq bo'lsa, kumushlash usuli qo'llanilmaydi (bunda kariyes jarohati bor yordamida shakllantiriladi). Kumushlash yo'li bilan davolashda 20-30% li kumush nitrat tuzining suvdagi eritmasi ishlatiladi. Bunda kumushni erkin qaytaruvchi moddalardan foydalaniladi (4% gidroksinon, askorbin kislota eritmasi).

Kumushlash 3 marta har 2-3 kunda bir marta o'tkaziladi va natijada kumushning qalin qora parda (plenka)si hosil bo'ladi. Ma'lumki tishlarda kechayotgan faol demineralizatsiya jarayoni natijasida kariyes dog'i yuzaga keladi. Bolalarda bu dog'lar asosan oq, bo'rsimon tusda bo'ladi.

Bunday hollarda yana bir sun'iy remineralizatsiya usulini qo'llash ham ijobiy natijalar beradi. Sun'iy remineralizatsiya usulini amalga oshirish uchun bir qancha remineralizatsiya xususiyatiga ega bo'lgan eritmalar tavsiya qilingan. Ular o'z tarkibida kaltsiy, fosfor, fluor va boshqa makro-va mikroelementlarni saqlaydi.

Shunday eritmalar qatoriga 10%li kaltsiy glyukonati, 2-3% li remodent eritmasi, 2%li natriy fluor eritmasi kiradi. Bu eritmalar applikasiya (chaplash) usulida qo'llaniladi. Davolash samaradorligi kariyes dog'i mavjud tishlarni dori chaplashga yaxshilab tayyorlash ishlari bilan bog'liqdir.

Bu usulni amalga oshirishdan oldin bemor bola tishlarini cho'tka, pasta yordamida yaxshilab yuvadi, shifokor qolgan karashlarni qirtishlab tozalaydi, 2%li vodorod peroksidi bilan emal sathini ishlov berib tozalaydi, antiseptiklar bilan chaydiradi, tishlar quritiladi, so'lakdan ajratiladi, quritilgan tishlar sathiga remineralizatsiyalovchi eritmaga obdon ho'llangan paxta bolishchalar yoki salfetkalarini yozadi. Bu eritma tish sathida 15-20 minut mobaynida ushlab turiladi va har 5 minutdan so'ng pipetka yordamida eritmadan tomizilib turiladi.

Aplikatsiyadan so'ng tish yuzasi quritilib, 2%li natriy fluor eritmasiga ho'llangan bolishcha yoki salfetka 2-3 daqiqaga qo'yiladi. Davolash muolajasi har kun yoki kunora 15-20 marta o'tkaziladi. O'rta va chuqur kariyesda kariyes kavagi albatta charxlanib shakllantirilgandan so'ng doimiy tishlar kariyesini davolagandek muolaja qilinadi. Kariyes kavaklarini charxlab shakllantirishda ma'lumki, Blek tasnifidan foydalaniladi. Blek tavsiyasiga ko'ra kariyes kavagini charxlab shakllantirishdan maqsad shikastlangan sohalarni to'liq olib tashlash va plomba materiali yaxshi yopishadigan retensiya nuqtalarini hosil qilishdan iboratdir.

Zamonaviy, yangi plomba ashyolarini paydo bo'lishi Blek tavsiyasiga bir muncha o'zgartirishlar kiritishga sabab bo'lmoqda. Bunda kariyes kavagini plombalashga tayyorlash jarayonida asosiy urg'u mexanik retensiya nuqtalarini hosil qilishga nisbatan kimyoviy adgeziya prinsipini ilgari suradi. Bu esa emal to'qimasini iqtisod qilish, ayash va iloji boricha saqlanib qolishini ta'minlaydi. Zamonaviy kompozitsion plomba ashyolari emal, dentin to'qimasi bilan kimyoviy birikish xususiyatiga egadir. Bu esa mustahkam mexanik bog'lanishni (emal bilan plomba ashyosi orasida) yuzaga keltiradi. Bundan kelib chiqadiki, kariyes kavagini charxlashda patologik o'zgargan to'qimalarni qoldirmay charxlab, sog'lom emal sohasini iloji boricha iqtisodlash va ayash asosiy prinsip hisoblanadi.

Tishlar kariyesi kasalligining rivojlanishi murakkab patologik jarayoni bo'lib, ko'pgina omillarga bog'liqdir. Bunday omillar ichida juda katta ahamiyatga ega bo'lganlaridan biri bo'lib og'izdagi aralashgan so'lak hisoblanadi. So'lakning miqdori va xususiyatlari ichki a'zolar va sistemalar to'g'risida muhim ma'lumotlar berish bilan bir qatorda, tishlarda sodir bo'ladigan kariyes jarayoni qay yo'sinda kechishi va uning jadalligiga ham o'z ta'sirini bevosita ko'rsatadi.

Bolalar yoshida kariyesni davolashda, ayniqsa uning o'tkir, ko'plab tishlarni shikastlantirgan hollarda bunday holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga jiddiy e'tibor berish lozim. Bunda bola organizmini himoya vositalarini susaytiruvchi, uni kuchsizlantiruvchi omillarni aniqlashga xarakter qilish zarur. Bunday kuchsizlangan bemorlarni iloji bo'lsa pediatriklar bilan birgalikda tekshirib ko'rish maqsadga muvofiqdir. Anamnez ma'lumotlariga tayanib, boshidan kechirgan kasalliklar, yashash sharoiti, ovqatlanish rejimi va boshqalarni inobatga olgan holda pediatr shifokor bilan birgalikda davolash rejasini tuzish darkor. Davolash choralari umumterapevtik va mahalliy stomatologik qismlardan iborat bo'ladi.

REFERENCES

1. Rizayev J.A. Stomatologiyada qo'llanuvchi dori vositalari. Toshkent. —
2. «Voriz nashriyot», 2012.
3. Safarov T.X., Raxmonov X.Sh., Safarov M.T. Tish to'qimalarining nokaries
4. kasalliklari, — Toshkent: 2011.
5. Magid Ye.A., Miccin N.A. Terapevtik stomatologiyada fantom kursi:
6. Atlas. - M.: Tibbiyot, 1987. - 300 bet.

SKIMMING AND SCANNING

Karimova Gozal Ikhtiyarovna

Associated teacher. Asian international university of teacher.

Narzullayeva Aziza

Student of international Asian University.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8377318>

***Abstract.** This scholarly work discusses the skillful use of SKIMMING and SCANNING to succeed in the reading portion of the IELTS exam. The topic of scientific work is interesting and attracts the attention of the scientific community.*

***Key words:** scanning, skimming, reading.*

ПРОСМОТР И СКАНИРОВАНИЕ

***Аннотация.** В этой научной работе обсуждается умелое использование беглого просмотра для успешной сдачи части экзамена IELTS по чтению. Тема научной работы интересна и привлекает внимание научного сообщества.*

***Ключевые слова:** сканирование, беглый просмотр, чтение.*

Ishning vazifasi; qisqa vaqt ichida butun matnni diqqat bilan o'qimasdan tekst mazmunini tushunish.

Ishning maqsadi; ushbu ilmiy ish maqsadi skimming va scanning o'rtasidagi farq va ularni chuqurroq tahlil qilish.

Tadqiqot usullari; tahlil qilish, tavfsiflash, solishtirish usullari.

Olingan natijalar va ularning yangiligi.

Reading is often treated as a technique. People read an article, book, etc, in order to gain some information or knowledge. Many times, one needs to read at a faster rate due to various reasons like lack of time, etc.

Skimming is a quick reading method, whereas **scanning** is a selective reading method. The main **difference** between **skimming and scanning** is that **skimming** tells you what information is contained in the section or in the document, while **scanning** helps you position a particular piece of information. The combination of **skimming and scanning** is even greater, as it allows you to read quicker without missing out Skimming and Scanning.

Skimming refers to the process of reading only main ideas within a passage to get an overall impression of the content of a reading.

selection.

How to Skim:

- * Read the title.
- * Read the introduction or the first paragraph.
- * Read the first sentence of every other paragraph.
- * Read any headings and sub-headings.
- * Notice any pictures, charts, or graphs.
- * Notice any italicized or boldface words or phrases.
- * Read the summary or last paragraph.

Scanning is a reading technique to be used when you want to find specific information quickly. In scanning you have a question in your mind and you read a passage only to find the answer, ignoring unrelated information.

How to Scan:

- * State the specific information you are looking for.
- * Try to anticipate how the answer will appear and what clues you might use to help you locate the answer. For example, if you were looking for a certain date, you would quickly read the paragraph looking only for numbers.
- * Use headings and any other aids that will help you identify which sections might contain the information you are looking for.

Reading, especially when done with a clear purpose of learning, requires a variety of strategies for a maximized effect on comprehension and information retention. To achieve your maximum potential, there are several strategies you absolutely need to master.

We are here to help you learn the difference between skimming and scanning and how to properly use these techniques to improve the results in terms of comprehension and information retention of each of your reading sessions.

What is scanning and skimming in reading

Scanning and skimming are reading techniques that involve rapidly passing through a text with quick eye movements and keen attention to keywords and other relevant information. While the two techniques are certainly different, their goals are quite similar and they are both part of the early stages of analytical reading.

Scanning is defined as the process of rapidly looking through a certain text with a clear purpose to identify particular keywords or passages you know you will need to extract important information from.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY RAYONLASHTIRISH: UNING XUSUSIYATLARI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Toirova Zamira Sudonovna

Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani

40 - sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Tarix fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8366038>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi O‘zbekistonda iqtisodiy rayonlashtirish siyosati, uning xususiyatlari va o‘ziga xosligi haqida ma’lumotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy rayonlashtirish, O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni, paxtachilik, irrigatsiya, agrosanoat kompleksi.

ECONOMIC PLANNING IN UZBEKISTAN: ITS FEATURES AND CHARACTERISTICS

Abstract. This thesis contained information about the policy of economic zoning in Uzbekistan, its features and specificity.

Keywords: Economic zoning, Central Asian economic region, cotton growing, irrigation, agro-industrial complex.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЕГО ОСОБЕННОСТИ И ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация. В данной диссертации представлена информация о политике экономического зонирования в Узбекистане, ее особенностях и уникальности.

Ключевые слова: Экономическое районирование, Центрально - Азиатский экономический регион, хлопководство, ирригация, агропромышленный комплекс.

O‘zbekiston sovet ittifoqi xalq xo‘jaligida sanoat jihatidan rivojlangan mintaqalarining paxtaga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashdek, yaramas konsepsiyaga qat’iy amal qilib keldi. O‘zbekiston sanoati yillar davomida avvalo paxtachilikni rivojlantirishning moddiy-texnika bazasi hisoblandi. Paxta yetishtirish sohasidagi ishlarni kompleks mexanizatsiyalash uchun kerakli mukammal mashinalarni yaratishda, irrigatsiya qurilishi va melioratsiya ishlari uchun zarur mashina va mexanizmlarni hamda paxta tozalash sanoat asbob-uskunalarini ishlab chiqardi.

O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining 16 - moddasida ham “O‘zbekiston SSR ekonomikasi – SSSR territoriyasidagi ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimot va ayriboshlashning barcha bo‘g‘inlarini o‘z ichiga olgan yaxlit xalq xo‘jalik kompleksining tarkibiy qismi deb”, belgilab qo‘yildi.

Biroq, O‘zbekiston SSR sanoatiga bildirilayotgan yuksak talablar bu yerda yangi texnologiyalarni, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini joriy qilish bilan hamohang emasdi. Bu esa muqarrar ravishda belgilangan rejaning bajarilmasligi kabi turli nomutanosibliklarga olib kelar, ayniqsa bu holat sanoatning yengil, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarida aniq ko‘zga tashlanar edi. Besh yillik rejalarining bajarilishi esa bir tomonlama xususiyatga ega, katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni bu borada yetakchilik qilardi.

Dissertatsiya ishimizning birinchi bobida ta’kidlanganidek, SSSR xalq xo‘jaligining muayyan territorial qismi iqtisodiy rayonlar o‘zining ixtisoslashtirilganligi bilan alohida ajralib turgan. Sotsialistik ishlab chiqarish qoidalariga amal qilsada, bu rayonlarda ishlab chiqarilgan

mahsulotlar butun mamlakat xalq xo'jaligidagi ehtiyojlarini qondirgan. O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni ham bundan mustasno emas edi.

"Ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet ittifoqi o'zini yashovchanligini ko'rsatdi va 1957-1964 - yillarda xalq xo'jaligi kengashlari tuzilib, iqtisodiy islohotlar o'tkazishga harakat qilindi. Lekin bu borada ma'muriy buyruqbozlik tizimi saqlanib qolindi. Faqat ba'zi boshqaruv funksiyalari mahalliy boshqaruvga berildi. Oqibatda mamlakatda ma'muriy va iqtisodiy rayonlashtirishda qarama – qarshiliklar kelib chiqib boshladi. 1966-yilda xalq xo'jaligi kengashlari tugatilgandan keyin ham "hududiy ishlab chiqarish kompleksi" degan qarashlar saqlanib, "dasturiy-maqсадli komplekslar" termini ham kiritildi".

1951-yilda O'zbekiston hukumati tomonidan O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi qoshida ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha kengash tuzildi. Kengash O'zbekiston SSR davlat reja qo'mitasi bilan birga xalq xo'jaligining o'ta muhim muammolarini o'rganishi, tashkilotlarining vazifalar bajarishi lozim edi.

O'zbekiston hukumati ham kengashga xo'jaligi bilan bog'liq rayonlarning kompleks muammolarini o'rganish yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borishni topshirdi. Bu topshiriqdan kelib chiqib belgilangan vazifalar O'zbekistonning umumittifoq fondiga qo'shayotgan hissasini oshirishga, urushdan keyingi iqtisodni rivojlantirishga ko'mak berishi lozim edi. O'sha vaqtlarda Mirzacho'lni, Farg'ona vodiysini, Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati rayonini, Buxoro-Navoiy, Amudaryoning quyi oqimidagi va boshqa rayonlarni o'zlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish kerak edi.

Tadqiqot ishida respublika Fanlar akademiyasining deyarli barcha ilmiy-tadqiqot institutlari, ko'plab idoralarga qarashli muassasalar, loyihalash - qidirish muassasalari, oliy o'quv yurtlarining kafedralari, Davlat reja qo'mitasi va boshqa tashkilotlaridan 35 nafar mutaxassislar ishtirok etdi. Tadqiqot ishi natijasida O'zbekiston tog'lari va tog' etaklarida, cho'llari va yarim cho'llarining iqtisodiy salohiyati va uni ishlatish yo'llari tahlil qilindi.

Tadqiqotlarga ko'ra tog'-kon sanoati korxonalarini mavjud foydali qazilmalar bazasida rivojlantirish, shu orqali yo'llar, elektr uzatish liniyalari, suv bilan ta'minlash tizimlari, qurilish bazalariga ega bo'lgan korxonalaridan yana kamida 15 tasini qurish mumkin degan xulosaga kelganlar. Shuningdek, o'sha vaqtlardagi hisob-kitoblarga ko'ra tog'-kon etaklarida agrosanoat kompleksini rivojlantirish orqali bu yerda kelgusida har-yili 400 ming tonna atrofida uzum, 350 ming tonna meva olish, tirik vaznda 200 ming tonna go'sht, cho'l zonasida (cho'l yaylovlarini kengaytirgan holda) qorako'l qo'ylar sonini 14-20 mln. boshga va go'sht etishirishni tirik vaznda 140-200 ming tonnaga yetkazish mumkinligi ta'kidlandi.

Bu loyihada bayon etilgan ma'lumotlar respublika tog'-kon etaklari va cho'l zonalarining ahvoli, ularni rivojlantirish imkoniyatlari va yo'nalishlari, muayyan tasavvur bersada, lekin bu takliflarning ekologiyaga ta'siri, sho'r bosgan yerlarga ishlov berish, aholi uchun yetarli sharoitlarni yaratib berish kabi masalalar chetda qolgan edi.

1960-yillarda respublika ittifoqdosh respublikalar orasida aholisining soni bo'yicha RSFSR, Ukraina, Qazog'istondan keyin to'rtinchi o'rinda turganligi, O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibidagi to'rt respublika orasida esa birinchi o'rinni egallashi kengash diqqat markazida bo'ldi. Bu bilan ishlab chiqarishda band bo'lmagan aholisiga ega bir necha, jumladan, Jizzax, Marg'ilon, Qarshi, Urganch, Xovos, To'rtko'l, Chimboy kabi Shaharlarni sanoatlashtirish vazifalari belgilanishi lozim edi. Ayni paytda O'zbekistonning viloyatlari rivojlanishi bo'yicha turlicha

bo'ldi. Toshkent, Samarqand viloyatlari, Farg'ona vodiysi viloyatlarida sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan edi. Kengash faoliyati keyingi-yillarda ham davom etib, O'zbekistonning mintaqaviy rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Ularda S.K.Ziyadullayev, K.N.Bedrinsev, K.I.Lapkin kabi olimlar muntazam ishtirok etib keldilar.

Bu munozarali mavzu bo'lib, 1980-yillarga kelib ham davom etdi. T.M.Axmedov, A.M.Sodiqov va boshqalarning ishlari mamlakatda rayonlashtirish ishlarini amalga oshirish, ya'ni respublika hududini mintaqalarga ajratishga qaratildi. Bunda ba'zi olimlar mamlakat hududini 6 yoki 7 taga bo'lishni taklif etganlar. Bir guruh olimlar O'zbekistonni Toshkent, Farg'ona, Quyi Amudaryo, Janubiy Mirzacho'l va Zarafshon iqtisodiy hududga bo'lish tarafdori bo'lib chiqqan bo'lsalar, ikkinchi guruh olimlar Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarini bir mintaqaga sifatida olib, rayonlar turini quyidagicha tasnifladilar - Toshkent, Farg'ona, Mirzacho'l, Samarqand-Navoiy, Buxoro-Qashqadaryo, Surxondaryo va Quyi Amudaryo. Tabiiyki, O'zbekistonning tabiiy sharoiti xilma - xil va asosan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulayligi, respublikada keng maydonni egallagan vodiylar ham, jazirama qum sahrolari ham, tog'lar, yer osti va boshqa tabiiy boyliklar mavjud bo'lib, boshqa ittifoqdosh respublikalar orasida o'z o'rniga egaligi bunday qarashlarga sabab bo'lganligi sir emas edi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон ССР Совет Социалистик республикасининг конституцияси (Асосий қонун). – Тошкент. Ўзбекистон, 1979. – 8-бет.
2. Поросенков Ю.В. Сушкова О.Ю. Советская экономическая география в 60-80 годах XX века //Вестник ВГУ. Серия: География, Геоэкология. 2015. -№1 <http://www.vestnik.vsu.ru/pdf/geograph/2015/01/2015-01-15.pdf>
3. Бедринцев К., Мошенко В. Совет по изучению производительных сил Узбекистана. – Ташкент. Фан, 1981. – С.3.
4. Бедринцев К., Мирзаев А. Ўзбекистонликларнинг келажак авлодлари қаерда яшайди // Ўзбекистон коммунисти. 1988 йил, 12 декабрь. – 11-бет.
5. Развитие и размещение производительных сил СССР. ...- С.47.
6. Хошимов П.З., Жумаев С.К. Минтақалар ижтимоий – иқтисодий ривожланиши ҳолатининг таҳлили // Иқтисод ва молия.-№10 2012. – 33-бет.

TARIX KELAJAK YOG'DUSI

Aliqulov Azamat Shavkat o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti 2 – kurs talabasi

azamataliqulov54@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8369575>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix xalq ma'naviyatining asosi ekanligi, yoshlar kelajagida tarix va tarixiy xotiraning o'rni xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarix, umumbashariy qadriyatlar, xalqlar, millatlar, milliy g'oya, madaniy meros.

HISTORY IS THE LIGHT OF THE FUTURE

Abstract. This article presents ideas about the fact that history is the basis of people's spirituality, the role of history and historical memory in the future of young people.

Key words: history, universal values, peoples, nations, national idea, cultural heritage.

ИСТОРИЯ – СВЕТ БУДУЩЕГО

Аннотация. В данной статье представлены представления о том, что история является основой духовности народа, о роли истории и исторической памяти в будущем молодежи.

Ключевые слова: история, общечеловеческие ценности, народы, нации, национальная идея, культурное наследие.

Tarix - butun insoniyatning uzoq o'tmishdan to hozirgi kunlarga bosib o'tgan hayotiy yo'lini, avloddan avlodga meros qoluvchi, doimo rivojlanib, boyib boruvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, davlat qurilishi sohalaridagi tajribalarini, xalqlarni yetaklagan tarixiy shaxslar faoliyatini tartibga solingan holda o'rganuvchi, tasvirolovchidir. Tarixni o'rganish, bilish — bu kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyotning mavjud bosqichdan yangi bosqichga o'tish jarayonini, insonlarning inqirozli, turg'unlik holatiga tushish sabablari va bu holatdan chiqish yo'lidagi tajribalarini, har bir zarrasi qimmatga tushgan o'tmish sabog'ini umumlashtirish, tushunib yetish, anglab olish demakdir. Tarix tarixiy jarayonning qonuniyatlari va tendensiyalarini tushunib yetishga, hozirgi zamoni to'g'ri anglab olishga, kelajakni asosli ravishda ko'ra bilishga ko'maklashuvchi ilmdir. Tarix ko'p qirrali, keng qamrovli bo'lib, uni alohida mamlakatlar va xalqlar tarixi, mintaqalar tarixi, jahon tarixi kabilarga bo'lib o'rganish ham mumkin.

Yurtimiz kelajagi, xalqimiz, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish, ta'lim tizimini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog'lik. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lishi uchun avvalo ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etyapti.

Tarix tushunchasining g'arbdagi muqobili bo'lgan "history" qadimgi yunon tiliga tegishli bo'lib, "izlanish" yoki haqiqatni tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Bir fan sifatida tarix insoniyat tarixini o'zining noyob metodologiyasi orqali o'rganadi. Tarixiy metodologiya, tadqiqot sohasini, muammoni yoki mavzuni aniqlash, ushbu mavzu yoki muammoga tegishli gipotezalarni ishlab

chiqish, olingan dalillar va manbalardan ma'lumot to'plash, ushbu ma'lumotlarni tahlil va tanqid qilish, mavzu bo'yicha boshqa izlanishlarni ko'rib chiqish va mavzuni tushunish, shuningdek mantiqiy asosda izohlangan tadqiqotni ochib berishdan iboratdir. Shunga asoslanib, tarixchining roli sifatida o'zining mustaqil ilmiy rivojlanishi jarayonida o'tmishni o'rganish, mavzuni aniq, real va to'liq tushunchalarini yoki tasvirlarini yaratish va barcha bu bosqichlar haqida fikrlash kabilar belgilanadi.

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o'tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantirishga xizmat qiladi. Vatanimiz tarixi "Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko'z qorachig'iday avaylab - asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. O'zimizning boy o'tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi". Davlat mustaqilligini o'z qo'lga olgan ozod, hur O'zbekistonda Vatan, istiqloq taqdiri bugungi baxtli avlodlar qo'lida. Mustaqillikni asrab-avaylash, mustahkamlash, mamlakatimizni keyingi avlodlarga yanada qudratli, obod, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan holda yetkazish zamonamizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi.

Bu mas'uliyatli, ayni paytda sharaflil vazifaning qay darajada ado etilishi bugungi avlodlarga, xususan, yoshlarga, ularning ma'naviy barkamolligiga bog'liq. "Biron bir jamiyat, - deb ta'kidlagandi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, - ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi". Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma'naviyat va ma'rifatdir. Ma'naviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omil hisoblanadi. Birinchi Prezident Islom Karimov, "...tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson" deb yozadi. Insonda tarixiy xotira o'z Vatani tarixini o'z xalqi, ajdodlari tarixini bilish orqali shakllanadi.

O'z o'tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo'ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O'tmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamonni yaxshi tushunadi, kelajakni to'g'ri tasavvur etadi. Vatan tarixi xalqimizning asrlar davomida ko'pgina xalq, elatlar bilan ahil, hamjihat bo'lib yashaganligidan, yurtimizda turli diniy e'tiqodlar erkinligi va inoqligi bo'lganligidan guvohlik beradi. "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanimiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat", deydi. Shavkat Mirziyoyev yig'ilishda. Buyuk ajdodlarimizni teran anglash, chuqur o'rganish asnosida milliy qadriyatlarimizni, qadimiy an'analarimizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yangidan yana bir bor kashf etamiz, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga ega bo'lamiz hamda kelajagi porloq bo'lgan yoshlarga ibrat va namuna sifatida ko'rsatamiz, buyuk zotlarga munosib bo'lishga astoydil undaymiz.

Asrlar osha, dovonlar osha kelayotgan bu ma'naviy boylarning umri boqiydir. Bag'rikeng xalqimizning qadriyatlari – tinchlik, ma'rifat, yuksak axloq-odob ifodachisi sifatida vaqtlar

o'tgan sayin, zamonlar kechgan sayin yulduzdek yarqirab, chiroy ochaveradi kelajagi buyuk bo'lgan yosh avlodni ma'naviy-ahxoqiy tarbiyalashda muhim omil sifatida xizmat qilaveradi. Bu haqiqatni chuqur anglagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "...har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tarixiy xotira, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni egallash halollik, odillik, rostgo'ylik, mehr - oqibat, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Vatan tarixi yoshlarda jamiyatda ertaroq mustaqil faoliyat yuritish, o'z qobiliyatini to'laroq ochish va hayotga tatbiq etish sifatlarini shakllantiradi, Vatan, xalq taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi yuksak ma'naviy burchni tarbiyalaydi, milliy g'oya bilan qurollantiradi. Shu bois, Vatan tarixini har tomonlama, chuqur o'rganish muhim ahamiyatga molik vazifadir. 'Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbayiga aylanmoqda".

REFERENCES

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «Sharq», 1998,
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997,
3. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O'zbekiston tarixi.Toshkent. "Iqtisod - Moliya".2006

UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI FANINI O`QITISHDAGI INNOVATSIYALAR VA ILG`OR XORIJIY TAJRIBALAR

Sultanov Esbosin Kosimbetovich

Ajiniyaz nomidagi NDPI Zoologiya, odam morfofizologiyasini
o`qitish metodikasi kafedrasining katta o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8369871>

Annotasiya. Umurtqalilar zoologiyasi fanini o`qitishda ilg`or tajribalar va innovatsion yondashuvlarning qo`llanilishi va ommaga joriy qilish metodlari haqida aytilib, misollar bilan analiz etilgan.

Kalit so`zlar: Modulli o`qitish, modulli kredit, vebinar, muammoli metod, evristik metod, pedagogik yondoshuv, pedagogik tajriba.

INNOVATIONS AND ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN TEACHING THE SCIENCE OF VERTEBRATE ZOOLOGY

Abstract. The use of best practices and innovative approaches in the teaching of vertebrate zoology and the methods of introduction to the public are discussed and analyzed with examples.

Key words: Modular teaching, modular credit, webinar, problem method, heuristic method, pedagogical approach, pedagogical experience.

ИННОВАЦИИ И ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ЗООЛОГИЯ ПОЗВОНОЧНЫХ

Аннотация. Обсуждаются и анализируются на примерах использование лучших практик и инновационных подходов в преподавании зоологии позвоночных, а также методы ознакомления общественности.

Ключевые слова: Модульное обучение, модульный кредит, вебинар, проблемный метод, эвристический метод, педагогический подход, педагогический опыт.

Raqobatbardosh kadrlar yetishtirish davrimizning dolzarb masalasiga aylangan. Jahon tajribasi bozor iqtisodiyotining samaradorligini va hayotiyligini tasdiqlaydi. Shunisi etiborliki, Kadrlar tayorlash milliy modelidagi ishlab chiqarish kategoriyasi tushunchasi- ishlab chiqarishni kadrlarga bo`lgan ehtiyojini, shunidek ularning tayorgarlik sifati saviyasiga nisbatan qo`yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayorlash tizimini moliyaviy va moddiy texnika jihatidan ta`minlash jarayonining qatnashchisi sifatida namoyon bo`ladi.

Kadrlarning yuqori malakali bo`lishi, ijodkorligining ortishi ilmiy- innovatsion faoliyat tufayligina amalga oshadi. Agar ular o`z g`oyalari, ilmiy yo`nalishlarini amalga oshirishlari uchun, qaysi sohada bo`lishidan qat`i nazar, bozorbop mahsulot chiqarib, yoki xizmat ko`rsatib o`z tijorat ishlarini yurgizsalar, bu jarayonda yosh mutaxassislarni, talabalarini jalb qilsalar, unumli va samarali natijalariga erishish mumkin. Bu esa o`z navbatida o`quv jarayoni, ilmiy va ishlab chiqarish muhitining integratsiyasi sifatida intellektual mehnat orqali o`z hayotiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini beradi. Shuning uchun mumkin qadar aqliy mehnatini moliyalashtirishga o`rganish, yuksalish tartibiga o`tish zamon talabiga aylanmokda.

Ta`limni tashkil etishdan asosiy maqsad: mehnat bozorida raqobatbardosh darajaga va ixtisoslikka ega bo`lgan, mas`uliyatli, o`z kasbining ustasi, chegaradosh kasblarni erkin uddalaydigan, o`z ixtisosligi bo`yicha jahon standartlari darajasida samarali ish bajara oladigan,

muntazam o`z ustida ishlaydigan malakali mutaxassis tayyorlashdan iboratdir. Tayyorlanayotgan kadrlarning malakali bo`lishi esa bevosita ularning dars mashg`ulotlari jarayonida bilim, ko`nikma va malakalarini nechog`li o`zlashtiriganlariga bog`liqdir.

Shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatib kelingan edi. Bunday usul talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so`ndirar edi. Pedagog-olimlar yillar davomida ta`lim tizimida “Nega o`qitamiz? Nimani o`qitamiz? Qanday o`qitamiz?” savollariga javob izlash bilan bir qatorda “Qanday qilib samarali va natijali o`qitish mumkin?”-degan savoliga javob qidirdilar. Bu esa, olim va amaliyotchilarni o`quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya`ni o`qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko`rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Dunyoning turli mamlakatlarida ko`plab tadqiqotchilar ta`limda innovatsiyalarni qo`llash bo`yicha har doim izlanishlar olib borishgan. Ular “innovatsiya”, “interfaol usullar”, innovatsion texnologiyalar to`g`risida yaxshi axborotlar yig`ishgan.

Ta`lim jarayoniga innovatsiyalarni qo`llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o`quv fanini aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmini va mazmunini aniqlash;
- zarur bo`lgan ta`lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta`minotini yaratish;
- ta`lim oluvchilarning xususiyatlarini o`rganish;
- o`qituvchini tayyorgarligi va dars mashg`ulotini aniqlash.

Xorij ta`limda innovatsiyalarni qo`llash bo`yicha quyidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarga oid ma`lumotlarga to`qtalishni joiz bildik.

Modulli o`qitish texnologiyalari. O`qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta`lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashganidir. Ana`naviy ta`limda o`quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya`ni bilim berishga yo`naltirilgan bo`lsa, modulli o`qitishda ta`lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo`naltirilgan bo`ladi.

Modulli o`qitish ta`limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi:

Modul – faoliyatlik asosida o`qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarni o`zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta`minlaydi;

- o`qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o`rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o`qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqil va o`qitish imkoniyatlarini to`la ro`yobga chiqarish.

Modulli o`qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog`liq:

- ta`lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o`qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;

- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o`qitishda o`quv dasturlarini to`la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o`qitish imkoniyati yaratiladi. Ya`ni o`qitishni individuallashtirish mumkin bo`ladi.

Modulli o`qitishga o`tishda quyidagi maqsadlar ko`zlanadi:

- o`qitishning uzluksizligini ta`minlash;
- o`qitishni individuallashtirish;
- o`quv materialini mustaqil o`zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o`qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o`zlashtirishga erishish.

Modulli o`qitish fanning asosiy masalalari bo`yicha umumlashtirilgan ma`lumotlar beruvchi muammoli va yo`riqli ma`ruzalar o`qilishini taqozo etadi. Ma`ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog`i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari ma`ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma`ruzalar mazmunini o`rganiladigan yangi material bilan to`ldirilishi kerak.

Modulli - kredit tizimi. XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik taraqqiyot o`zining yuksak cho`qqilariga erishdi. Ilmiy texnik taraqqiyotining (ITT) hozirgi darajasi shundayki fan texnika va texnologiya rivojining erishilgan sur`atlarini mamlakat qay darajada rivojlangan bo`lmasin alohida olingan mamlakatda uni ta`minlab bo`lmaydi. ITT keyingi rivoji faqat turli mamlakatlardagi olim va mutaxassislarning hamkorligi ilmiy-tadqiqot ishlarning integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Fan-texnika va texnologiyaning taraqqiyoti ta`lim taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas bog`liqligini e`tiborga oladigan bo`lsak ta`lim sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi.

Bu kredit texnologiyani yaratilishini va qo`llanishining dolzarbligini belgilaydi. Chunki ta`lim sohasidagi xalqaro integrallashuvi eng avvalo o`quv jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etishiga tayanadi.

Zamonaviy o`qitish texnologiyasi, oliy ta`lim muassasining jihozlanganligi, professor-o`qituvchilar tarkibi faqat darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo`lishi, o`qitishning yuqori sifatleri-ECTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O`quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, quyidagi o`ziga xos xususiyatlarga ega.

O`quv rejasi bo`yicha:

Barcha o`quv fanlari ikki guruhga bo`linadi - majburiy va talaba tanlovi asosidagi fanlar. Bu nisbatan taxminan 1:2 ga teng qabul qilinadi.

Har bir talaba shaxsiy o`quv rejasiga ega bo`ladi.

Asosiy hujjat transkript (transcript of records) u xususiyatning unifikatsiyalashgan hujjat bo`lib, yagona shaklda tuziladi, o`qitish natijalarini tan olish uchun majburiy hujjat hisoblanadi. Transkriptda, talabanning mazkur davlatda qabul qilingan baholash tizimida ham, xususiyatli tizimi bo`yicha ham olgan baholari, olingan xususiyatli kreditlari bo`yicha ma`lumotlar keltiriladi:

- Har bir semestrda o`rganiladigan fanlarning soni Z...5ta bo`lishi;
- Mustaqil ishga ajratilgan soatlar, auditoriya soatlaridan ko`p bo`lishi;

Kredit o`zida talabani o`quv fanini o`zlashtirish uchun zarur bo`lgan barcha mehnat sarflarini mujassamlashtirdi. O`quv fani uchun ajratiladigan kreditlar soni, aksariyat hollarda 3 ga teng bo`ladi

O`quv fani dasturining mazmuni (syllabus) quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- o`quv fanining to`liq nomlanishi va uning o`quv rejasidagi tartib raqami;
- o`quv fanini o`rganish maqsadi;
- o`quv fanining qisqacha mazmuni;
- taqvimiy reja, mashg`ulotlar jadvali bilan;
- o`qitish texnologiyasi;
- talabani mas`uliyati va unga qo`yilgan talablar;
- talabalar bilimni baholash tartibi va mezonlari;
- asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati.

O`qituvchining o`quv yuklamasini hisoblashda:

Umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya va mustaqil ish soatlari) bir o`quv yilida 750-800 soatni tashkil etishi - e`tiborga olinadi.

O`qitish jarayonining asosini:

- shaxsga yo`naltirilgan o`qitish texnologiyalari;
- talabani mustaqil ishida, o`qituvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi;
- talaba o`quv fanini va o`qituvchini tanlash huquqiga ega.

Masofali ta`lim. Masofali o`qitish nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo`nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta`lim olish usulidan biri hisoblangan masofali ta`lim mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi.

Ta`limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o`qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta`limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta`lim tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak.

Chet el ta`lim tizimlarida masofali o`qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o`rganishda ta`lim muassalarida masofali o`qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta`limni didaktik ta`minlash vositalarini tahlil qilishga e`tiborni qaratish zarur.

Masofali ta`lim - masofada turib o`quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta`lim muhiti yordamida ta`lim xizmatlari to`plamidan iborat. Masofali ta`lim axborot - ta`lim muhiti foydalanuvchilar ta`lim olish ehtiyojlarini qondirishga mo`ljallangan ma`lumotlar uzatish vositalari axborot resurslari o`zaro aloqalar protokollari apparat - dasturli va tashkiliy-metodik ta`minotlar sistemali - tashkiliy to`plamidan iborat.

Masofali ta`lim - o`qituvchilarga o`rganilayotgan material asosiy hajmini etkazib berishni o`qitish jarayonida o`qituvchilar va talablarning interaktiv o`zaro aloqalarini, talabalarga o`rganilayotgan materialni mustaqil o`zlashtirish bo`yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o`qish jarayonida ularning olgan bilimlarini va ko`nikmalarini baholashni ta`minlovchi axborot texnologiyalari to`plami.

Vebinar metodi. Bu usulda dars seminar yoki konferentsiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo`lgan talabalar bilan audio, video (va avvalgi postlarda sanab o`tilgan ko`plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi

mumkin bo'lsada butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin.

Muammoli metod. Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va echishdan iborat bo'lib uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Muammoli ta'lim kontseptsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat» «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib o'zida sub'ektning aniq yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi uni bartaraf etish yangi bilimlar usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa shubhasiz muammoli vaziyat echimini u qabul qilmaydi ya'ni muammoning echimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib etilishi ifodalanishi mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi biroq barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo echimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda echimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni demak muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni uning echimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni laydi.

Evristik o'qitish metodi. Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning echimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani echish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytganda, O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Umurtqalilar zoologiyasi, biologiya fanlarining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, organizm, undagi a'zolar, to'qimalar hujayralar va hujayra strukturasini elementlarining funktsiyalarini tashqi muhitga bog'lab, har tomonlama chuqir o'rganadigan fan.

Shuningdek, Umurtqalilar zoologiyasi fani turli boliqlarning oziqlanishi organizmning rivojlanish jarayonida organlar tizimini va butun organizmda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini o'rganadi.

Binobarin, pedagoglar ta'lim-tarbiya ishini Umurtqalilar zoologiyasi fanining ma'lumotlariga asoslangan holda olib borishlari muhim ahamiyatga ega. Maktab, litsey va kasb-hunar kolledjlarida mintaqaviy tabiiy boyliklar xisoblangan baliq turlarin usirish, aniqlash morfo-anatomik-fiziologik xususiyatlarini albatta hisobga olishi kerak.

Umurtqalilar zoologiyasi Zoologiya fanlari bo'lmish Ixtiologiya, gistologiya, tsitologiya, ornitologiya, evolyutsion ta'limot, biometriya va boshqa pedagogika fanlariga yaqindan chambarchas bog'liqdir.

REFERENCES

1. Yuldashov M.A. O razvitie xolodnovodnogo ribovodstvo I Uzbekistane dlya ratsional'nogo ispol'zovaniya produktivnosti vodoemov // Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN R Uz. - Nukus, 2012. - № 1 (226). -S. 64-68. (03.00.00. № 10).
2. Yuldashov M.A., Kamilov B.G. Karimov B.K Razvitie i rost radujnoy foreli pri intensivnom basseynovom virashivanie v usloviyax Uzbekistana // Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN R Uz. - Nukus, 2012. - № 2 (227). - S. 52-53. (03.00.00. № 10).
3. Yuldashov M.A.,Kamilov B.G Ekologicheskie osnovi vibora napravleniya biotexnologiy dlya uvelecheniya proizvodstva ribi v Uzbekistane // Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN R Uz. - Nukus, 2017. -№ 4 (249). - S. 60-62. (03.00.00. № 10).
4. Yuldashov M.A., Kamilov B.G., Kim S.I. Zavisimost` kachestva void ot skorosti eyo toka v protochnix basseynax pri sodержanii tovarnoy radujnoy foreli // Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN R Uz. - Nukus, 2017. -№ 4 (249). - S. 62-64. (03.00.00. № 10).
5. Yuldashov M.A. Baliqchilik istikboli // Uzbekiston kishlok xujaligi jurnali. - Toshkent, 2017. - №10. - B.21.(06.00.00. № 4).
6. Yuldashov M.A., Kamilov B.G. Rost i sozrevanie karpa *Cyprinus carpio* L. v Talimardjanskom vodoxranilishe Uzbekistana // Vestnik .Uz. - Toshkent, 2017. - № 4. - S. 234-236. (03.00.00. № 9).
7. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
8. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 196-203.
9. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
10. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.

“ТУХФАИ ХИСЛАТ” – МУҲИМ АДАБИЙ МАНБА

Расулова Шаҳноза Мустафакуловна

Алишер Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти

университети таянч докторанти

Тел. (90) 349 31 83

E-mail: shahnozarusulova8322@mail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8369904>

Аннотация. Ушбу мақолада Тошкент адабий муҳити намояндаси, баёзнавис шоир, ношир, котиб, таржимон Сайид Ҳайбатуллоҳхўжа Хислатнинг “Тухфаи Хислат” баёзи илк манба асосида ўрганилди. Баёз тузлишининг ўзига хос тамойиллари аниқланди, муҳим адабий манба экани далилланди.

Калим сўзлар: тошбосма, баёз, газал, анъана, шеърят, девон, маҳорат, жанр.

“ТУХФАИ ХИСЛАТ” – ВАЖНЫЙ ЛИТЕРАТУРНЫЙ ИСТОЧНИК

Аннотация. В данной статье на основе первоисточника изучен антологический сборник «Тухфаи Хислат» представителя Ташкентской литературной среды, поэта, издателя, переводчика Сайеда Ҳайбатуллоҳходжи Хислата. Определены конкретные принципы построения антологии, доказано, что она является важным литературным источником.

Ключевые слова: литография, баяз, газель, традиция, поэзия, диван, мастерство, жанр.

“TUKHFAI HISLAT” – AN IMPORTANT LITERARY SOURCE

Abstract. In this article, on the basis of the original source, the anthological collection “Tukhfai Hislat” by the representative of the Tashkent literary environment, poet, publisher, translator Sayid Haybatullahkhodzhi Hislat is studied. Specific principles for constructing an anthology are determined, it is proved that it is an important literary source.

Key words: lithograph, bayaz, ghazal, tradition, poem, devan, skill, genre.

КИРИШ

Ўзбек адабиётшунослиги тарихини ўрганишда баёзлар муҳим адабий манба ҳисобланади. Баёзлар шоирларнинг лирик жанрда битилган ва шашмақом куйига мослаб яратилган турли тиллардаги шеърлар мажмуасидир.

XIX асрнинг охирида юртимизда тошбосманинг вужудга келиши ўзбек адабиёти тараққиётида ҳам муҳим ҳодиса бўлди. Бу давр ижодкорлари адабиётининг мумтоз асарларини таржима қилиб халқимизга етказишда, ўзлари ҳамда замонавий шоирларнинг шеърларни нашр эттиришда ташаббус кўрсатдилар. Сайид Ҳайбатуллоҳхўжа Хислат (1880-1945) таржимон, котиб, ношир, баёзнавис шоирлардан эди. У «Ҳадяи Хислат» (1910), “Баёзи Янги” (1911), “Армуғони Хислат” (1912), “Савғоти Хислат” (1912-1914), “Тухфаи Хислат” (1914-1915) баёзларини чоп эттирди.

ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мўминжон Муҳаммадjon ўғли Тошқин ўз эсдаликларида шундай ёзади: “Шоир Хислат катта пулдор бўлмаса-да, кўп ташаббускор ва жасоратлик бир шоир эди. У шу жасоратлик хислати орқасида кўп асарлар вужудга келтирди. “Армуғони Хислат”, “Савғойи Хислат”, “Тухфаи Хислат”, “Ҳадяи Хислат” “Барзуйи шер”, “Фарҳоду Ширин”,

“Мушук ила сичқон”, “Лайли-Мажнун”, “Куён”, “Нон-ҳалво”, “Аҳмад полвон”, Низомий Ганжавийнинг “Лайли ва мажнун” таржимаси ва бошқалар [1;99].

Бу баёзларни тузиш Хислат учун осон кечмаган. Бу хусусда шоирнинг ўзи: “Тортибон ранжу машаққатларни мен чандон ажаб”, – деб ёзган бўлса, унинг замондоши ва сафдоши Шавкат (Сидқий Хондайлиқий):

“Хўжа Хислат они чоп этмоқға тун-кун саъй этиб,
Лаҳза ором олмайин жон бирла кўб қилди шитоб”, – деб таъкидлайди [2;33].

Шоир мактабни тамомлагач, “Кўкалдош” мадрасасида таҳсил ола бошлайди ва шу чоғларда Каримбек Шарифбек ўғли мавлоно Камий билан танишади. Тошқинда шундай маълумотлар бор: “Бу одам – шоир Камий Муқимий ва Фурқат баробаридаги шоир эди. Шоир Хислат мавлоно Камийнинг фазлу балоғатини билгандан кейин уни биринчи устод сифатида ушлаб олди... Унинг энг биринчи ҳам вафотига қадар тарбия қилган катта устоди мавлоно Камий бўлиб, Бедилни ҳам кўпроқ шу киши таълим берган. Баъзи чоқларда икковимиз Бедил устида ўтиришар ва кўпроқ маънони ул берар, ман бўлсам, Бедилга маъно беришда жуда нўноқ эдим” [1;97].

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Хислат ҳаёт кечирган йилларда ўзбек зиёлилари орасида Бедил ижодига қизиқиш ғоят баланд бўлган. “Тухфаи Хислат” баёзининг сўзбошисида келтирилган маълумот эътиборлидир. Бедилхонлик йиғинларида бевосита иштирок этган Ҳафизхон ўғли Азизхоннинг ҳикоясига кўра, ўша йилларда зиёлилар орасида бедилхонлик энг олий суҳбатлардан ҳисобланарди.

Агар бошқа бир шахар ёки ўзга юртлардан бирор машҳур бедилхон келганлигини эшитиб қолинса, билимдонлар ўша одам қатнашган суҳбатда бўлишга интилар эдилар. Эсимда, 20-йилларда Қозондан Мусо Жоруллоҳ исмли олим келиб, бедилхонлик мажлисларида ғолиб чиқа бошлади. Чорсуда Мухторхон исмли машҳур бедилхон яшар эди. Уни Мусо Жоруллоҳ қатнашган бир суҳбатга таклиф қилган эканлар. Суҳбатда Бедилнинг бир байтидан Мухторхон ўн икки маъно топибди. Шунда қозонлик меҳмон унга тан бериб, бу айтилган маъноларнинг ярми унга янги эканлигини, аммо булардан ташқари яна етти маъно борлигини баён қилган [3;4].

Академик Иброҳим Мўминов “Мирзо Бедил” номли илмий асрида Хислатни “Бедилхонлар” гуруҳининг аъзоси сифатида қайд этган [4;121].

Бу ҳақда Муҳаммадjon Норхўжаев шундай хотирлайди: “Биз Хислат билан жуда қадрдон бўлиб кетдик. У араб ва форс тилларини пишиқ билар эди. Баъзан иккимиз арабча ёки форсча шеърлар устида кескин мунозарага киришардик. Бундай мунозаралар Бедил ашъори борасида тез-тез бўлиб турарди.

Баъзан иккимиз ҳам ҳал қила олмаган шеърый муаммонинг маъносини тўғри талқин қилиш мақсадида Тошкентнинг машҳур ҳуқуқшунос фозил кишиси Ибройим Махдум хазратларига мурожаат ҳам қилардик” [5;3].

Хислатнинг жияни, Омонилла Файзуллаев шоирнинг бедилхонлиги ҳақида қуйидаги маълумотларни беради: “1945 йилнинг апрел ойи экан. Ғафур Ғулом ва Иброҳим Мўминов “Москва” меҳмонхонасида бир неча кун ёнма-ён хоналарда истикомат қилишган экан. Охирги куни Ғафур Ғулом Иброҳим Мўминов хонасига кирса, Иброҳим ака яна ўша Бедил

қўлёмалари устида ишлаб ўтирган экан. Ғафур ака сўз бошлабдилар: “Кечаю кундуз Бедилнинг устида ўтирибсиз, Хислат каби Мажнун бўлиб бўлиб, шому сахарлар оҳ уриб”. Иброҳим ака жавоб берибдилар: “Не қилай, найларам боғу чаман сайрини жанон бўлмаса”. Бу мушоирадан кейин икковлари Тошкентдаги бедилхонлик мактабининг раҳбари Хислат эшон ҳақида ўз мулоҳазаларини айтишибди.

Тошкентга келишганида Ғафур ака Иброҳим ака билан Хислат эшонни таништиришга ваъда берибди. Иброҳим ака бир суҳбатда менга айтдилар: “Ғафур ака мени Хислат эшоннинг “Кўкча”даги ҳовлисига олиб борди ва учаламиз маълум маънода бедилхонлик қилдик [6;4].

МУҲОКАМА

“Тухфаи Хислат” ранг-баранглиги ва муайян мавзуга бағишланганлиги билан шоирнинг бошқа баёзларидан ажралиб туради.

“**ТУҲФАИ ХИСЛАТ**” баёзи Шарқшунослик институти қўлёмалар фондида инв.№665,3980, 9603, 20386 рақамлари остида сақланади. Баёз 1914 йил Тошкентда Ғулом Ҳасан Орифжонов матбаасида чоп этилган.

Ҳажми: 128 саҳифа. Ўлчови: 13x8 см.

Ношири – Сайид Ҳайбатуллохўжа Хислат.

Баёзнинг илк саҳифасида қуйидаги мисралар ёзилган:

Будур гўё ошиқларни жони,

Саро по нозанинларни баёни.

Муни сизларга қилдим тухфа дўстлар,

Ёзиб ҳар шоири машҳурдин ашъор.

Хислат бу баёзига Пиримқори Андижоний, Камий Тошкандий, Асирий Хўжандий, Васлий Самарқандий, Сабрий Карманагий, Хоиб Тошкандий, Муҳаййир Хўқандийларнинг ғазал ва мухаммасларини тўплаб нашр эттирган. Урфон Отажон “Тухфаи Хислат” сўзбошисида шундай ёзади: Баёзда шоирларнинг дуч келган асарлари жамланмай, балки чуқур мулоҳаза билан тартиб берилиб, турли дунёқарашдаги, турли бадий тайёргарликка эга бўлган ўқувчиларнинг дид ва талаблари ҳисобга олинган. Масалан, унда Бедилнинг:

Бедасту поён аз асар навмид нест,

Интизори дом охир мекашад нахчирро, –

(Кўл-оёқсизлар ҳам бир нарсадан ноумид эмаслар,

Домнинг интизорлиги охири овни илинтиради) машҳур байти асосида ёзилган тўртта фалсафий руҳдаги мураккаб ғазал Камий, Васлий, Асирий ва Ғурбатийлар томонидан Хислатнинг илтимосига кўра шу баёз учун махсус ёзилганга ўхшайди. Чунки уларнинг иккитасининг ҳошиясида “Хислат эшонга хитоб” деб ёзиб қўйилган. Бу ғазаллар шоирларнинг ўзаро мушоаралари сифатида бедилхонликнинг бир тури бўлиб, уларнинг юксак иқтидорини намоён этади [3;4].

“Тухфаи Хислат” баёзида Бедилнинг машҳур байтини шарҳ сифатида ёзилган ғазаллар тартиб билан жойлаштирилган. Бедилнинг фалсафий байтидан ҳавола келтирилганлар:

Камий Тошкандий:

“Кўшиши бедасту полар йўқ асардан ноумид,

Интизори дом охир тортғуси нахчирнинг” (11-бет)

Васлий Самарқандий:

“Кўшиши бедасту полар йўқ асардан ноумид”,

Ким тузоғ термулмоғиндин тортадур нахчирнинг” (12-бет),

Асирий Хўжандий:

“Демагил бедасту полар саъйи маъюс мурод,

Жалб этар дом интизори оқибат нахчирнинг.

Бу алмаони ҳазрати Бедилни ушбу байтининг,

Форсийин билмағон кўрсун шу тафсирнинг” (13-бет),

Гурбатий Туркистоний:

“Кўшиши бедасту полар ҳам асардан йўқ йироқ

Интизори дом жазоби эрур нахчирнинг” (14-бет).

Баёздаги шеърларнинг Бедил ғояларига ҳамоҳанг ёзилиши ва тартибланиши ўзбек зиёлиларининг XX аср бошларида бедилхонликни ўзига хос маданият даражасига кўтарганлигидан далолат беради.

“Тухфаи Хислат” баёздан шоирнинг *“Худое, қилмадим сенга дилу жон бирла тоатни...”*, *“Эй нигорим, жилва ул кун айладинг...”*, *“Ишқинг дилимга тушгач, нигорим...”* мисралари билан бошланувчи ғазаллари, Муқимийнинг ғазалига назира тарзида ёзган *“Қадинг сарви хиёбондин қолишмас...”* мухаммаси ҳамда *“Олди раҳм этмай ажал бир ёри жоним бор эди”* марсияси ўрин олган.

Халқ орасида шеърлари билан танилаётган шоир аср бошида Сарвихон исмли қизга уйланади. Малоҳат, Нисбатхон, Садоқат исмли фарзанд кўрадилар. 1900 йилда туғилган Малоҳат исмли қизи 4 ёшида, 1905 йил туғилган Нисбатхон исмли ўғли 4 ёшдан 5 ёшга қадам қўйганида қизамиқ касалидан вафот этадилар. 1914 йили турмуш ўртоғи Сарвихон ҳам вафот этган. Шоир буларнинг хотирасига атаб ёзган марсияси “Тухфаи Хислат” баёзида чоп этилган:

“Олди раҳм этмай ажал, бир ёри жоним бор эди,

Хур атвору малаксиймо, пари рухсор эди,

Боҳаё, нозук табиат, бир ажаб дилдор эди,

Камсухан, хушхулқу дур андешу беозор эди,

Йиғларам аччиғ анингчунким шаккаргуфтор эди...” [4;29].

ХУЛОСА

“Тухфаи Хислат” баёзи адабиётимиз тарихида ижодлари кам ўрганилган шоирлар ҳақида маълумот берувчи муҳим адабий манбадир. Хислат ва унинг замондошларининг бедилхонлик мавзусини кенг кўламда ўрганиш галдаги вазифалардан биридир.

REFERENCES

1. Мўминжон Муҳаммаджон ўғли Тошқин. Тошкент шоирларининг таржимаи ҳоллари (Хислат ҳақидаги эсдаликлар). 5-китоб. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи. – Б.97-99.
2. Хислат. Тараннум. (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари Асадуллаев М., Зуфаров Т.) – Т.: Merius, 2009. – Б. 33.

3. Тухфаи Хислат. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Урфон Отажон. – Т.:Мерос, 1992. Б. – 4-29.
4. Мўминов И. Мирзо Бедил. – Т.: Ўзбекистон, 1974. –Б. 121.
5. Норхўжаев М. Шоир ва фозил одам эди // Тошкент оқшоми. 1967, 15 март. №62 (217). –Б. 3.
6. Файзуллаев О. ...Шому саҳарлар оҳ уриб // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2004 йил, 23 январь, №4 (3731) – Б. 4.

XALQARO VA MILLIY HAMJAMIYATDA XOTIN-QIZLARNI
QO‘LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY VA HUQUQIY
TARTIBGA SOLINISHI

Mirjavharova Feruzaxon Usmonjonovna

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi, 3-darajali yurist.

Mirzavharovaferuzaxon@gmail.com

A'zamova Sarvinozxon Akramjon qizi

Davlat huquqiy faoliyati, 20/22-guruh o‘quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371578>

Annotatsiya. Maqolada milliy qonunchiligimizda ayollar huquqlarini himoya qilish masalalarining belgilanganligi, gender tenglik tamoyillariga jamiyatimizning barcha bo‘g‘inlarida ustuvorlik berish, tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi davlat va nodavlat tizimlari faoliyatini tashkil qilish, xotin-qizlarning dolzarb muammolarini hal etish, jamiyatda ayollarning ijtimoiy mavqeyiga e‘tibor qaratish, mazkur maqsadda mutasaddi tizimlar mehnatini muvofiqlashtirish, xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishda innovatsion g‘oyalar va yangi yo‘nalishlarni joriy etish kabi masalalar belgilanganligi ularni tahliliy mushohada qilish orqali ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: ayollar huquqlari, gender tenglik, ijtimoiy tenglik, huquqiy tenglik, zo‘ravonlik, tazyiq, xalqaro normalar, imtiyoz, Ayollar daftari, ayollar tashabbusi, ijtimoiy yordam.

**SOCIAL AND LEGAL REGULATION OF THE SUPPORT OF WOMEN AND
GIRLS IN THE INTERNATIONAL AND NATIONAL COMMUNITY**

Abstract. In the article, the issues of protecting women's rights are defined in our national legislation, giving priority to the principles of gender equality at all levels of our society, organizing the activities of state and non-state systems against harassment and violence, solving the current problems of women, and the social status of women in society. It has been tried to reveal issues such as focusing, coordinating the work of official systems for this purpose, introducing innovative ideas and new directions in protecting the interests of women through their analytical observation.

Keywords: women's rights, gender equality, social equality, legal equality, violence, oppression, international norms, privilege, Women's Notebook, women's initiative, social assistance.

**СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ПОДДЕРЖКИ ЖЕНЩИН И
ДЕВОЧЕК В МЕЖДУНАРОДНОМ И НАЦИОНАЛЬНОМ СООБЩЕСТВЕ**

Аннотация. В статье определяются вопросы защиты прав женщин в нашем национальном законодательстве, отдавая приоритет принципам гендерного равенства на всех уровнях нашего общества, организации деятельности государственных и негосударственных систем против притеснений и насилия, решению текущих проблем. проблемы женщин, социальный статус женщин в обществе. Предпринята попытка выявить такие вопросы, как направленность, координация работы официальных систем с этой целью, внедрение новаторских идей и новых направлений в защите интересов женщин путем их аналитического наблюдения.

Ключевые слова: права женщин, гендерное равенство, социальное равенство, юридическое равенство, насилие, угнетение, международные нормы, привилегии, Женская тетрадь, женская инициатива, социальная помощь.

Mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, joylarda xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o'rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ushbu sohani tartibga solish va huquqiy bazasini yanada takomillashtirish masalasiga doimiy e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Ma'lumki, BMTning 1993-yilda qabul qilingan "Ayollarga nisbatan zo'rvonlik to'g'risida"gi Deklaratsiyasida ayollarga nisbatan zo'rvonlik tushunchasi quyidagicha belgilanadi: "Jamoat yoki shaxsiy hayotda har qanday zo'rvonlik harakatini qamrab olgan ayollarga jismoniy, jinsiy yoki psixologik zarar yetkazish yoki azoblash, shu jumladan, tahdidlar yoki tahdidlarga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, majburlash yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum qilishdir". Ayollarga qarshi zo'rvonlik o'ziga xos xususiyatlarga ega va shuning uchun alohida javobgarlik talab qiladi. 2019-yildan Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining va "BMT-Ayollar" hamda BMTning ikki tomonlama agentliklari ko'magi bilan ayollarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha "RESPECT WOMEN" nomli ko'rsatmalarni nashr etishni boshladi. Unda xotin-qizlarni zo'rvonlikdan himoya qilishning asosiy yo'nalishlari, yetti strategiya va mexanizmlar bayon qilinadi. RESPECTning har bir harfi yetti strategiyadan birini ifodalaydi: munosabatlar ko'nikmalarini mustahkamlash, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, kafolatlangan xizmatlar, qashshoqlikni kamaytirish, qulay sharoitlar yaratish (maktablar, ish joylari, jamoat joylari), bola va o'smirlarga qarshi zo'rvonlikning oldini olish. Xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish, erkaklar bilan bir qatorda ular uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning ta'lim olishi va kasbiy tayyorgarligiga e'tibor qaratish, ayniqsa, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, xotin-qizlarga eskicha an'anaviy munosabat hamda shakllangan stereotiplarni yo'qotish, jamiyatda qonun, adolat tamoyili ustuvorligini ta'minlash tazyiq, zo'rvonliklarning oldini olish, shuningdek, uni vujudga keltiruvchi sabablarni kamaytirish chora-tadbirlari (usullari) deb aytish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida ham ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha bir qancha normalar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida", "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarorlari va bir qancha normativ huquqiy asoslar mavjud.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 07-martdagi PF-87-sonli "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand

xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur ishlab chiqilgan va 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan. Shunga asosan, 2022-yil 1-sentyabrdan buyon byudjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo‘lgan ayollarga har oy uchun minimal iste‘mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan homiladorlik va tug‘ish nafaqasi to‘lab beriladigan bo‘ldi. Xotin-qizlarga ta‘lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab oliy ta‘lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan, sirtqi va kechki ta‘lim shaklida o‘qiyotgan xotin-qizlarning ta‘lim kontraktlarini to‘lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta‘lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga resurs mablag‘lari yo‘naltirilib kelinmoqda. Shuningdek, birinchi marta davlat oliy ta‘lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qaytarish shartisiz qoplab berilishi nazarda tutildi. 2021-yildan buyon huquqiy asoslarga ko‘ra “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash maqsadida, ularga ipoteka kreditlari bo‘yicha boshlang‘ich badalni to‘lab berish va ijtimoiy uy-joylar sotib olish maqsadida amaliy yordam berish maqsadli amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda.

O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo‘lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o‘z bilimi, iste‘dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan xotin-qizlarga beriladigan “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotda ayollar huquqlarining turli jabhalarda buzilishi ham keng kuzatiladi. Jumladan, oilaviy zo‘ravonlik xalqaro hamjamiyat tomonidan ayollar, erkaklar, qariyalar va bolalarga nisbatan eng keng tarqalgan inson huquqlari va erkinliklarining qo‘pol ravishda buzilishlaridan biri sifatida qaraladi. Amalda dunyoning barcha mamlakatlarida turli xil jamoat tashkilotlari va davlat organlari ushbu muammo bilan shug‘ullanadi. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyatda teng ishtirok etish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik tarixiy jihatdan erkaklar va ayollar o‘rtasida teng bo‘lmagan kuchlar muvozanatining namoyon bo‘lishidir, buning natijasida

ayollar ustidan hukmronlik, kamsitishlar yuzaga keladi. Zo‘ravonlik ayollarning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi; ayollarga nisbatan zo‘ravonlik ayollarning erkaklarga nisbatan bo‘ysunuvchi pozitsiyani egallashga majbur bo‘lishiga olib keladigan mexanizmlardan biridir. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik qayerda bo‘lishidan qat’i nazar ijtimoiy tuzilmalar va madaniy an’analar, jamiyat, shu jumladan, patriarxal jamiyatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan madaniy an’analar, me‘yorlar va qadriyatlar bilan chuqur ildiz otgan va ko‘pincha inkor etish va sukut saqlash madaniyati bilan davom etib kelmoqda.

Milliy qonunchilikda ayollar shaxsiy huquqlarini muhofaza qilish maqsadida ham bir qancha huquqiy hujjatlar yaratilgan. Jumladan “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 07.03.2022 yildagi PF-87-son farmonga asosan, ayollar huquqlarini muhofaza qilish maqsadida quyidagilar belgilab qo‘yildi:

- tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi order sud tomonidan bir yil muddatgacha berilishini belgilash;

- chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi hududida aliment majburiyatlarini bajarmaganlik uchun sudlangan yoki ma‘muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, unga nisbatan O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborish va O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqini cheklash bo‘yicha majburlov choralari qo‘llamaslik;

- ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlaganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

- yaqin qarindoshi bo‘lgan xotin-qizga qasddan tan jarohati yetkazganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

- shaxs hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi, sha‘ni va nomusini kamsituvchi ma‘lumotlarni oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash;

- ikki oydan ortiq muddat mobaynida moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlagan shaxsga nisbatan haq to‘lanadigan jamoat ishlariga yoki boshqa ishga majburiy jalb qilish tarzidagi ma‘muriy huquqbuzarlikka oid jazo turini belgilash.

Ayollar huquqlarining buzilishi hamma jabhalarda, hamma davlatlarda va hamma sohalarda uchrab turadi. Ularni kamaytirish iloji boricha ayollarning ham ijtimoiy, ham siyosiy mavqeini mustahkamlash va uning huquqiy asoslarini yaratish muhim hisoblanadi va har bir demokratik davlatda e‘tibor berishi lozim bo‘lgan jihat hisoblanadi.

REFERENCES

1. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi“ 1948-yil
2. “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik to‘g‘risida”gi Deklaratsiyasi 1993-yil
3. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi” 2023-yil
4. “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 07.03.2022 PF-87
5. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” 15.12.2022 O‘RQ - 809

MAHKUMLAR HUQUQLARINI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO VA MILLIY-HUQUQIY ASOSLARI

Fayziyeva Dilnoza Abduraximovna

Buxoro viloyati Yuridik texnikumi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371689>

Annotatsiya. Maqolada inson ozodlikda yoki jazoni o'tashidan qat'i nazar, inson huquqlarini ta'minlash masalasi o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. "Mahkumlar va mahkumlar ham qonun bilan belgilangan muayyan huquqlarga egaligi e'tirof etiladi. Xususan, xalqaro normalarda va O'zbekiston Konstitutsiyasining moddalaridan birida ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar insonparvar muomala qilish, insonga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Ushbu masala bo'yicha xalqaro va milliy qonunchilik asoslari yaratilgan.

Kalit so'zlar: mahkumlar huquqlari, inson huquqi, jazoni ijro etish, mahkumlar majburiyati, mahkumlarni kamsitish, mahkumlarni jazolash, odil jazo tizimi, huquqbuzarlik, sudlanganlik.

INTERNATIONAL AND NATIONAL LEGAL BASIS OF REGULATING THE RIGHTS OF PRISONERS

Abstract. In the article, regardless of whether a person is free or serving a sentence, the issue of ensuring human rights does not lose its relevance. "Prisoners and convicts are also recognized as having certain rights established by law. In particular, international norms and one of the articles of the Constitution of Uzbekistan stipulate that persons deprived of liberty have the right to be treated humanely and to respect their dignity and dignity. International and national legal frameworks have been created on this issue.

Keywords: rights of convicts, human rights, execution of sentence, commitment of convicts, discrimination of convicts, punishment of convicts, justice system, crime, conviction.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРАВ ЗАКЛЮЧЕННЫХ

Аннотация. В статье независимо от того, находится ли человек на свободе или отбывает наказание, вопрос обеспечения прав человека не теряет своей актуальности. «За заключенными и осужденными также признаются определенные права, установленные законом. В частности, международные нормы и одна из статей Конституции Узбекистана предусматривают, что лица, лишённые свободы, имеют право на гуманное обращение и уважение их достоинства и достоинства. По этому вопросу созданы международные и национальные правовые рамки.

Ключевые слова: права осужденных, права человека, исполнение наказания, привлечение к ответственности осужденных, дискриминация осужденных, наказание осужденных, система правосудия, преступление, осуждение.

Mahkumlar bilan muomala qilish standartlari bo'yicha xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha xalqaro hujjatlar jinoiy hukmlarning ijrosini insonparvarlashtirish va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga, shuningdek, sharoitlarga iloji boricha yaqinroq sharoitlar yaratish orqali tuzatish faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydigan shunday jazo qonunchiligini yaratishga qaratilgan, ozodlikdan mahrum etish

joylarida jazoni o'tash uchun sharoit yaratish masalasini bevosita tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiyy kodeksiga muvofiq, mahkumlar qonunda belgilangan istisnolar va cheklashlarsiz, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun ko'zda tutilgan huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarga egadirlar. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining yangi tahririda hibsga olish va qamoqqa olishga faqat sud qarori bilan yo'l qo'yilishi hamda shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emasligi haqida alohida band ham kiritilgani alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda Miranda qoidasi o'z aksini topgan, ya'ni shaxs hibsga olinganda unga uning huquqlari va qamoqqa olinishi sabablarini tushuntirish zarur.

Ushbu normalarning Konstitutsiyada bevosita o'z ifodasini topgani O'zbekistonning mamlakatda inson qadr-qimmatini oliyligi, qiynoqlarga qarshi kurash borasidagi qat'iy pozitsiyasidan dalolat beradi. Bu jarayonlarda davlat tizimni isloh qilish bilan birga ular ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga intiladi. Darhaqiqat, qiynoqlarga qarshi kurash masalasi butun dunyoda eng nozik masalalardan biridir. Shu bois xalqaro hamjamiyat ushbu hodisaga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirish, xalqaro miqyosda amal qilinishi kerak bo'lgan standartlarni ishlab chiqish yo'lidan bormoqda.

Sudlangan chet el fuqarolari, shuningdek, o'z davlatlarining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida diplomatik va konsullik muassasalariga ega bo'lmagan davlatlar fuqarolari o'zlarining manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmlariga olgan davlatning diplomatik vakolatxonalarini bilan aloqa qilish huquqiga egadirlar.

Ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun mahkum bo'lganlar saylovda ishtirok yetish huquqiga egadirlar. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vakilga murojaat etish huquqiga ega. Yozma ravishdagi xatlar va telegrammalar ularning soni cheklanmagan holda, muassasa ma'muriyati tomonidan ko'rib chiqilmaydi va yigirma to'rt soatdan kechiktirmay tegishli vakolatli shaxsga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Markaz jazo va qamoq joylarida jazo ijro etilishini nazorat qilish huquqiga ega.

Mahkumlar quyidagi huquqlarga ega:

- jazoni o'tash tartibi va shartlari, ularning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida ma'lumot olish;
- o'z ona tilida yoki boshqa tilda, muassasa ma'muriyatiga yoki jazoni ijro etuvchi organga, boshqa davlat organlariga va jamoat birlashmalariga taklif, ariza va shikoyat bilan murojaat qilish;
- O'zining takliflari, arizalari va shikoyatlariga javoblarni berilgan tilda olish;
- tushuntirishlar va yozishmalar berish, zarur bo'lsa, tarjimon xizmatidan foydalanish;
- o'quv, badiiy va boshqa axborot materiallaridan foydalanish;
- sog'liqni saqlash, shu jumladan tibbiy xulosaga bog'liq holda ambulatoriya va statsionar sharoitda tibbiy yordam olish;
- jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish;
- penitentsiar muassasaning psixologik xizmati xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan psixologik yordam olish;

- ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning psixologik yordam ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etishi faqat ularning roziligi bilan amalga oshiriladi;

- mehnat qonunchiligiga muvofiq, xavfsiz mehnat sharoitlari, dam olish, ta'til, shuningdek ish haqi to'g'risida;

- ijtimoiy ta'minot olish;

- advokatlardan malakali yuridik yordam olish va boshqalar.

Mahkumlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator xalqaro konvensiyalar va qoidalar mavjud, ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

Majburiy (imperativ) hujjatlar: "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966); "Irtiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya" (1965); "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya" (1979); "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga qarshi konvensiya" (1984); "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" (1989); "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" (2006).

Tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan aktlar:

"Barcha shaxslarni qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolardan himoya qilish to'g'risida"gi deklaratsiya (1975); "Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha minimal standart qoidalar" (Pekin qoidalari) (1985); "Qamoq jazosi bilan bog'liq bo'lmagan chora-tadbirlar bo'yicha Minimal standart qoidalar" (Tokio qoidalari) (1990); "Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari" (Nelson Mandela qoidalari) (2015); "BMTning mahkum ayollarga munosabati va huquqbuzar ayollarga nisbatan qamoqqa olinmaslik choralari bo'yicha qoidalari" (Bangkok qoidalari) (2010); "BMTning balog'atga yetmagan bolalar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha qo'llanmasi" (1990); "Ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga yetmagan bolalarni himoya qilish bo'yicha BMT qoidalari" (1990); "Huquq-tartibot idoralari xodimlarining axloq qoidalari" (1979); "Shifokorlar mahkumlarni qiynoqlardan va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazodan himoya qilishda tibbiy etika prinsiplari" (1982); "Har qanday hibsga olish yoki qamoqqa tashlangan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari to'plami" (1988); "Mahkumlar bilan muomala qilishning asosiy prinsiplari" (1990); "Jinoiy odil sudlov tizimidagi bolalar uchun harakatlar bo'yicha qo'llanma" (1997); "Jinoyat ishlarida odil sudlovni tiklash dasturlarini qo'llashning asosiy prinsiplari" (2002 y.); "Jabrlangan bolalar va jinoyat guvohlarining ishtiroki bilan bog'liq masalalarda odil sudlovga oid ko'rsatmalar" (2005); "O'lim jazosiga duch kelganlarning huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydigan choralari" (1996).

REFERENCES

1. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" 1948-yil
2. Barcha shaxslarni qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolardan himoya qilish to'g'risida"gi deklaratsiya" 1975-yil
3. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakti" 1966-yil
4. "Har qanday hibsga olish yoki qamoqqa tashlangan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari to'plami" 1988-yil
5. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi" 2023-yil

YANGI MEHNAT QONUNCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA XALQARO TAJRIBA

Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
maxsus fan o'qituvchisi. 3-darajali yurist. Magistr.
shokhidaxonjiyanova@gmail.com

Telefon: +998(91) 327 45 05

Abdusalomov Avazbek Abdulhamid o'g'li

Sud-huquqiy faoliyati, 23-22 guruh o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371695>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining o'ziga xususiyatlari, "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy qilishning ahamiyati shuningdek, O'zbekiston mehnat munosabatlarini tartibga solish va ishchilarni samaral ijtimoiy himoya qilishni yo'lga qo'yish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganib chiqib tahlil qilishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi, xalqaro mehnat tashkiloti, ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati, mediator, xalqaro tajriba va standartlar, gender tenglik, norezident.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF NEW LABOR LEGISLATION AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

Abstract. In this article, the features of the new version of the Labor Code, the importance of introducing the interdepartmental software-hardware complex "Uniform National Labor System", as well as the international experience of regulating labor relations and establishing effective social protection of workers in Uzbekistan are analyzed explained about doing.

Key words: "Unified national labor system" interdepartmental software-hardware complex, international labor organization, social partnership, public control, mediator, international experience and standards, gender equality, non-resident.

ОСОБЕННОСТИ НОВОГО ТРУДОВОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности новой редакции Трудового кодекса, важность внедрения межведомственного программно-аппаратного комплекса «Единая национальная система труда», а также зарубежный опыт регулирования трудовых отношений и установления эффективной социальной защиты работников в Узбекистан проанализированы, объяснили, что делать.

Ключевые слова: межведомственный программно-аппаратный комплекс «Единая национальная система труда», международная организация труда, социальное партнерство, общественный контроль, посредник, международный опыт и стандарты, гендерное равенство, нерезидент.

Har qanday jamiyat boyligining manbai, insoniyat tomonidan moddiy va ma'naviy boylik yaratishning asosiy omili mehnatdir. Jamiyatning ijtimoiy shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar, mehnat moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarishda zarur faoliyat bo'lib qolaveradi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligiga, uning hayot darajasi va sifatiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi. Bu o'zgarishlar, umuman, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida dastlab mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi milliy qonun va qonunosti hujjatlarni zamon talabi asosida takomillashtirish, ularda umume'tirof etilgan tamoyillarni qamrab olishni taqozo etadi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksda mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni, mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash, mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik, mehnat huquqlari ta'minlanishi va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlangani hamda xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari sifatida belgilanishi uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, kuchga kiradigan kodeks bandlik, individual mehnat munosabatlari, xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solish xususiyatlari, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnat nizolarini ko'rib chiqish kabi normalarni o'z ichiga oladi. Hujjatning 175-moddasiga xodimning shaxsga doir ma'lumotlariga oid yangi normalar kiritildi.

Prezidentimizning 2019 yil 31 oktyabrdagi "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori⁶²ga muvofiq, mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish, shuningdek, unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksida ro'yxatdan o'tkazilishi shartligi xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda. Muhimi, mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra yoki xodimning pensiya yoshiga to'lishi munosabati bilan bekor qilishni taqiqlash nazarda tutildi. Zotan, amaldagi kodeksda mavjud bu boradagi bo'shliqlar Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat va bandlik sohasidagi kamsitishlarni bartaraf etish to'g'risidagi konvensiyasiga mos kelmaydi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida ijtimoiy va huquqiy himoyaga muhtoj ishchilarning ayrim toifalari – ayollar va oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan shug'ullanadigan shaxslar, 18 yoshga to'lmagan ishchilar, nogironlar, o'rindoshlik asosida ishlovchilar, yakka tartibdagi tadbirkorlar mehnatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari aks etgan. Masalan, ish beruvchi homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash (perinatal skrining va tashxis, majburiy tibbiy ko'rik va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha bo'sh kunlarni berishi lozim bo'ladi.

Xodimning ish stajiga qarab ishdan bo'shatish nafaqasini tabaqalashtirish va bunda aynan ushbu tashkilotda ishlagan muddatini inobatga olish nazarda tutilgan. Deylik, 3 yilgacha ish stajiga ega xodimlarga beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi o'rtacha oylik ish haqining 50 foizidan, 15 yildan ortiq ish stajiga ega xodimlarga ajratiladigan ishdan bo'shatish nafaqasi esa o'rtacha oylik

⁶² Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 oktabrdagi "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4502-son Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2022 y., 06/22/112/0326-son.

ish haqining 200 foizidan kam bo'lishi mumkin emasligi belgilangan. Ish beruvchiga esa xodimlar bilan muddatsiz mehnat shartnomasi tuzish, shuningdek, muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin bo'lgan maksimal muddatni 5 yildan 3 yilgacha kamaytirish huquqi beriladi.

Dam olish kunini davlat bayramlari (ishlanmaydigan bayram kunlari) kunlariga to'g'ri kelgan taqdirda ko'chirish qoidasi kiritildi. Mehnat ta'tilining minimal davomiyligi kalendar kunlarda (15 ish kuni o'rniga 21 kalendar kuni) belgilandi. Xodimni boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborish tartibi mustahkamlandi⁶³.

Jamoaning muvaffaqiyati rahbarning salohiyati, boshqaruv uslubi va tashabbuskorligi, zamonaviy fikrlashiga bog'liq. Tashkilot, idorada qanday shaxs rahbar bo'lishi doimo muhim bo'lib kelgan. Shu bois, yangi tahrirdagi kodeksda ayrim toifadagi xodimlar (rahbarlar, bosh buxgalterlar) uchun sinov muddati 3 oydan 6 oygacha uzaytirildi. Bunda amaliyotda rahbarning o'zini ko'rsata olishi, jamoani bir maqsad atrofida birlashtira olishi uchun 3 oylik sinov muddati kamlik qilayotgani inobatga olindi.

Yangi tahrirdagi kodeksda, avval bo'lmagan, ya'ni ish bilan ta'minlash jarayonlarini raqamlashtirish, elektron mehnat daftarchalarini yuritish, mehnat shartnomalarini tuzish va yagona ma'lumot bazasida ro'yxatdan o'tkazish mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, moslashtirilgan ish vaqti rejimi belgilangan kuchga kiradigan kodeksning muhim jihatlaridan. Bu ma'lum bir xodimlar yoki tashkilotning tarkibiy bo'linmalaridagi xodimlar guruhlar uchun ish kunining boshlanishi, tugashi va umumiy ish kuni muddatini xodimning o'ziga tartibga solishga ruxsat etgan holda ish vaqtini tashkil etish usuli hisoblanadi. Smenali ish, moslashuvchan ish vaqti, ish kunini qismlarga bo'lish, ish safari paytidagi ish vaqtlari va boshqalar hisobga olinadigan bo'ldi.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikka oid alohida bo'limda mazkur munosabatlarning huquqiy asosi ochib berilgan. Ijtimoiy sheriklik xodimlar, ish beruvchilar, ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasidagi mehnat va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan tizimni nazarda tutadi.

Kodeksda ish beruvchi sub'yektlar sifatida mulkiy va idoraviy mansubligidan qat'i nazar, tashkilotlar, yollash huquqiga ega bo'lgan tashkilotlarning alohida tarkibiy bo'linmalari hamda jismoniy shaxslar belgilangan.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishdan olingan saboqlarni hisobga olgan holda, xodimga qisman ish haqi bilan, lekin eng kam ish haqidan kam bo'lmagan ta'til berish imkoniyatini belgilaydigan, shuningdek, ish haqi to'lanmagan ta'tilni 6 oygacha uzaytiradigan me'yorlar joriy etiladi.

Mehnat nizolarini ko'rib chiqish jarayonida jamoatchilik nazorati mexanizmlari aks ettirildi. Yakka mehnat nizolari komissiyalarda yoki sudda hal etilishi holatlari ko'rsatilgan, yakka mehnat nizoni mediatorga yuborilishini joriy etish, mehnat arbitraji tizimi yo'lga qo'yiladi.

Nizolarni muqobil hal qilishning imkoniyatlari kengaytirilib, sudlardagi ish hajmi kamaytirildi. Ayrim toifadagi xodimlarning mehnati huquqiy jihatdan tartibga solindi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda mehnat munosabatlarini tartibga solishda milliy qonunchilik bazasi bilan bir qatorda davlatimiz tomonidan imzolangan xalqaro

⁶³ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022 y., 02/22/798/0972-son

shartnomalar hamda Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro mehnat tashkiloti o'rtasida imzolangan munosib mehnat bo'yicha 2017/2019 yillarga mo'ljallangan dastur, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 maydagi Qarori bilan tasdiqlangan "2018-2020-yillarda Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalari amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hujjat ahamiyatlidir⁶⁴.

So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston hukumati xalqaro tendensiyalar va tajribalarni hisobga olgan holda mehnat qonunchiligini modernizatsiya qilish va takomillashtirish ustida ishlamoqda. O'zbekistondagi mehnat qonunchiligiga ta'sir ko'rsatgan xalqaro tajribalarning ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz.

1. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT): XMT Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi bo'lib, butun dunyo bo'ylab ijtimoiy adolatni targ'ib qiluvchi va munosib mehnat sharoitlarini targ'ib qiladi. O'zbekiston 1992 yildan buyon XMT a'zosi bo'lib, uning mehnat huquqlariga, jumladan, bolalar mehnatini va majburiy mehnatga barham berishga oid ko'plab siyosatlarini, tavsiyalari va konvensiyalarini qabul qilgan.

2. Yevropa Ittifoqi (YI): O'zbekistonda mehnat qonunchiligini shakllantirishda Yevropa Ittifoqi ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi O'zbekistonga mehnat amaliyotini yaxshilash, jumladan, Xalqaro mehnat standartlarini joriy etish borasidagi sa'y-harakatlar uchun moliyaviy va texnik yordam ko'rsatadi.

3. Xalqaro tajriba: O'zbekiston mehnat munosabatlarini tartibga solish va ishchilarni samaral ijtimoiy himoya qilishni yo'lga qo'yish bo'yicha tajribalarini o'rganish maqsadida boshqa mamlakatlar, jumladan, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyaning mehnat qonunchiligini o'rganib chiqdi va tahlil qiladi.

Ushbu Xalqaro tajribalar O'zbekistonning mehnat qonunchiligini shakllantirishga yordam berdi, bu esa mamlakat yanada iqtisodiy rivojlanish va jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuv sari intilishda davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro tajriba va standartlar asosida fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori loyihasi e'lon qilindi.

Sanoat va savdo, qishloq xo'jaligi, qurilish hamda boshqa barcha iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mehnat va mehnatni muhofaza qilish, mehnat gigiyenasi tartib-tamoyillariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash maqsadida, fuqarolar mehnat huquqlarini himoya qilish, ta'minlash tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari deb quyidagilar belgilanadi.

An'anaviy usullar bilan bir qatorda mehnat qonunchiligi buzilishiga olib keluvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish va oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi, manzili va

⁶⁴ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 maydagi "2018 — 2020-yillarda Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 407-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2018-y., 09/18/407/1295-son

nostandart yondashuvga asoslangan ish beruvchilar konsultativ va metodologik ko'maklashishga qaratilgan samarali mexanizmni joriy etish va boshqalar.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining Mehnat qonunchiligidagi tajribalari ham xalqaro hamjamiyatga taqdim etilmoqda, jumladan; 2020 yil 2 iyuldagi Xalqaro mehnat tashkilotining Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy sessiyasida O'zbekiston tajribasi tinglandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda aholi bandligi masalasi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Prezidentimiz har bir chiqishida, hududlarga tashrifida mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizning roziligiga erishish, tadbirkorlikka erkinlik berish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirishga asosiy e'tiborni qaratishi bejiz emas.

Mehnat bozorining kelajakdagi rivoji uchun xizmat qiladigan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi mamlakatimizda ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan, investitsiya muhitini yaxshilash borasida mamlakatimiz mehnat qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mazkur kodeks istiqbolda kichik biznes sub'yektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan aholi mehnatini huquqiy tartibga solishga imkon beradi. Rasmiy va norasmiy tarmoqda mavsumiy ish bilan band bo'lganlarning mehnat huquqlarini tartibga solishdagi bo'shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etadi. Mehnat munosabatlarida korrupsiya xavfi kamayib, "Yagona milliy mehnat tizimi" raqamlashtiriladi.

Gender tenglik, neytrallik tamoyillari, imkoniyati cheklangan shaxslar, norezidentlarning mehnat qilish huquqi ta'minlanadi. Ish beruvchilarning mehnat bozoridagi yangi mehnat turlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi, mehnat shartnomasi turlari kengaytiriladi va norasmiy tarmoqlarda ishlovchilarni legallashtirishga erishiladi.

Umuman olganda, ushbu hujjat mazkur sohadagi qator muammolarni, mehnat bozoridagi vaziyatni inobatga olib, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, qonuniy hal qilishda, ishlagan ishiga, ish beruvchi esa kiritgan sarmoyasiga munosib tarzda e'tibor va rag'batga ega bo'lishini kafolatlaydigan muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son;
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022 y., 02/22/798/0972-son;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 oktabrdagi "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4502-son Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2022 y., 06/22/112/0326-son;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 maydagi "2018 — 2020-yillarda Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

407-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2018-y.,
09/18/407/1295-son.

Internet saytlari

6. www.lex.uz
7. www.norma.uz
8. www.huquqiportal.uz

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYAT INSTITUTLARI ISHTIROKI

To'yev Bahodir Baxtiyorovich

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

baxodirtuyev@gmail.com

Telefon: +998(90) 710 77 40

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371714>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishtiroki shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishining asosiy usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, nodavlat notijorat tashkilot, fuqarolik jamiyati, halollik vaksinasi, manfaatlar to'qnashuvi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, plyuralizm, deklaratsiya, jamoatchilik nazorati.

IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION PARTICIPATION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS

Abstract. This article talks about the participation of non-governmental non-profit organizations and other institutions of civil society in the fight against corruption in our country, as well as the main methods of participation of citizens' self-government bodies, non-governmental non-profit organizations in the fight against corruption.

Key words: Corruption, non-governmental non-profit organization, civil society, honesty vaccine, conflict of interests, legal consciousness, legal culture, pluralism, declaration, public control.

В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ УЧАСТИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной статье говорится об участии негосударственных некоммерческих организаций и иных институтов гражданского общества в борьбе с коррупцией в нашей стране, а также об основных способах участия органов самоуправления граждан, негосударственных некоммерческие организации в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: Коррупция, негосударственная некоммерческая организация, гражданское общество, вакцина честности, конфликт интересов, правосознание, правовая культура, плюрализм, декларация, общественный контроль.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirishda milliy qonunlarga xalqaro huquqiy umume'tirof etilgan normalarni singdirish masalasiga alohida e'tibor berildi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizdagi yuksalishlarga jiddiy to'siq bu korrupsiya balosi ekanligini qayd etish zarur. Davlat va jamiyat boshqaruvini yanada demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi sohalarini liberallashtirish sharoitida davlat xizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishi davlat hokimiyatining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur etishiga, natijada, davlat hokimiyati faoliyati samaradorligining susayishiga sabab bo'ladi. Shu bois, ushbu illatga qarshi kurashish va barham berish siyosati davlat va jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat organlari tomonidan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash kabi chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: **“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak”**, deb haqli ravishda ta'kidlaydi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, korrupsiya muammosi so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzu hisoblanadi. Ayrim siyosatchilar tomonidan korrupsiyaga global inqirozni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ham ta'rif beriladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning ayrimlari korrupsiya balosiga o'z vaqtida muvaffaqiyatli kurashib, ijobiy natijalarni qo'lga kiritishgan.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor vazifa etib belgilandi. Xususan, Taraqqiyot strategiyasida davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish (4-maqсад), korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish (84-maqсад) nazarda tutildi.

Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasida davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish belgilangan bo'lib, unga ko'ra, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi. Shuningdek, davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish (83-maqсад) kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi⁶⁵.

⁶⁵ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

Qonunchilikda davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish yoʻnalishida xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirishga alohida eʼtibor qaratayotgani quvonarli hol. Bundan tashqari, davlat organlari va boshqa tashkilotlar oʻz mansabdor shaxslari va xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar koʻrishi majburiy etib belgilangan.

Jamiyat, jumladan, fuqarolik jamiyati murakkab turli tuzilmalar va fuqarolarning birikmasidan iborat. Unda davlat, uning organlari bilan birga, boshqa tuzilmalar ham faoliyat koʻrsatadi. Bu tuzilmalar oʻz xarakteri, vazifasiga qarab alohida yoʻnalishlar boʻyicha davlat huquqiy, konstitutsiyaviy, ijtimoiy-siyosiy masalalarda faoliyat koʻrsatadi. Ular huquqiy, ilmiy manbalarda “institutlar” deb ataladi.

Yuridik ensiklopediyada: institut – huquqiy yoki ijtimoiy siyosiy hodisa (borliq) va ularga qaratilgan huquqiy normalar va ular bilan bogʻliq ijtimoiy normalar yigʻindisidir, deya taʼrif berilgan.

Fuqarolik jamiyati institutlari ham davlat-huquqiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ishtirok etadi, alohida tuzilma hisoblanadi va faoliyati huquqiy, ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadi. Ular fuqarolik jamiyatining eng muhim xususiyatlari – siyosiy plyuralizm (turli fikrlik), koʻppartiyaviylik va boshqalarni roʻyobga chiqishini taʼminlaydi va jamiyat rivojlanib borgan sari, ularning jamiyat ishlaridagi ishtiroki kengayib boradi, ular oʻz zimmasiga yangi vazifalarni oladi.

Ana shunday vazifalardan biri – korrupsiyaga qarshi kurashdir. Korrupsiya har qanday jamiyat, tizimda uchraydigan eng jirkanch, oʻta makkor va xavf-xatardir. Unga faqat davlat organlari bilangina qarshi kurashib, muvaffaqiyatga erishib boʻlmaydi. Shu oʻrinda prezidentimizning quyidagi soʻzlari diqqatga sazovor: **“... korrupsiyaning har qanday koʻrinishiga murosasiz boʻlish kundalik hayot tarziga aylanishi shart. Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman har bir fuqaro safarbar etilishi zarur”**.

Prezident Sh.Mirziyoyev oʻz prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridayoq, **“Jamiyat rivojiga gʻov boʻlayotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir”**, - deb eʼtirof etdi. Shuningdek, prezidentlik lavozimiga ikkinchi muddatga kirishishi munosabati bilan oʻtkazilgan marosimda soʻzlagan nutqida esa **“... soʻnggi besh yilda korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosati darajasiga olib chiqdik”**, deb qayd qildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat katta imkoniyatlarga ega, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi, unga tegishli choralar koʻruvchi davlat organlari mavjud. Bu organlarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va ularga uslubiy yordam koʻrsatuvchi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi, hududlarda hududiy kengashlar tashkil qilingan. Mamlakatimizda tashkil qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi”ga katta umid bilan qaralmoqda.

Tajriba shuni koʻrsatmoqdaki, korrupsiyaga faqat davlat organlari faoliyati orqali kurashish yetarli boʻlmayapti. Bunga keng jamoatchilikni jalb qilmasdan koʻzlangan maqsadga erishish mumkin boʻlmashligi ayon boʻlmoqda. Shuning uchun keyingi paytlarda korrupsiyaga qarshi kurashga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Chunki jamiyat illati boʻlmish korrupsiyaga jamiyatning barcha elementlari birdek urush eʼlon qilishi, kurashish zaruriyat boʻlib qolmoqda.

Bular avvalo jamoat birlashmalaridir. Jamoat birlashmalari konstitutsiyaviy tuzilma bo‘lib, bu Konstitutsiyaning XIII bobida belgilab qo‘yilgan. Uning 70-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi”, deb mustahkamlangan⁶⁶.

Bundan keyingi yo‘l – fuqarolik jamiyati institutlarini faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilishi belgilanib, ularning o‘rni va maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlashga alohida e’tibor berish zarurligi belgilangan.

Fuqarolik institutlari nimaga asosan korrupsiyaga qarshi kurashadi? – degan savol kelib chiqishi mumkin. Qonunlarda bu masala turlicha tarzda o‘z o‘rnini topgan. Lekin barcha fuqarolik jamiyati institutlari uchun bu masalada umumiy vazifalar mavjud, ya’ni qonunlarga asosan, fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning huquqlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini rivojlantirish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishi kerak.

Fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishning samarali usul va mexanizmlarini tatbiq qilish, jumladan, barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimini mukammallashtirishga erishish, joylarga chiqib, mavjud ahvolni shaxsan o‘rganish asosida aholini qiynayotgan eng muhim ehtiyojlarni hal etishda amaliy yordam ko‘rsatish nafaqat davlat organlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlarning ham muhim vazifasidir. Shubhasiz, mavjud muammolarni hal qilishga birgina davlatning kuchi yetmaydi. Bunda nodavlat tashkilotlarning yordami zarur. Bejiz nodavlat notijorat tashkilotlar xalq va davlat o‘rtasidagi ko‘prikka qiyoslanmaydi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, jamiyat va davlat ishlari boshqarilishida ularning o‘rni hamda ahamiyatini kuchaytirish, aholining ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, insonlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza etish sohalarida “uchinchi sektor” faolligini oshirishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Dunyo tobora jadal rivojlanmoqda. Hozir bir joyda deysinib turib bo‘lmaydi. Faqat harakat, intilish, tashabbuskorlikni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Vaholanki, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlar hamda boshqa qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi aholining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa fuqarolik institutlarining jamiyat hamda davlat ishlari boshqaruvidagi ishtirokining huquqiy kafolatlarini sezilarli darajada mustahkamladi.

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining davlat organlari qarorlarini ishlab chiqishda, qonun loyihalarini tayyorlash va muhokama qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda qatnashish huquqi mustahkamlangan.

⁶⁶ Qarang. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Buning barobarida, 1991 yilda atigi 95 tani tashkil etgan NNTlar soni bugungi kunga kelib, o'n mingga yaqinlashdi.

Korrupsiya esa, to'g'ridan to'g'ri fuqarolarning huquq va erkinliklariga salbiy ta'sir qiladi, moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga to'sqinlik qiladi, har bir fuqaroning ijtimoiy hayotda teng ishtirokini chegaralaydi. Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkin: a) jamoat birlashmalari fuqarolarning ixtiyoriylik asosida tuziladigan uyushma, ular qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak; b) fuqarolarning birlashmalari yuqorida sanab o'tilganlar bilan cheklanmaydi, ya'ni boshqa uyushmalar ham tuzish mumkin.

Konstitutsiyada ko'zda tutilgan jamoat birlashmalari tizimida ikki jamoat birlashmasining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotidagi muhim roli hisobga olinib, alohida qayd qilingan. 73-moddada: "Kasaba uyushmalari"ning vazifasi, 74-moddada "Siyosiy partiyalar"ning vazifasi belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik jamiyati tizimida nodavlat va notijorat tashkilotlari alohida o'rin tutadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlar (foйда)ni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotlaridir.

Demak, NTT – bu o'zini o'zi boshqarish tashkiloti. U jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tuziladi. Asosiy maqsadi daromad (foйда) olish emas. Faoliyati davomida daromad (foйда) vujudga kelsa a'zolari o'rtasida taqsimlaydi. Lekin bu belgilar NTTning barcha vazifasini qamrab olmagan. Ular, yuqoridagilardan tashqari, o'z a'zolarini qonuniy manfaatlarini, ijtimoiy hayotdagi zarur demokratik qadriyatlarni himoya qilish; a'zolari ma'naviy va turli nomoddiy ehtiyojlarni qondirish; eng muhimi, xayriya faoliyatini amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi. Korrupsiya esa, shu qayd qilingan masalalarga to'sqinlik qiladi, shuning uchun ham NTT korrupsiyaga qarshi kurashda davlat organlarining eng yaqin hamkoridir.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari qatorida davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi alohida prinsip sifatida ko'rsatilgan⁶⁷. Bu prinsip fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati orqali ta'minlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi davlat siyosatining yo'nalishlari qonunda belgilangan bo'lib, ularning orasida, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish qayd qilingan.

Mana shu vazifani ro'yobga chiqarishda fuqarolik jamiyati institutlari faol ishtirok etishi zarur va ularda etarli imkoniyatlar mavjud. Bu ularning asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunida, ularni tuzishdan maqsadlardan biri – ular o'z vakillari orqali jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etishidir. Bunday ishtirok etish turli usullar bilan birga, jamoatchilik nazorati orqali ham amalga oshiriladi⁶⁸. Boshqa fuqarolik institutlari hujjatlarida ham shunday vazifalar mavjud. Qonunda "Fuqarolarning o'zini

⁶⁷ Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 9.11.2021-y., 03/21/729/1064-son.

⁶⁸ Qarang. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'RQ-337-I-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son.

o'zi boshqarish organlarining, NTTning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishining asosiy usullari belgilab qo'yilgan.

Bular:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etish;
- korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faqat korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturlari ishlab chiqishda ishtirok etmasdan boshqa dasturlarni ishlab chiqishda ham ishtirok etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksak bo'lishi muhim omildir. Ana shu masalalarning yuksakligiga erishishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki muhimdir. Ularning ishtirokisiz aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qiyin masala. Huquqiy ong va madaniyat yuksak bo'lmasa korrupsiyaga qarshi kurashish samara bermaydi. Avvalo korrupsiya buzg'unchi illat ekanligini fuqarolik institutlarining har biri o'z a'zolari ongiga singdirishi, korrupsiyaga nisbatan nafrat uyg'otishi zarur. Huquqiy ong, bilimga ega bo'lish masalaning bir tomoni, faqat u bilan qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ongni, bilimni hayotda qo'llash kerak. Buning uchun esa huquqiy madaniyat kerak. Yuksak huquqiy madaniyatga erishish onga erishishga qaraganda murakkab masala. Buning uchun fuqarolik jamiyati institutlari tashviqot-targ'ibot ishlaridan tashqari, shaxsiy o'rnak, namuna bo'lish orqali fuqarolarning huquqiy madaniyatiga ta'sir qilishi kerak. Qisqasi, qonunlarni bilish emas, uni bajarish shartligi fuqarolar ongiga kiritilib, qonunga itoat etish, unga hurmat qilish hissini shakllantirish zarur.

Fuqarolik institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashida, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga qarshi kurashi ustuvor faoliyat bo'lish kerak. Bunda, ayniqsa, NNT a'zolari o'rtasida qonunga hurmat ruhini shakllantirish, korrupsiyaning har qanday ko'rinishlari va uni keltirib chiqaruvchi sabablarga muhosasizlik kayfiyatini yaratish, korrupsiya jinoyatlariga nafratni vujudga keltirish muhimdir. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabablar: xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik, kamchiliklarni ko'rib turib, uni ko'rmaslikka olish, tanqidga chidamsizlik, jur'atsizlik, beparvolik, beg'amlik ham hisoblanadi. NNT bor imkoniyatlardan foydalanib, shu illatlarga qarshi kurashishi zarur.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;

2. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 9.11.2021-y., 03/21/729/1064-son;
3. O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-337-I-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son;
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 6 dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-588-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 8.05.2022-y., 03/22/770/0424-son;
5. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 mayda “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-369-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
6. O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-369-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2022-y., 03/22/771/0448-son;
7. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 25 sentabrda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-376-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

Internet saytlari

9. www.lex.uz
10. www.norma.uz
11. www.huquqiportal.uz

OLDI-SOTTI YOKI HADYA QILINGANDA KO'CHMAS MULKNI HIMOYA QILISH USULLARI VA RO'YXATDAN O'TKAZISH TARTIBI

Murodullayev Izzatulla

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi Mutaxassis fan o'qituvchisi

izzatulla.ooo@gmail.com

+998934233460

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371727>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqi, ko'chmas mulk davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mulk huquqi, qonun, mulkning daxlsizligi, ko'chmas mulk, mulkdor, xususiy mulk, ko'chmas mulk.

PROCEDURE FOR REGISTRATION AND PROCEDURE OF PROTECTION OF REAL ESTATE IN THE CASE OF FORECLOSURE OR GIFT

Abstract. This article describes the owner's right to own, use and dispose of his own property, the procedure for state registration of real estate.

Key words: Property right, law, inviolability of property, real estate, owner, private property, real estate.

ПОРЯДОК ОФОРМЛЕНИЯ И ПОРЯДОК ЗАЩИТЫ НЕДВИЖИМОГО ИМУЩЕСТВА В СЛУЧАЕ ОБРАЩЕНИЯ ЗАЯВЛЕНИЯ ИЛИ ПОДАРКА

Аннотация. В данной статье описаны право собственника владеть, пользоваться и распоряжаться собственным имуществом, порядок государственной регистрации недвижимого имущества.

Ключевые слова: Право собственности, закон, неприкосновенность собственности, недвижимое имущество, собственник, частная собственность, недвижимое имущество.

Mulk huquqi mutlaq huquq hisoblanadi va qonun bilan qo'riqlanadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida shunday belgilangan: "Xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidadir".

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 166-moddasida shunday belgilangan: "Mulk daxlsizdir va qonun bilan qo'riqlanadi. Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashlaridan iboratdir".

"O'zbekiston Respublikasi mulkchilik to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasida shunday belgilangan: "Agar davlat boshqaruv organi yoki mahalliy davlat hokimiyati organining qonunga nomuvofiq hujjati chiqarilishi natijasida mulkdor va unga tegishli mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf qilish bo'yicha boshqa shaxslar huquqlari buzilsa, bunday hujjat mulkdor yoki huquqlari buzilgan shaxs da'vo arizasi bo'yicha sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi".

Dastlab, ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrdagi "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1060-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq ro'yxatdan o'tkazish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat beriladi. Mulkchilikning hamma shakllari daxlsiz bo'lishiga va ularning rivojlanishi uchun teng sharoit yaratilishiga qonun kafolat beradi.

Mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqini boshqa shaxslarga berishga faqat o'zi haqlidir. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda, mulkdorning zimmasiga boshqa shaxslarning uning mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yish vazifasi yuklanishi mumkin.

Ko'chmas mulkni oldi-sotti qilish natijasida mulk bir shaxsdan boshqasiga o'tishi natijasida mulk huquqi ham bir shaxsdan boshqasiga o'tadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ko'chmas mulk huquqi, birinchi navbatda, davlat ro'yxatiga qo'yish orqali himoyalaniadi. Ya'ni, har bir ko'chmas mulk davlat ro'yxatiga olinadi va shu orqali mulkdorning huquqlari tan olinadi hamda shu asosga ko'ra himoya qilinadi. Ushbu holatda, mulkdorlar o'z mulklariga erkin egalik qilishlari mumkin. Quyida ko'chmas mulk savdosi paytida mulk va mulkdorni himoyalash usullarini tahlil qilamiz.

Birinchiidan, xususiy mulkka erkin egalik qilish huquqi orqali mulkdorlar himoyalangan. "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi 5-band to'rtinchi xatboshisiga ko'ra mol-mulkni mulk qilib sotib olganidan keyin fuqaro uni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etishga — sotishga, vasiyat qilib qoldirishga, ijaraga berishga, undan garov sifatida foydalanishga, unga doir qonunga zid bo'lmagan boshqa bitimlar tuzishga haqlidir. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-336-son qonunining 4-moddasiga binoan mulkdor o'z mol-mulkidan xo'jalik faoliyatini va qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanishi, uni boshqa shaxslarga egalik qilish va (yoki) foydalanish uchun tekinga yoxud haq evaziga berishi mumkin. Shuningdek, ushbu qonunning 13-moddasida mulkdorni o'z mulkiga bo'lgan huquqidan voz kechishga majbur qiladigan qonunga xilof ravishdagi aralashuv taqiqlanishi belgilangan. Yuqoridagi qonuniy asoslardan ko'rishimiz mumkinki, mulkdor o'z ko'chmas mulkidan erkin foydalanadi va uni hech kim mulkidan voz kechishga majburlashi mumkin emas.

Ikkinchiidan, ko'chmas mulk savdosi amalga oshirilayotganda harakatlarning notarial tasdiqlanishi ham mulkdorlarning buzilganyokibuzilishi mumkin bo'lgan huquqlarini himoyalashning muhim bir vositasi sifatida qarashimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevraldagi "Bitimlarni notarial tasdiqlash tartibini idoralararo elektron hamkorlikni qo'llagan holda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'chmas mulkning oldi-sotti, ayirboshlash va hadya qilish bitimlarini idoralararo elektron hamkorlikni qo'llagan holda notarial tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi nizomi ushbu faoliyatni tartibga soluvchi muhim hujjat bo'lib hisoblanadi. Ko'chmas mulk savdosida hujjatlarni notarial tasdiqlanishi orqali soliqlar, kommunal xizmatlar va elektr energiyasi bo'yicha qarzdorlik, ko'chmas mulkka nisbatan taqiq va xatlash mavjudligi O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yoki "Notarius" AATda idoralararo elektron hamkorlik orqali avtomatik tarzda tekshiriladi. Bu esa savdo davomida firibgarlik yoki boshqa shunga o'xshash jinoyatlarning oldi olinishiga olib keladi va amaldagi mulkdor hamda bo'lajak mulkdorlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarga barham beradi.

Uchinchiidan, sotib olingan ko'chmas mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazish mulkni himoyalashning asosiy shakllaridan biri sanaladi. Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va bekor bo'lishi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. Ushbu soha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1060-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan tartibga solinadi. Ushbu nizomning 4-bandiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqi mazkur Nizomga muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi. Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilmasdan amalga oshirilganda ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar

haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bundan tushunishimiz mumkinki, davlat ro'yxatidan o'tkazish – bu, ushbu mulkni davlat tomonidan mulkdorga tegishli ekanligini e'tirofi sanaladi va qonuniy barcha huquqlardan foydalanishga zamin yaratadi.

REFERENCES

I. Rahbariy adabiyotlar

- 1.1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017. –102 b.
- 1.2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq – T.: «O'zbekiston», 2016. – 56 b.
- 1.3. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: O'zbekiston, 1993-yil.
- 1.4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: 1993-yil.
- 1.5. Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay. T.: O'zbekiston, 1993-yil.
- 1.6. Karimov I.A. Iqtisodiy islohot: mas'uliyatli bosqich. T.: O'zbekiston, 1994-yil.

II. Qonun va qonunosti hujjatlari.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, // 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova (I qism), 1996 y., 11-12-songa ilova (II qism).
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2014-yil 7-apreldagi PF-4609 son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.12.2019 y., 06/19/5893/4150-son.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 24.12.1998-y., 03/19/584/4025-son.
- 2.5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.01.2018-y., 03/20/607/0279-son.
- 2.6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2018., 03/20/608/0278-son.
- 2.7. O'zbekiston Respublikasi “O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida”gi Qonun.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 978-modda.
- 2.8. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentabrdagi “Xususiylashtirish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ–336-son qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 24-son, 487-modda.
- 2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
- 2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 20-iyuldagi “Iqtisodiyotning strategik tarmoqlari korxonalarini xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-3897-son Farmoni.
- 2.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2007-2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2007-yil 20-iyul Qarori.

- 2.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-son Farmoni.
- 2.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-avgustdagi “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining mulk huquqi kafolatlanishini so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5491-son Farmoyishi.
- 2.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘chimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-5780-son farmoni.
- 2.15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda “Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1060-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.

III. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar:

- 3.1. Rahmonqulov H., Ro‘zinazarov Sh., Oqyulov O., Azizov X., Imomov N. Xususiy mulk obyektlarining huquqiy maqomi. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, 2007, 55 b.
- 3.2. Гражданско-правовые способы защиты права собственности на недвижимость. Научно-практическое пособие по применению гражданского законодательства. 3-е издание, переработанное и дополненное Москва.Юрайт.2014.
- 3.3. Ergashev V.Yo. Fuqarolik huquqida xususiy mulk huquqi vujudga kelishi va bekor bo‘lishining ilmiy-nazariy jihatlarini. –Toshkent, TDYuI, 2007. 53 b.
- 3.4. Ergashev V.Yo. O‘zbekiston Respublikasida mulk huquqining dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollari. –Toshkent: TDYuI, 2009. 48 b.

IV. Oliy sud plenumi qarorlari va sud amaliyoti

- 4.1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik Sudi sudlov hay‘atining 2015-yil 23-iyundagi “Davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hamda fuqarolarning yoki yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi to‘g‘risida”gi 10-1417/19477-son Qarori (sud amaliyoti).
- 4.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik Sudi sudlov hay‘atining 2016-yil 28-apreldagi “Xo‘jalik sudlari tomonidan 2015-yilda davlat organlari va fuqarolar o‘zini o‘zi bochqarish organlarining hujjatlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan Qarori” (sud amaliyoti).
- 4.3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi sudlov hay‘atining 2015-yil 11- maydagi “Yuridik shaxs tomonidan uning ustav maqsadlariga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shug‘ullanishga litsenziyasi bo‘lmagan yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat organining da‘vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi to‘g‘risida”gi 18-1404/921-son Qarori (sud amaliyoti).
- 4.4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014-yil 28-noyabrdagi 269-son “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Qarori.

- 4.5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2003-yi 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog‘liq normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 110-son Qarori.
- 4.6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sud Plenumining 2002-yil 4-martdagi “O‘zbekiston respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi Qarori.
- 4.7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2010-yil 19-noyabrdagi “Mulk huquqini tan olishga oid ishlarni ko‘rishda iqtisodiy sudlar tomonidan qonun hujjatlari qo‘llanilishining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Qarori.
- 4.8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1991-yil 20-dekabrdagi “Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 5-sonli [Qarori](#).

Internet saytlar

- 1.1. <http://www.lex.uz>
- 1.2. <http://www.lawcom.gov.uk>
- 1.3. <http://www.gov.uz>
- 1.4. <http://www.norma.uz>
- 1.5. <http://www.cyberleninka.com>
- 1.6. <http://www.law.uk.edu>
- 1.7. <http://www.juristlib.ru>
- 1.8. <http://www.legislationonline.com>

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ КЛАССИФИКАЦИИ МНОГОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ТОВАРОВ ПО ТОВАРНОЙ НОМЕНКЛАТУРЕ

Каримкулов Курбонкул Мавланкулович

д.т.н., проф., Таможенный институт таможенного комитета
Республики Узбекистан, г. Ташкент.

E-mail: karimkulov@mail.ru

Давлатов Олимжон Азизжон ўгли

курсант 4- го курса Таможенного института.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371953>

***Аннотация.** В данной статье изучены технические и специфические параметры классификации многофункциональных товаров, одновременно выполняющих множество функций. Рассмотрены основные технические характеристики и техническая классификация многофункциональных товаров, произведённых в зарубежных странах. Было выявлена необходимость совершенствования единой системы классификации многофункциональных товаров по Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности. Внедрены четырехступенчатые методы классификации, разработанные для многофункциональных товаров.*

***Ключевые слова:** Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности, таможня, таможенные платежи, код товара, многофункциональные товары, классификация.*

MAIN CRITERIA FOR CLASSIFICATION OF MULTI-FUNCTIONAL GOODS ACCORDING TO THE PRODUCT NOMENCLATER OF FEACH ACTIVITIES

***Abstract.** This article examines the technical and specific parameters of the classification of multifunctional products that simultaneously perform multiple functions. The main technical characteristics and technical classification of multifunctional goods produced in foreign countries are considered. The need was identified to improve a unified classification system for multifunctional goods according to the Commodity Nomenclature of Foreign Economic Activity. Four-stage classification methods developed for multifunctional products have been introduced.*

***Key words:** Commodity nomenclature of foreign economic activity, customs, customs payments, product code, multifunctional goods, classification.*

Введение

В настоящее время учеными проводятся научно-исследовательские работы, направленные на идентификацию особенностей товара на основе ТН ВЭД, их классификацию, определение классификационного кода, решение задач по пошлинно-тарифному и нетарифному регулированию внешней экономической деятельности, а также создание универсального подхода их оценки. В связи с этим уделяется особое внимание анализу факторов, которые являются причиной низкого взимания таможенных пошлин в госбюджет при классификации специальных автомобилей по ТН ВЭД, созданию автоматизированной системы классификации на основе характеристик легковых автомобилей, разработке в международных экономических отношениях системы классификации товарных свойств на основе гармонизированной системы Всемирной

таможенной организации, методов и алгоритмов определения товарного кода без человеческого фактора, а также применению в таможенной практике[1, 2].

В качестве факторов, влияющих на эффективность таможенных органов, можно привести использование современных технологий и автоматизация процессов. Внедрение электронных систем таможенного оформления, автоматического распознавания и обработки данных, а также применение современных технологий. Эффективность таможенных органов также зависит от уровня сотрудничества и обмена информацией между ними и другими государствами. Также квалифицированный и хорошо обученный персонал является неотъемлемой частью эффективности таможенных органов. Прозрачность и предсказуемость таможенных процедур и правил также важны для эффективности таможенных органов. Ясные и понятные правила классификации товаров, определения таможенной стоимости и применения таможенных пошлин и налогов способствуют более гладкому и быстрому прохождению товаров через границу. Особенное внимание требуется уделить быстрому и правильному определению кода товаров по Товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности (ТН ВЭД) товаров. Однако, классификация многофункциональных товаров может быть сложной из-за разнообразия их функций и технических характеристик. Таможенные органы должны проводить детальный анализ и исследование, чтобы определить основную функцию товара и правильно классифицировать его по ТН ВЭД.

Важность быстрого и правильного определения кода Товарной номенклатуры внешнеэкономической деятельности товаров сложно недооценить. Своевременное и безошибочное определение кода товара способствует ускорению таможенных процедур, то есть сократить издержки, связанные с ввозом и вывозом товаров. Корректное определение кода ТН ВЭД помогает избежать задержек и ошибок при оформлении таможенных деклараций, что в свою очередь способствует более быстрому прохождению товаров через таможенный контроль. Позволяет сократить временные и финансовые затраты, связанные с таможенным оформлением товаров. Корректное определение кода ТН ВЭД позволяет точно рассчитать таможенные пошлины и налоги, что помогает избежать переplat и споров с таможенными органами. Это также позволяет предприятиям сосредоточиться на своей основной деятельности и улучшить конкурентоспособность на мировом рынке[3-5].

К тому же способствует облегчению торговых операций. Корректное определение кода ТН ВЭД позволяет предприятиям точно классифицировать свои товары и соответствовать требованиям торговых партнеров и регулирующих органов. Это способствует снижению барьеров в международной торговле и улучшению доступа к рынкам. Способствует повышению прозрачности и надежности в мировой торговле. Корректное определение кода ТН ВЭД позволяет точно отслеживать и анализировать объемы и структуру международной торговли. Это помогает государственным органам и международным организациям разрабатывать эффективные политики и стратегии для поддержки мировой торговли.

Правильное определение кода ТН ВЭД является ключевым фактором для обеспечения эффективного перемещения товаров через границы и способствует развитию мировой экономики.

Основная часть

По ТН ВЭД понятие многофункциональных товаров относится к товарам, которые имеют несколько различных функций или возможностей. Это означает, что такие товары могут использоваться для различных целей или выполнять несколько задач одновременно.

Многофункциональные товары могут включать в себя различные категории товаров, такие как электроника, бытовая техника, инструменты, мебель и другие. Например, смартфон может быть рассмотрен как многофункциональный товар, так как он может выполнять функции телефона, камеры, медиаплеера, навигационного устройства и многого другого.

По ТН ВЭД классификация многофункциональных товаров является важным аспектом. Классификация определяет правильный код товара по ТН ВЭД, который определяет применимые таможенные пошлины, налоги и другие сборы. Она также влияет на правильное определение таможенной стоимости товара и применение соответствующих таможенных процедур.

Правильная классификация многофункциональных товаров по ТН ВЭД является важным шагом для обеспечения соблюдения таможенного законодательства и установленных требований, а также для правильного начисления таможенных пошлин и налогов в Государственному бюджету.

Правильная классификация кода ТН ВЭД для многофункциональных товаров позволяет точно определить применимые ставки и избежать неправомерного уплаты или недоплаты таможенных платежей. Помогает обеспечить соблюдение таможенных правил и защищает экономической безопасности страны. Различные товары могут подпадать под разные правила и требования, такие как сертификация, лицензирование или специальные разрешения. Правильная классификация помогает установить соответствующие правила и требования для товара. Правильная классификация товара упрощает таможенные процедуры, такие как оформление таможенной декларации и прохождение таможенного контроля. Таможенные органы могут легче и быстрее обработать товары, если они правильно классифицированы [6, 7].

В целом, правильная классификация кода ТН ВЭД для многофункциональных товаров является необходимым условием для соблюдения таможенных правил, определения таможенных платежей и облегчения таможенных процедур. Она также способствует прозрачности и точности статистических данных внешней торговли [7,8].

Правильная классификация многофункциональных товаров по ТН ВЭД может быть сложной из-за нескольких факторов:

1. Многообразие функций: Многофункциональные товары обычно имеют несколько различных функций или возможностей. Это может создавать сложности при определении основной функции товара и его соответствующего товарного кода по ТН ВЭД.

2. Технические характеристики: Многофункциональные товары могут иметь различные технические характеристики, такие как размеры, мощность, вес и другие параметры. Эти характеристики могут влиять на правильную классификацию товара и определение кода по ТН ВЭД.

3. Инновации и новые технологии: Многофункциональные товары часто основаны на инновационных технологиях и новаторских решениях. Это может создавать сложности,

поскольку таможенные органы могут не иметь достаточного опыта или информации о новых продуктах и их классификации.

4. Интерпретация таможенных правил: Таможенные правила и регуляции могут быть подвержены различной интерпретации. Разные таможенные органы или эксперты могут иметь разное понимание правил классификации, что может привести к различным результатам при классификации многофункциональных товаров.

5. Обновление таможенной классификации: Таможенные органы периодически обновляют и изменяют свои классификационные системы и ТН ВЭД. Это может создавать сложности, поскольку многофункциональные товары могут не иметь явного соответствия в существующих классификационных системах.

По ТН ВЭД многофункциональные товары могут быть классифицированы на основе различных критериев. Некоторые из них включают: [9, 10].

- **Функциональное назначение:**

Товары могут быть классифицированы в соответствии с их основным функциональным назначением. Например, электронные устройства могут быть классифицированы как компьютеры, телефоны или планшеты.

- **Материалы и состав:**

Классификация может основываться на материалах, из которых изготовлен товар. Например, одежда может быть классифицирована в зависимости от типа ткани или материала.

- **Технические характеристики:**

Товары могут быть классифицированы на основе их технических характеристик, таких как мощность, размеры, вес и другие параметры.

- **Использование:**

Классификация может основываться на предполагаемом использовании товара. Например, автомобили могут быть классифицированы как легковые, грузовые или специальные транспортные средства.

- **Торговая марка или модель:**

Некоторые товары могут быть классифицированы на основе их торговой марки или модели. Например, электроника может быть классифицирована по бренду или модели устройства с помощью детализации технических особенностей были разработаны и рекомендованы для практики новых национальных десятизначных кодов товара ТН ВЭД;

Таким образом, В целях совершенствования механизма обеспечения целостной связи между описанием товаров, товарным кодом и таможенными ставками в практику таможенного комитета внедрены четырехступенчатые методы классификации, разработанные для многофункциональных товаров, относящихся к товарной позиции 8403 ТН ВЭД. В результате стало возможным скоординировать интеграцию 4-х ступенчатого метода классификации контроля формы, метода логического контроля проверки 31 графы с 33 графой Грузовой таможенной декларации;

Важно отметить, что классификация многофункциональных товаров по ТН ВЭД может быть сложной и требует учета нескольких факторов, правильная классификация товара имеет большое значение для начисления таможенных пошлин и налогов, предложенные новые товарные коды ТН ВЭД позволили обеспечить полный сбор

таможенных пошлин, точное ведение таможенной статистики, а также обеспечение национальной экономической безопасности страны.

REFERENCES

1. Marina. G.Burns. Logistics and Transportation Security A Strategic, Tactical and Operational Guide to Resillience // CRC Press Reference. – 2015.
2. О.А.Овсянникова. Направления совершенствования таможенного регулирования. - Москва. 30.11. 2017 г. Вестник РТА. - № 11. - С. 3-17.
3. Учебно-справочное пособие по классификации товаров в соответствии с ТН ВЭД РФ.- М.: ДГУП «Ростаможинформ», 2001. -310 стр.
4. Особенности классификации товаров по ТН ВЭД. Серия «Таможня и Право». – СПб.: «ТИРЕКС», 2002. - 212 стр.
5. Пояснения к единой Товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности Содружества Независимых Государств на основе шестого издания Гармонизированной системы описания и кодирования товаров, <https://сustoms.gov.ru/участникам-вед>.
6. Қадиров Ф.А., Ташмухамедов Р.Р., Абдуганиев Б.Ё., Иняминов А.Э. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан (версия 2022 года). -Т.: - ООО «REN-Poligraf», 2022. - 656 стр.
7. Бен Л., Ирвин Шери Роузнау. Семинар по ГС - Днепропетровск, 2012.
8. К.М. Каримкулов. Упрощение таможенных процедур - требование современного бизнеса. // Таможенное регулирование. Таможенный контроль. –Москва. -№ 10. 2020. – С. 26-35.
9. Учебно-справочное пособие по классификации товаров в соответствии с ТН ВЭД РФ.- М.: ДГУП «Ростаможинформ», 2001. -310 стр.
10. www.kun.uz, www.customs.uz.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARIDA SURXONDARYODA MADANIY HAYOT.

Choriyev S.H.

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasini o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371968>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda surxondaryodagi madaniy hayot haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sovet hukumati, kommunistik partiya, ma'rifatli qilish, sovet davrida madaniy muassasalar, madaniyat uylari.

CULTURAL LIFE IN SURKHANDARYA IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR.

Abstract. This article talks about cultural life in Surkhandarya in the years after the Second World War.

Key words: Soviet government, communist party, enlightenment, cultural institutions in the Soviet era, houses of culture.

КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ СУРХАНДАРЬИ В ГОДЫ ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.

Аннотация. В данной статье рассказывается о культурной жизни Сурхандарьи в годы после Второй мировой войны.

Ключевые слова: советская власть, коммунистическая партия, просветительство, учреждения культуры в советское время, дома культуры.

Sovet hukumati tomonidan qator dasturlarida qabul qilingan aholini "ma'rifatli qilish" vazifalarini amalga oshirishda maktabgacha tarbiya, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidan tashqari, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy ta'lim muassasalar tarmog'i; kutubxona, klub, kinoteatrlar oldiga bir qator mafkuraviy harakterdagi mas'uliyatli talablar qo'yilib, madaniy-oqartuv ishlari kommunistik partiya tashkilotining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirildi. Madaniy-oqartuv muassasalari hukmron partiyaning tashviqot va targ'ibot olib boruvchi qudratli quroli sifatida keng xalq ommasi ongiga kommunistik mafkurani singdirishga xizmat qildi.

Mafkuraviy-g'oyaviy ahamiyati kuchli bo'lgan madaniy-ma'rifiy va oqartuv muassasalar faoliyatiga sovet davlati ahamiyat bilan qarab uning shu faoliyatini yaxshilash va ish jarayonini tartibga solish maqsadida taxlil etilayotgan yillarda bir qator qarorlar qabul qildi. Jumladan, 1946 yil 12 martda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti "O'zbekiston SSRda madaniy-oqartuv muassasalar ishini yaxshilash tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilib, unda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalarini tasdiqladi⁶⁹. O'zbekistonda sovet davrida madaniy muassasalar o'z faoliyatini barcha davlat va jamoa xo'jaliklari va shahar va tuman markazlarida faol amalga oshirdilar.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetning 1948-yil 17-noyabrdagi №2186 qaroriga ko'ra O'zbekiston SSR hududida faoliyat ko'rsatayotgan madaniy muassasalar faoliyati yaxshi olib

⁶⁹ Нурмухамедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б.47; Қизил Ўзбекистон. 1947 йил 13 март.

borilmayotganligi va har bir muassasaga lektor belgilash kerakligi to'g'risida qaror chiqarildi. Bu qararning 1-ilovaga ko'ra qishloq va rayonlarda 400 lektor tashkil etilishi belgilandi, madaniy oqartuv muassasalari, maktablar va kutubxonalarini yetuk lektorlar bilan taminlanish belgilandi. Radio eshittirishlar orqali haftasiga ikki marta ilmiy-maorif mavzularida eshittirishlar tashkil etilishi kerakligi aytili. 2-ilovasida esa klub, madaniyat uylari, qiroatxonalaridagi ishlarning g'oyaviy-siyosiy mazmuni yuksaltirish, klub va madaniyat uylarida siyosiy, umumiy ma'lumot to'garaklari va havaskorlik to'garaklari muntazam ishlashi va shu asosda 1500 badiiy to'garaklar tashkil etilishi be'lgilandi. Madaniyat muassasalari esa kerakli moddiy ta'minot bilan ta'minlash, Termiz va boshqa shaharlarda 1948-yil 1-dekargacha xotin-qizlar to'garaklari tashkil qilish belgilandi.⁷⁰

O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1949-yil 17-noyabrdagi 2186-sonli "O'zbekiston SSRda madaniy-ma'rifiy muassasalar ishlarini yaxshilash to'g'risida"gi qarorida mazkur muassasalar ishida bir qator kamchiliklar Surxondaryo viloyatida kuzatilgan. Viloyatimizning bir qator tumanlari, jumladan Sho'rchi, Uzun, Sariosiyo tumanlarida, shuningdek okrug ijroiya qo'mitasida hududdagi madaniy-ma'rifiy ishlarning ahvoli to'g'risidagi masalani besh yarim yil moboynda bir marotaba ham muhokama qilishmagan. Bundan tashqari viloyat va qishloq kutubxonalarini kitob targ'ibotining yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Shu vaqtgacha Sho'rchi tumanidagi kolxoz klublaridan birortasi, Uzun tumanidagi "Yangi kuch", "Yangi bog'", "Qizil g'uncha" kabi kolxoz klublariga qishloq soveti va kolxozlar tomonidan yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi sababli yopilgan. Olti oy davomida Uzun tumanidagi qishloq kutubxonasi mudiri Musaev Telpak-Chinor qishloq kengashi raisining o'rinbosari lavozimida ishlagan, ammo kutubxona ishi yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Shuningdek, Sho'rchi tumanida Qarluq qishloq kengashiga qarashli qishloq kutubxonasi mudirining ish haqi Qishloq Kengashi qorovuliga to'lanib kelinganganligi. Termiz o'lkashunoslik muzeyi aholining madaniy ehtiyojlarini qondira olmasligi alohida ta'kidlab o'tilgan⁷¹.

Mazkur qaror asosida viloyatdagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Viloyat ijroiya qo'mitasi tomonidan bir qator chora-tadbirlar belgilab olindi. Jumladan, 1949 yil 1-maydan boshlab tumanlarda madaniyat uyi, kutubxonalar va kolxoz klublari tashkil qilish, 24 ta ma'ruzalar va aholi o'rtasida kamida 2500 ta suxbatlar o'tkazish, to'garaklar sonini 100 taga yetkazish, kolxoz-sovxoqlarda kutubxonalar sonini 80 taga yetkazish hamda ularning kitob fondi kamida 150 dona kitobdan ortiq bo'lishini ta'minlash kabi chora tadbirlar belgilab olindi⁷².

Urushdan keyingi yillarda Surxondaryoda ham barcha madaniy-muassasalari faoliyat ko'rsata boshladi. 1947 yilda Denov shahrida madaniyat uyi hashar yo'li bilan qurildi. Ushbu madaniyat uyining ochilishida taniqli san'atkorlarimiz Tamaraxonim, X.Nosirovalar qatnashdilar. Madaniyat uyi qoshida "O'zbek ashula va raqs" ansambili va teatr to'garaklari ish boshladi. To'garaklarda o'zbeklar, tojiklar, ruslar, armanlar, tatarlar va turli millat vakillari a'zo bo'lgan. Tahlil qilinayotgan yillarda butun sovet mamlakatlarida bo'lgani kabi Surxondaryoda ham klub muassasalari soni bir qadar oshgan bo'lsa-da, ularning moddiy ta'minot darajasi esa yaxshi ahvolda emas edi. Klublardagi tomosha zallari zarur asbob-uskuna zamonaviy texnika vositalari

⁷⁰ Сурхондарё вилояти Шеробод давлат архви. Фонд-54,1.рўйхат,5-иш, 9-13 варақлар.

⁷¹ ЎзМА, Р-837-фонд, 33-опис, 2556-йиғма жилд, 270-271 варақлар.

⁷² ЎзМА, Р-837-фонд, 33-опис, 2556-йиғма жилд, 271-272 варақлар.

bilan yetarli darajada jihozlanmadi. Ko'p holatlarda mavjud klub binolaridan boshqa maqsadlarda ham foydalanildi.

Sovet hokimiyati tomonidan kommunistik partiyaning g'oyalari majburan xalqimiz ongiga singdirildi. Shu jumladan Surxondaryo viloyat Madaniyat boshqarmasi 1956 yil 26 iyulda № 140 buyrug'iga asosan mafkuraviy ishlar darajasini ayniqsa yoshlar o'rtasida oshirish maqsadida keng ko'lamda KPSS MK XX se'zdi materiallarini tushuntirishni kuchaytirish, singdirish maqsadida **birinchidan:** klublar, madaniyat uylarida, kutubxonalarda, madaniyat va istirohat bog'larida, kolxoz-sovxozlarda ijtimoiy-siyosiy, tabiiy, ilmiy, badiiy-adabiy mavzularda tizimli ma'ruzalar tashkil etish; **ikkinchidan:** ommaviy yoshlar sayillari, adabiy kechalar, korporativ tadbirlar belgilandi Bu tadbirlar, kechalar orqali yoshlarga kommunistik g'oyalar singdirildi⁷³.

Madaniy muassasalar maxsus topshiriqlar asosida tadbirlar uyushtirdi va dastur ishlab chiqdi. Tadbir 1956 yilning 26-27 avgust kunlari "Hosil kuni" mavzusida o'tkazildi. Madaniy muassasalar turli hududlarda: Termizda, Denovda, Angorda va boshqa hududlarda o'tkazdi. Savet davrida Surxondaryoda ham madaniy muassasalarga bo'lgan e'tibor kuchayib, 1956 yilda Denov madaniyat uyining qoshida O'zbek teatr to'garagi tashkil etilib va sovet g'oyalarini tarannum etuvchi spektakllar qo'yila boshlandi. Bu teatr ajoyib chiqishlari bilan xalqning mehrini qozondi. 1959 yili Buxoroda o'tkazilgan "Rus xalq teatrlari" ko'rik tanlovida "Taqdir" nomli spektakli 1-o'rinni olishga sazovor bo'lgan. Bu teatr 1960 yilda esa "Xalq teartri" unvoniga sazovor bo'ldi⁷⁴.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistondagi barchan kutubxonalar o'z faoliyatlarini sovet tuzumi mafkurasini ulug'lash, tarbiyaviy-g'oyaviy ishlarni yaxshilash va kengaytirish maqsadida turli mavzularda kitob ko'rgazmalari, ma'ruzalar, munozaralar, konferensiya va kechalarni uyushtirishning asosiy tashkilotchilaridan biriga aylandi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948 yil 17 noyabrida qabul qilgan "O'zbekiston SSRda kutubxonalar ishini yaxshilash tadbirlari to'g'risida"gi qarorida respublikaning barcha kutubxonalarida Komunistik partiyaning g'oyaviy-siyosiy mafkurasini targ'ib etish vazifasi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ammo kutubxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, kutubxona fondlarini boyitish, kutubxonalarni milliy an'analar asosida rivojlantirish haqida bir og'iz gapirolmadi.

Sovet hukumati tomonidan kutubxonalar ishini yaxshilashga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilsada, kutubxonalar faoliyatini birdaniga yaxshilanmagan. 1956 yilda Termiz shahar kutubxonasi ilgari vino sotiladigan do'konga joylashtirilganligi yuqoridagi holatga yaqqol misol bo'ladi. Surxondaryo viloyat kutubxonasi joylashgan bino ham aholi orasida keng miqyosida madaniy-oqartuv ishlarini olib borishga qodir emasligi, o'sha davrda ham tanqid ostiga olingan edi⁷⁵. 1959 yilda kolxoz va sovxozlarda yangi kutubxonalar tashkil etish, mavjud kutubxonalar tarmog'ini kengaytirish va kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda kitob fondlaridan barcha aholining foydalanishini ta'minlashga qaratildi. Surxondaryo viloyati yirik kutubxonalari kitob fondlari aholiga keng ravishda ochib qo'yildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, madaniy-oqartuv muassasalari moddiy-texnika bazasi yaxshi bo'lmasa-da, madaniy hayotning asosiy ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lib, xalqning ma'naviyatini yuksaltirishda ijobiy ishlarni amalga oshirilgan.

⁷³ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 454-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 12-варақ.

⁷⁴ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 454-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 15-16-варақ.

⁷⁵ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 89-фонд, 5-рўйхат, 8-иш, 61-варақ.

REFERENCES

1. Нурмухамедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б.47; Қизил Ўзбекистон. 1947 йил 13 март.
2. Сурхондарё вилояти Шеробод давлат архви. Фонд-54,1.рўйхат,5-иш, 9-13 варақлар.
3. ЎзМА, Р-837-фонд, 33-опис, 2556-йиғма жилд, 270-271 варақлар.
4. ЎзМА, Р-837-фонд, 33-опис, 2556-йиғма жилд, 271-272 варақлар.
5. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 454-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 12-варақ.
6. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 454-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 15-16-варақ..
7. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 89-фонд, 5-рўйхат, 8-иш, 61-варақ.
8. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
9. Rahmonov, M. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 341-344.
10. To‘Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG‘LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.
11. Shukurova S. M. et al. TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOG ‘IDA MAVJUD BO ‘LGAN XAVFSIZLIK MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNI TADQIQ ETISH //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 71-80.

UDK.634.2

**STIMULYATORINI SUSPENZIYA BILAN QO'LLASHDA G'O'ZANING
O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILIGA TA'SIRI.**

Safarova Nilufar Rustambayevna

Toshkent davlat agrar universiteti asistenti. nilufar@mail.ru

Tuxtayev Soatmurod Boysari o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti. soatmurod@gmail.ru

Hamroyeva Sug'diyona O'ktam qizi

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti. sug'diyona@com.uz

Nazarboyeva Munira Farid qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371980>

***Annotatsiya.** Respublikamizda aholi sonining ko'payishi hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi, kam xarajat qilib yuqori hosil olish va iqtisodiy samaraga erishish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholini yetarlicha ta'minlash bilan birga paxtachilikda ertapishar, serhosil, tashqi stress omillarga, kasallik va zararkunandalarga bardoshli yuqori va sifatli tola yetishtirishda yangi o'sishni sozlovchi moddalar bilan ishlov berish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining 3.3 bandida "...qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy o'sishni sozlovchi preparatlarni qo'llash agrotexnologiyalarini joriy etish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlashda yangi o'sishni sozlovchi moddalarni qo'llashning maqbul me'yorlari hamda muddatlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ham dolzarb hisoblanadi.*

***Kalit so'zlari:** Paxta hosili unib chiqishi, g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi suspenziya qullash.*

**INFLUENCE ON THE GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF COTTON
WHEN USING THE STIMULATOR WITH A SUSPENSION**

***Abstract.** In our republic, the increase in the population and the increase in the demand for food products, obtaining a high yield at low cost and economic efficiency, as well as providing the population with sufficient food products, in cotton cultivation, early, fertile, external stress factors, disease and the development of agrotechnologies of treatment with new growth regulators in the cultivation of high and quality fiber that is resistant to pests is one of the urgent issues. Paragraph 3.3 of the Action Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 states "... consistent development of agricultural production, strengthening of the country's food security, expanding the production of environmentally friendly products, modern important tasks such as "introduction of agrotechnologies of application of swelling-regulating preparations" are defined. On this basis, it is also important to carry out scientific research on the development of optimal standards and periods of use of new growth regulators in the care of agricultural crops.*

***Keywords:** Germination of cotton crop, cotton growth, development, suspension cultivation.*

ВЛИЯНИЕ НА РОСТ, РАЗВИТИЕ И УРОЖАЙНОСТЬ ХЛОПКА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ СТИМУЛЯТОРА С СУСПЕНЗИЕЙ

Аннотация. В нашей республике увеличение численности населения и увеличение спроса на продукты питания, получение высокого урожая при низких затратах и экономической эффективности, а также обеспечение населения достаточным количеством продуктов питания, в выращивании хлопка раннего, плодородного, внешнего стрессовые факторы, болезни и разработка агротехнологий обработки новыми регуляторами роста при выращивании высококачественного и устойчивого к вредителям волокна является одной из актуальных проблем. В пункте 3.3 Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 годы указано «...последовательное развитие сельскохозяйственного производства, укрепление продовольственной безопасности страны, расширение производства экологически чистой продукции, современные важные задачи, такие как определены «внедрение агротехнологий применения препаратов, регулирующих набухание». Исходя из этого, важно также проведение научных исследований по разработке оптимальных норм и сроков применения новых регуляторов роста при уходе за сельскохозяйственными культурами.

Ключевые слова: Прорастание урожая хлопка, рост хлопка, развитие, суспензионное возделывание.

Kirish. Dunyo qishloq xo'jaligida o'tgan asrning 30-40 yillariga kelib o'simliklarni parvarishlashda AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Avstraliya kabi davlatlarda o'sishni sozlovchi moddalarga bo'lgan extiyoj ortib, hozirgi kunda jahon bozoridagi talab 2241 mln. AQSh dollariga tengdir. Bu esa dunyo qishloq xo'jaligida mahsulotlar yetishtirishda o'sishni sozlovchi moddalardan keng foydalanilayotganini bildiradi. O'sishni sozlovchi moddalar nafaqat o'simliklarni o'sishini boshqaradi, shu bilan birga tuproqning unumdorligini saqlash va oshirishda kechadigan agrokimyoviy jarayonlarni tezlashtiradi hamda yaxshilaydi.

Dunyoda iqlimning global o'zgarishi hamda yildan yilga ob-havoning noqulay sharoitlarda o'simliklarni parvarishlashda o'sishni sozlovchi moddalarni ilmiy asoslangan holda qo'llash ijobiy natijalar bermoqda. Bunda, ob-havo noqulayliklari, suv taqchilligi, zararkunandalar va turli kasalliklarning ko'payishi uchragan mavsumda o'sishni sozlovchi moddalar bilan ishlov berishni ilmiy asoslash natijasida nihollarning unib chiqish hamda o'sish rivojlanishida fiziologik jarayonlarning tezlashishi, o'simliklarning fotosintez mahsuldorligi ortishi, tashqi stress omillarga, kasallik va zararkunandalarga bardoshlilik oshishi, ertagi, yuqori va sifatli hosil olish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi ortib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini bermoqda.

Keyingi yillarda respublikamiz sharoitida turli fiziologik faol moddalar bilan chigitga va g'o'za vegetatsiyasi davrida o'simlikka ishlov berilganda nihollar unib chiqishi tezlashib, bir tekis va sog'lom unib chiqishi, kasalliklarga chidamliligi ortishi, ildiz tizimi baquvvat rivojlanishi, o'sishi va rivojlanishi jadallashib, paxta hosili va tolasining sifati yaxshilanishi bo'yicha qator tadqiqotlar o'tkazilgan

Shu yo'nalishdagi ishlardan biri 2017-2020 yillarda Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida olib borildi va bunda Rossiyada ishlab chiqarilgan, ta'sir etuvchi moddasi araxidon kislotasi bo'lgan yangi Bioduks stimulyatorining g'o'zadagi samaradorligi o'rganildi.

Tadqiqotlar PSUEAITI tajriba dalalarida o‘tkazilib (Toshkent viloyati Qibray tumani), tajriba variantlari 4 qatorli, g‘o‘za qator orasi 80 sm, variantlar eni 2,6 m, bo‘yi 28 m, tajriba maydoni 80 m² ni tashkil qilib, 3 qaytariqda, joylashtirildi. Tajribada g‘o‘zaning Andijon-37 navi ekildi. Bioduks stimulyatori bilan chigitga ekish oldidan namlash davrida 2,0-3,0-4,0 ml/t me‘yorlarda ishlov berilib, g‘o‘zaning gullash davrida 3,0 ml/ga me‘yorda qo‘l purkagichda sepildi. Taqqoslash uchun etalon sifatida Gumimaks stimulyatori bilan chigitga 0,9 l/t va gullash davrida 0,4 l/ga me‘yorlarda ishlov berilgan hamda umumiy nazorat variantlari olindi

1-jadval

№	Tajriba variantlari	Chigitga ekish ishlov berish vaqti	G‘o‘zaning gullashdan oldin ishlov berish me‘yori
1	Nazorat	Ishlov berilmaydi	
2	Gumimaks	0,9 l/t	0,3 l/ga
3	Bioduks	3,0 ml/t	2,0 ml/ga
4	Bioduks	4,0 ml/t	2,0 ml/ga
5	Bioduks	5,0 ml/t	2,0 ml/ga

O‘tkazilgan tajribada chigitga ekish oldidan Bioduks stimulyatori bilan ishlov berilganda, chigitning dala unuvchanligi g‘o‘za navining biologik xususiyati va ob-havo sharoitiga bog‘liq holda turli ko‘rsatkichlarni namoyon qilgan. Dala sharoitida chigit unuvchanligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan birinchi kuzatuvda nazorat variantida unuvchanlik darajasi 45,4% ni tashkil etgan bo‘lsa, Bioduks bilan ishlov berilgan variantlarda bu ko‘rsatkich 48,2-50,2% ekanligi kuzatilgan.

Ta’kidlash lozimki, birinchi kuzatuvdayoq Bioduks stimulyatori bilan ishlov berilgan variantlarda unuvchanlik ko‘rsatkichi nazorat variantiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Shuning bilan birga Bioduks stimulyatori bilan ishlov berilgan variantlarda chigit unuvchanligi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar keyingi muddatlarda o‘tkazilgan kuzatuvlarda

Tajribada Bioduks stimulyatorini g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlash maqsadida davriy ravishda o‘simlik holati biometrik kuzatuvlar orqali o‘rganilib borildi. Bunda, chigitga hamda g‘o‘zaning rivojlanish davrida Bioduks stimulyatori bilan ishlov berilgan variantlarda o‘simlikning o‘sishiga qulay sharoit yaratilishi sababli, uning ijobiy ta’siri namoyon bo‘ldi deb hisoblaymiz

G‘o‘zaning gullash va hosil tugish davrlarida o‘tkazilgan kuzatuvlarda Bioduks bilan chigitga va g‘o‘zaning o‘suv davrida turli me‘yorlarda ishlov berilganda nazoratga nisbatan o‘simlik bo‘yi va hosil elementlari to‘planishi maqbullashgani va yuqori ko‘rsatkichlar olingani aniqlandi.

G'ozaning o'suv davri oxirida 2 sentabrda o'tkazilgan kuzatuvda Bioduks stimulyatori bilan chigitga 4,0 ml/t va gullash davrida 3,0 ml/ga me'yorda ishlov berilgan variantda o'simlik bo'yi 98,2 sm, hosil shoxlari

15,0 dona, ko'saklar soni 12,6 dona bo'lgani holda bu ko'rsatkichlar nazorat variantida mos ravishda 89,5 sm, 15,8 va 8,9 donani tashkil etib, Bioduks ta'sirida g'ozaning bo'yi 8,1 sm, hosil shoxlar soni 1,4 donaga va ko'saklar soni 1,9 donaga ko'proq bo'lganligi kuzatildi.

Paxta terimi oldidan 19 sentabrda o'tkazilgan kuzatuvda ko'saklarning ochilish darajasi aniqlandi. Bunda nazorat variantida ochilgan ko'saklar soni 3,7 donani yoki 36,4% ni tashkil etgan bo'lsa, Bioduks stimulyatori bilan turli me'yorlarda ishlov berilgan variantlarda 4,8-5,5 dona yoki 44,1-48,1% ga teng ekanligi hamda nazorat variantiga nisbatan ko'saklarning ochilish darajasi 8,1-1,7% ga tezlashgani kuzatildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Toshkent viloyati sharoitida chigitni ertagi va sog'lom undirib olish, kasalliklardan himoya qilish, g'ozaning o'sishi va rivojlanishini avjlantirish, yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirish uchun Natriy gumat, Obereg', Fitovak, Bioduks va Zamin-M stimulyatorlarini qo'llashning maqbul me'yorlari va muddatlari ishlab chiqilgan. G'ozaga parvarishida yangi stimulyatorlarning maqbul me'yor va muddatlarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari o'rganilgan.

Mamlakatimizda chigitga o'stiruvchi moddalar bilan ishlov berish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan, ularni qo'llash me'yorlari va muddatlari bo'yicha tavsiyalar berilgan, quyida ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

T.Abduraxmonov, A.Normuxammedovlar [54; 10 b.] ta'kidlashicha, Oksigumat stimulyatori qo'llanilganda ekstremal sharoitlar: issiq va past haroratda, suv taqchil qurg'oqchilikda va sho'rlangan tuproqlarda, nitrat va zaharli ximikatlar to'plangan joylarda hamda har xil kasalliklarning o'simliklarga nojo'ya ta'sirini kamaytirishda yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi.

B.Muxammadiev, Sh.Abdualimovlar [81; 10 b.] tomonidan Xorazm viloyati sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarda urug'lik chigitni ekish oldidan o'stiruvchi moddalar: Vitavaks 200 FF, T-86, GMK bilan ishlov berilganda, chigitning unib chiqishi tezlashgan, g'ozaning o'sish-rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilgan hamda 1,7-2,9 s/ga qo'shimcha hosil olingan. B.Muxammadiev, Sh.Abdualimovlar [80; 396-398 b.] ning ilmiy manbalarida keltirilishicha o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida chigitga turli stimulyatorlar bilan ishlov berilganda nihollarning unib chiqishi tezlashib, g'ozaning o'sib rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilgan.

K.M.Tadjievning [98; 256-258 b.] tajribalarida chigitga Vitaros, Bronopol va P-4 preparatlari bilan ishlov berilganda, yosh nihollarni ildiz chirish va gommoz kasalliklaridan himoya qilish bilan birgalikda o'sishi va rivojlanishini tezlashib, mo'l va sifatli hosil olish imkonini bergan.

K.M.Tadjiev [95; 258-261 b.] ning ilmiy tadqiqotlarida Surxondaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doydan keyin takroriy ekin sifatida ekilgan g'ozaga Oksigumat stimulyatori shonalash va gullash davrlarida 0,5 l/ga qo'llanilganda, ko'sakdagi paxta vazni va hosildorlik oshganligi keltirilgan. Hozirgi kunda paxtachilikda ko'plab innovatsion texnologiyalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotda keng joriy etilmoqda. Ma'lumki, har bir yangi ilmiy ishlanma iqtisodiy samara bersagina, keng joriy etishga tavsiya etiladi. Shu sababli ilmiy tadqiqotlarda va ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan tajribalar natijalari asosida Natriy gumat, Obereg', Fitovak, Bioduks va

Zamin-M kabi kimyoviy va mikrobiologik asosli yangi stimulyatorlarni paxtachilikda qo'llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash. Hisoblashlar natijalariga ko'ra, Natriy gumat, Obereg' va Fitovak stimulyatorlari qo'llanilgan tajribaning nazorat variantida o'rtacha 3 yilda olingan paxta hosili 29,1 s/ga ni tashkil etib, yil davomida agrotexnik tadbirlarga gektariga 4500000,0 so'm sarflangan holda, yetishtirilgan va samaradorlikka erishilgan.

Xulosa.

Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari va noqulay tabiiy iqlim sharoitida chigitni sog'lom va ertagi undirib olish, kasalliklarga bardoshligini oshirish, g'o'zaning o'sishi va rivojlanishini jadallashtirish, paxtaning erta pishib yetilishini ta'minlash va yuqori hosil yetishtirishda Natriy gumat, Obereg', Fitovak, Bioduks va Zamin-M kabi kimyoviy va biologik asosli yangi stimulyatorlarni chigitga ekish oldidan va g'o'zaning o'suv davrida qo'llashning ilmiy va amaliy ahamiyati aniqlangan. G'o'zaning Navro'z va Andijon-37 navlari chigitga ekish oldidan va shonalash-gullash davrlarida Natriy gumat, Obereg', Fitovak, Bioduks va Zamin-M stimulyatorlari bilan ishlov berilganda o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bo'yi 3,6-10,7 sm balandroq, hosil shoxlar soni 0,9-2,6 donaga va ko'saklar soni 0,4-1,9 donaga ko'proq bo'lgani holda ko'saklarning ochilish darajasi 4,5-13,7% tezlashgan. Shuning bilan birgalikda Zamin-M qo'llanilganda g'o'zaning hosil elementlari to'kilishi 5,2-11,9% gacha kamaygani aniqlangan.

REFERENCES

1. Abduraxmonov T., Normuxammedov A. Oksigumat "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. Toshkent. 2007. № 6. B.10.
2. Muxammadiev B., Abdualimov Sh. "Vitovaks-200 FF qo'llanilganda chigitning unib chiqishi va g'o'za hosildorligi". Fermer xo'jaliklarida Paxtachilik va g'allachilikni rivojlantirishning ilmiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari asosidagi maqolalar to'plami. Toshkent. 2006 y. 396-398 b.
3. Tadjiev K.M. "Biostimulyatorni qo'llab takroriy ekilgan g'o'zadan yuqori va sifatli hosil yetishtirish". O'zbekiston Paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining 80 yilligiga bag'ishlangan "Paxtachilikdagi dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari asosidagi maqolalar to'plami. Toshkent. 2009 y. 258-261 betlar. Shamsiddinov F.R., Abdualimov.Sh.H. Namangan viloyati sharoitida Gumimaks stimulyatorining g'o'zadagi samaradorligi. G'o'za va g'o'za majmuidagi ekinlarni parvarishlash agrotexnologiyalarini takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari asosidagi maqolalar to'plami. O'zPITI. -Toshkent, 2013. -B.169-172.
4. Murodova S.S. Mahaliy rizobakteriyalar shtammlari asosida g'o'zaning stress sharoitlarga chidamliligini oshiruvchi yangi, raqobatbardosh mikroba preparatlarini yaratish va ularning amaliy ahamiyatini baholash. Biologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2018. -B. 24.

LEONARDO DA VINCHING HAYOT VA IJODIGA TARIXIY NAZAR

Vahidov Suxrobjon Olimjon o'g'li

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Barkamol avlod"
respublika bolalar maktabi Hududlar bilan ishlash va monitoring qilish
bo'limi uslubchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8372058>

Annotatsiya. Italiyadagi uyg'onish davri mutaffakkirlari hayoti eng chigal tarixiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu olimlarning hayoti to'la yoritilmagan. Yoritilganlari esa to'liq emas. Leonardo da Vinchi shunday tarixiy shaxslardan biri bo'lib, mazkur maqolada uning hayoti va ijodini o'rganish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Yevropa, Italiya, Leonardo da Vinchi, inkvizitsiya, san'at, rassomchilik.

A HISTORICAL VIEW OF THE LIFE AND WORK OF LEONARDO DA VINCI

Abstract. The life of Renaissance thinkers in Italy represents one of the most complex historical problems. Because the lives of these scientists are not fully illuminated. Those described are not complete. Leonardo da Vinci is one such historical figure and this article aims to explore his life and work.

Keywords: Europe, Italy, Leonardo da Vinci, Inquisition, art, painting.

ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ЖИЗНИ И ТРУДА ЛЕОНАРДО ДА ВИНЧИ

Аннотация. Жизнь мыслителей Возрождения в Италии представляет собой одну из сложнейших исторических проблем. Потому что жизнь этих ученых освещена не полностью. Те, что описаны, не являются полными. Леонардо да Винчи – одна из таких исторических фигур, и данная статья призвана изучить его жизнь и творчество.

Ключевые слова: Европа, Италия, Леонардо да Винчи, инквизиция, искусство, живопись.

KIRISH

Yevropada uyg'onish davrining yirik mutaffakkirlaridan hisoblangan Leonardo da Vinchi 1452-yil 15-aprelda Toskanada tavallud topadi. Uning otasi Pyero da Vinchi o'z davrining mashhur insonlaridan edi. Vinchilar oilasi tarixi XIII asrga borib taqalib, otasi shu oiladan chiqqan notarius edi. Pyeroning ko'pgina farzandlari nikohsiz dunyoga kelardi. Bu ko'pincha xizmatkorlardan dunyoga kelardi. Bu bolalarga xuddi qonuniy farzanddek muomalada bo'lardi. Atrofdagilar ham bunga ko'z yumardilar [1].

Leonardo tavallud topishi bilan uni otasi darhol tan olgan va cherkovda cho'qintirilgan. Dastlab oilada u ham istiqomat qilgan, ammo tez orada uni Katerina bilan birgalikda Vinchi shaharchasidan uncha uzoq bo'lmagan Axiano shaharchasiga yashashga jo'natiladi. O'sha joyda to'rt yil Leonardo onasi bilan istiqomat qiladi. Leonardoga to'rt yarim yosh bo'lganda uni otasi onasidan ajratib olib o'zining oilasiga qo'shadi. Endi u otasining uyida istiqomat qila boshladi. Ammo 1457-yili Leonardo Pyeroning noqonuniy o'g'li deb e'lon qilindi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Leonardoning bolalik yillari to'g'risida ma'lumot juda kam. U bolalik yillarida asosan botanika, geologiyaga qiziqqan bo'lsa, qushlarning parvozini kuzatishni xushlagan. Bu shuni ko'rsatadiki, Leonardoning yoshlik yillari asosan ochiq havoda shahar ko'chalarini kezgan holda o'tgan. Monte Albano tog'ining etagida Leonardoning yoshligi kechgandi. Uning bolaligi Arno

vodiysida o'tgan edi. Bu vodiy ushbu tog'ning etagidagi juda havobaxsh vodiy hisoblanadi. Arno vodiysidan Florensiyaning joylashuvi aniq ko'rinib turadi. Arno vodiysi tasviri ham Leonardoning ijodi cho'qqilaridan biri hisoblanadi. U 1473-yilda chizilgan tasvirdir.

Leonardoning o'z qo'lyozmalari ham mavjud bo'lib 7 ming varoqdan iborat kundalik va tasvirlar, chizmalar mavjud bo'lib, bugungi kungacha yetib kelgan. Ammo ushbu kundalik chizmalarda ham shaxsiy hayotga oid ma'lumotlar juda kam hisoblanadi. Ayniqsa, bolalik yillari haqida umuman ma'lumot mavjud emas. Shaxsiy ma'lumotlardan faqat bolaligining ma'lum qismi o'tgan Anxiano shahrigina qayt etilgan. Demak, Leonardo bolaligi haqida asosan rasmlar orqaligina ma'lumotlarni qoldirgan hisoblanadi. Bu rasmlar orqali uning bolaligi o'tgan hududlarni bilib olish mumkin.

Leonardoning muvaffaqiyatlari faqatgina rassomchilik bilan emas, balki, inson faoliyatidagi boshqa sohalar bilan ham bog'langandir. Ammo sermahsul bo'lish bilan birgalikda u yana bir ish bilan uzoq mashg'ul bo'lishi ham mumkin edi. Masalan yeti yil davomida bor yo'g'i o'n ikkita rasm yaratgani yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Uning asarlarini o'rganuvchilar bir necha guruhlariga bo'linadi. Ulardan biri asarlar tarixini o'rganuvchilar guruhi bo'lsa, ikkinchi guruh kritik analizchilar hisoblanishadi. Bu guruh vakillari o'z navbatida Leonardo da Vinchi ijodini ijodiy tahlil qiladilar. Yani yaratilgan asarning qiymati, mavzusi, bezaklari, mazmuni haqida baxs-munozara olib boradilar. XXasrning ikkinchi yarmiga kelibgina Leonardoningijodini to'liq o'rganish uchun keng yo'l ochildi va qator ilmiy izlanishlar olib borildi [3].

Leonardo haqida Vazari o'zining qaytalarida: «Leonardo men aytganidek, bolaligida messer Pyero tomonidan o'qitish uchun Andreo del Verokkioga beradi. Verokkio bir qancha vaqt o'qitganidan so'ng Leonardoga o'zining bir suratida farishtani chizishni topshirgan. "Isoning cho'qintirilishi" asarida shu farishta tasvirlanishi kerak edi. Ushbu suratda Isoni cho'qintiruvchi Ioann tomonidan cho'qintirish marosimida farishta obrazini yaratish yosh Leonardoning zimmasiga tushadi. U jada ham yosh edi. Ammo surat kutilganidan shu darajada ajoyib chiqdiki, qolgan Andreo tomonidan bajarilgan suratdagi siymolardan ko'ra ushbu farishta obrazi alohida ajralib turar edi. Shu voqeadan so'ng Andreo Verokkio qaytib bo'yoq va qalam ushlaymay qo'yadi. Ushbu holat san'at tarixidagi eng mashxur kulgili voqeaga aylanadi va bu haqda barcha san'atkorlar xabardor edilar. "Cho'qintirish"dagi ushbu holatni Vazari yana boshqacha ham talqin qiladi [4].

Andreo Verokkio o'z davrining yani XV asrning eng mashxur ijodkorlaridan biri edi. Yirik ko'rinishlarni o'z asarida juda yorqin ranglar bilan talqin qilib bera oladi. Uning asarlaridagi siymo ortida o'ziga xos manzara joylashgan bo'lar edi. Masalan, daraxtlar, ishlayotgan mehnatkash dehqonlar, fonda bu juda ajoyib ko'rinishga ega bo'lar edi. Tepaliklar va tog'lar fonda o'ziga xos ahamiyat kasb etardi. Shuning uchun ham Leonardoning surati o'zini mohir deb bilgan nozik did sohiblaridan biri bo'lmish Verokkioni xafa qilgan edi. U yuksak didli ijodkor bo'lgani uchun ham qaytib mo'yqalamni qo'liga olmagan edi. Chunki u o'zi yaratgan asardan ortiq ko'ngli to'lmasligi aniq edi. Ushbu surat bugungi kunda Florensiyaning Uiffitsi galereyasida saqlanmoqda. "Isoning cho'qintirilishi" surati galereyaga 1472-yilda, Leonardoga yigirma yil bo'lganda hadya qilingan edi.

Leonardo "Cho'qintirish" suratida ham o'zining ijodkorligini namoish eta oldi. Suratda tuman va sharsharalarning uyg'unligida soyalarning o'ynoqi holati asarni o'zgacha chiqishiga sabab bo'lgan. Bu sehrlı hissiyotni ifodalovchi peysajni yana "Mona Liza" suratida ham ko'rish

mumkin. Leonardo qo'llagan bu yangi uslubning afzalligi shunda ediki, u rasmni biroz chekkalaridan xiraroq o'ziga xos manzaralarni noaniqliklar bilan tasvirlashga erishadi. Bu o'sha davr musavvirlikdagi yangicha uslub edi hamda Leonardoga katta shuhrat olib keldi.

Leonardo o'zining portret ortidagi peysaji bilan inson tabiatning bir bo'lagi sifatidagi ko'rinishini uning atrofini o'rab turgan jismlar bilan ko'rsatishga harakat qiladi. Bu bilan u peysajni oddiy suratdagi bezovchi fon emas ekanligini ko'rsatdi. Bu san'at darajasiga ko'tarildi. Leonardo o'zining bolaligidan beri chizib kelayotgan g'oyalarining chizmasida bir necha yildan so'ng peysaj va portretni o'zaro ajratmaydigan as'atkor Sandro Botticelli ijodidagiga o'xshash qilib tasvir beradi. Leonardo tabiatan og'ir inson bo'lgani uchun u suratlari ma'lum muddat nom qo'ymagan. Shuning uchun ham juda ko'p ishlari chala qolib ketishiga olib kelgan. San'at bilimdonlarining fikricha egasiz qolib ketga shu davr barcha rasmlarini Leonardoning asarlari deb atasharkan. U doimo muammolardan, baxs-munozalardan o'zini olib qochishga harakat qilgan. Hattoki unga yosh raqobatchisi Mikelanjelo haqorat bilan murojaat qilganda ham: "Komil inson o'zida sabr-toqatni tarbiyalay bilishi kerak", - deb javob bergan edi. So'zining davomida: "Aynan shu joyda bosiqroq", - deb yozadi Leonardo.

"Cho'qintirish" suratidan so'ng Leonardo nemis izlanuvchilariga juda yaxshi ma'lum bo'lgan Lyugvig Xeydenrayx "birinchi haqiqiy san'atdagi peysaj" deb baho bergan suratini yaratadi. Arno vodiysining yuqoridan ko'rinishi kechinmasini beradi. Buning ustiga surat sharq uslubida bo'yalgandir. U harakatlar bilan liq to'la holda chizilgandir. Bu holatlarning o'ta jonli qilib chiza olish Leonardoning naturada chizgani bilan xarakterlanadi. U bu suratida harakatlar va bulutlarning zo'r tasvirlovchisi sifatida gavdalanadi. Ushbu suratning ostida "Muqaddas Mariyaning qordagi kuni" deb yozilgan edi va sana "1473-yil 5-avgust" deb qatr etilgan. Ko'rinib turibdiki ushbu suratdan shaxsan Leonardoning o'zini ham ko'ngli to'lgan. Agar rasm o'ziga yoqmaganida uning ostiga qaytlarni yozib qoldirmagan bo'lardi [5].

Ushbu uchinchi asardan so'ng Leonardo hayotida palapartish asarlarni yaratish boshlangan. San'atshunoslarning fikricha u o'z asarlariga nimagadir avvalgi diqqatini yo'qotadi. Bundan tashqari u endi Oraarlaridagi chuqur falsafiy va badiiy bezaklarni tasvirlashda qator kamchiliklarga hamda avvalgi asarlariga qaraganda umrining oxirlaridagi barcha asarlari shunday tarzda chizilgan degan xulosa kritiklarda bugungi kunda xulosani keltirib chiqargan. Bu tortishuvlar haligacha o'z tasdig'ini topmagan bo'lsada, ammo ushbu asarlardagi noaniqlik avvalgilaridan keskin farq qilishi kuzatiladi. Leonardo asarlari haqidagi asarlar ichida eng klassik baho bergani bu – Britaniya imperiya kolleksiyasi saqlovchisi Kannel Klark hisoblanadi. Ushbu kolleksiya ham "Leonardo da Vinchi" nomi bilan ataladi. Klarkning fikricha Leonardoning asarlari eng yuqori saviyadagi asarlar bo'lib, ular hech qachon o'z qiymatini yo'qotmagan.

"Hayrli tufha" birinchi ilk san'at davrining eng yorqin asari sifatida baholanadi. U ham bugungi kunda Florensiyaning Uiffid galereyasida saqlanmoqda. Suratda juda qo'rqib ketgan Mariya chap qo'lini qo'yganicha turishi, Medichi daxmasidagi manzarani esga soladi. Bu daxma San Lorenzo cherkovida joylashgan. Daxmani Verokkio ustalari va shogirtlari 1472-yilda barpo etishgan hisoblanadi. Leonardo shu maqbaradagi Mariya suratidan o'ziga nusxa sifatida foydalanib, siymoni har qachongidan ham chiroyli chiza olgan. Bu suratga hozirgacha Leonardoning ichki dunyosining tashqi ko'rinishi sifatida baho beriladi.

Jenevri de Benchi portreti 1473-1474-yillarda yaratilgan hisoblanadi. Bu surat hozirgidagiday to'ydan keyin ikki yoshga to'ylaridan esdalik sifatida berilishi kerak edi. Ushbu

to'y 1474-yilning yanvarida bo'lib o'tgan edi. Ushbu portretidagi ayolning qo'llari o'ttiz yil keyin chizilgan Madonna qo'llariday ustma-ust qo'yilgan holda tasvirlangan. Jinevra tabiatan ancha sovuq bo'lsada Leonardoning shaxsan o'ziga bu surat yoqqan va uning tabassumini biroz Leonardoning o'zi vujudga keltirgan. Bu surat har jihatdan bir necha yillar davomida yaratilgan Mona Liza uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Jinevra portretidan so'ng Leonardo Madonna siymosi mavzusidagi ijodiy izlanish davri sifatida o'tdi. Taxminan 1476-yildan 1480-yilgacha (yigirma to'rt — yigirma olti yil) shu masaladagi nusxalarni tayyorlaydi. Ularning bir qanchasi suratga va qolganlari esa eskizligicha qolib ketdi. «Madonna gul bilan» (Myunxen muzeyi), «Madonna Litta» va «Madonna Benua» (ikkilasi Peterburgda) suratlaridagi detallar Leonardo to'g'ri deb hisoblagan tarzda joylashtirilgandi yani tasvirlangandi. Ular peysajli suratlardan hisoblanadi. Barcha suratlarda shu an'ana takrorlangan. Ammo ular eng cho'qqi ijodiy suratlardan hisoblanib, Leonardoning ichki dunyosi va ayol obrazi qanday bo'lishi kerak degan savolga javob beradi [6]

XULOSA

Rassomlik san'atini Leonardo da Vinchi san'atning asosiy turi deb hisoblar edi. U rassomlik san'ati yordamida odamlar dunyoni bilib oladi deb, bu san'atga tadqiqotchi sifatida yondashdi. Buyuk olim inkvizitsiyaning g'azabiga uchrashidan qo'rqmay, rasmlarda odamning gavdasini to'g'ri tasvirlash uchun uning tana tuzilishini bilib olishga harakat qildi. Leonardo da Vinchi chizgan rasmlarida uning o'zi sevgan va kuzatgan hayot tasvirlangan.

REFERENCES

1. Джорджо Вазари. 12 Жизнеописаний - royallib.ru с. 47.
2. Гастев А.А. «Леонардо да Винчи», Москва: «Молодая гвардия», 1982 г с. 13.
3. Вольнский А. Л. Жизнь Леонардо да Винчи. — М.: Алгоритм, 1997. — 525 с.
4. Лазарев В. Н. Леонардо да Винчи: (1452—1952) / Оформление художника И. Ф. Рерберга; Институт истории искусств АНР. — М.: Изд-во Академии наук, 1952. с. 60.
5. Цёльнер Ф. Леонардо да Винчи 1452—1519: Полное собрание живописи и графики / Пер. с англ. И. Д. Глыбиной. — М.: Taschen; Арт-родник, 2006. — 695 с.
6. Свен Ортоли, Никола Витковски Ванна Архимеда: Краткая мифология науки. — Москва: Колибри, 2007. с. 72.
7. Сайфуллаев, Б. Д. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ВА ҲИНДИСТОН: ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА АЛОҚАЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 25), 595-601.
8. Sayfullayev, В. (2022). ЎЗБЕКИСТОН-ҲИНДИСТОН: СТРАТЕГИК ШЕРИКЧИЛИКНИНГ ЯНГИ ФОРМАТДА РИВОЖЛАНИШИ. ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР САММИТИ.
9. Sayfullayev, В. (2022). АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ДАСТУРИЙ МАHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHDA XALQARO HAMKORLIK: O'ZBEKISTON VA HINDISTON MISOLIDA. АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯЛАРИ СОҲАСИДА

ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-ТЕХНИК
АНЖУМАНИНИНГ МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ.

10. Sayfullayev, B. (2021). Ўзбекистон-Ҳиндистон: икки томонлама ҳамкорликнинг янги саҳифалари. ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ.
11. Sayfullayev, B. (2021). ЎЗБЕКИСТОН-ҲИНДИСТОН: ҲАРБИЙ СОҲАДА ИККИ ТОМОНЛАМА МУНОСАБАТЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ. ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. ВЕСТНИК НУУз. АСТА NUUZ.
12. JO'RABOYEV, N. Y., & SAYFULLAYEV, B. D. O. G. L. (2021). КО'ННА ВА НАВҚИРОН ТОШКЕНТ БОЗОРЛАРИ. In Uzbek Conference Publishing Hub (Vol. 1, No. 01, pp. 83-86).
13. Sayfullayev, B. D. (2022). Development of Bilateral Political Relations between Uzbekistan and India. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 1(3), 54-56.

КОНЦЕПЦИЯ ГЕРОЯ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ПРОЗЕ

Муродова Дилдора Арабовна

Наимова Гулхае Анвар кизи

Узбекский государственный университет Мировых языков

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8374016>

Аннотация. В статье концепция героя в современной русской прозе, Литературный герой, в концепции авторов статьи, предстает культурным героем, отражающим актуальные ценностные ориентиры XXI века. Приводятся ключевые характеристики следующих типов: «свидетель эпохи», «святой», «виртуальный герой», «защитник», «дауншифтер», «сталкер».

Ключевые слова: современная литература, герой, «свидетель эпохи», «святой», «виртуальный герой», «защитник», «дауншифтер», «сталкер».

THE CONCEPT OF THE HERO IN MODERN RUSSIAN PROSE

Abstract. The literary characters, in the concept of the authors, appear as the cultural characters reflecting relevant valuable reference points of the 21st century. The key characteristics of the following types are specified: "A witness of the epoch", "a Saint", "a virtual character", "a defender", "a downshifter", "a stalker".

Key words: Modern literature, character, "A witness of the epoch", "a Saint", "a virtual character", "a defender", "a downshifter", "a stalker".

Осуществленный анализ текстов художественных произведений позволил выявить шесть основных типов современных литературных героев: «свидетель эпохи»; «святой»; «виртуальный герой»; «защитник»; «дауншифтер»; «сталкер».

Охарактеризуем данные типы более подробно.

«Свидетель эпохи» – герой не нашего времени. Герой-ключ к семиотическому полю прошлого воплощен в романе Е. Водолазкина «Авиатор» [8]. Он сравнительно молод (около 30 лет). Сфера его профессиональной реализации особого значения не имеет. Такого героя почти не интересует ни политика, ни общественная жизнь: «Страна – не моя мера, и даже народ – не моя». При этом повседневность такого героя, будучи частно-ориентированной, по мере развёртывания сюжета его жизни принимает характер общественно-значимый и может осознаваться таковым: «Ведь это только на первый взгляд кажется, что Ватерлоо и умиротворённая беседа несравнимы, потому что Ватерлоо – это мировая история, а беседа вроде как нет. Но беседа – это событие личной истории, для которой мировая – всего лишь небольшая часть Ватерлоо забудется, в то время как хорошая беседа – никогда».

Каждая описанная деталь, каждый фрагмент – своего рода семиотический код, позволяющий считывать не только текст, но и контекст, историческую эпоху, воплощённую в отдельной жизни: «Может, как раз для того я воскресён, чтобы все мы ещё раз поняли, что с нами произошло в те страшные годы, когда я жил?» Жизненные истории современников существуют контрапунктом, определяя масштаб «свидетеля». Значимым на наш взгляд, является то, что «свидетель» – верующий человек. Конфессиональная принадлежность может меняться, неизменным остаётся то, что этот

герой живёт в мире, где есть Бог: *«Тихо, как в Раю. Почему-то мне кажется что в Раю должно быть тихо».*

Однако, обращение к Богу такого героя носит характер не религиозный, а повседневный, что наглядно отображается в романе Г. Яхиной «Зулейха открывает глаза»: *«Аллах Всемогущий, дай исполнить задуманное – пусть никто не проснется»* [9]. Возможно, данная черта характера свидетеля связана со временем его жизни – 20-е-30-е годы XX века, когда верующим было абсолютное большинство населения России.

«Святой» – герой иного типа, наиболее полно представленный в романе Е. Водолазкина «Лавр» [10]. Время, в котором он находится вне зависимости от эпохи не исторично, не линейно. Оно циклично. В каждое из событий, случившихся однажды, можно войти снова: *«Глядя в печь, Арсений видел там порой своё лицо. Лицо было покрыто морщинами. Несмотря на такое несходство, мальчик понимал, что это его собственное отражение. Только много лет спустя. отражение того, кто, сидя у огня, видит лицо светловолосого мальчика».*

- 2022/2023 o'quv yilidan qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida Gulchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanadi;

- 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat agrar universitetida Turkiyaning Isparta amaliy fanlar universiteti bilan hamkorlikda Manzarali bog'dorchilik va gulchilik sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari ishga tushiriladi;

Andijon viloyati Shahrixon tumani, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani va Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi agrotexnologiyalar texnikumlarida landshaft dizayni gulchilik seleksiyasi va ko'chatchilik yo'nalishlarida o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil qilinadi. Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida Gulchilikka o'qitish markazi faoliyati,

yo'lga qo'yiladi. So'ngi yillarda respublikada gulchilikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan 2021- yilning 4- avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika hududlarida gulchilik va ko'chatchilik sohasini yanada rivojlantirish to'g'risida''gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra O'Zr rivojlantirish Qishloq xo'jaligi vazirligi ko'magida „Gul yetishtiruvchilar uyushmasi'' tashkil etildi. qoraygan dog'lar paydo bo'ladi.

Afsuski, atirgullardagi qora barg dog'ini atirgul o'sadigan deyarli hamma joyda topish mumkin. Kasallikning qo'zg'atuvchisi - qo'ziqorin infeksiyalangan barglar va kurtaklar bilan qishlaydi, erdan qoraygan dog'lar paydo bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining tahlili Shvetsiyaning Linkoping universiteti qoshidagi Organik elektronika laboratoriyasi tadqiqotchilari guruhi qon tomir tizimlarida elektron sxemalar bilan tirik atirgullar yetishtirishga muvaffaq bo'ldi. Tadqiqot juma kuni Science Advances jurnalida chop etildi.

Professor Magnus Berggren boshchiligidagi jamoa loyihada bir qancha imkoniyatlarni, jumladan, oʻsimliklar oʻsishini nazorat qilish va tartibga solish hamda energiya ishlab chiqarish vositasi sifatida fotosintezdan foydalanish imkoniyatlarini koʻradi. Tadqiqot hali u bosqichda emas, lekin jamoa tizimga elektr tokini qoʻllash orqali atirgul barglarining rangini oʻzgartirishga muvaffaq boʻldi. Bu yutuq ikki yillik tadqiqot va ishlanmalardan soʻng sodir boʻladi va oʻsimliklar ichida nima sodir boʻlishini oʻrganish uchun yangi yoʻllarni ochadi. Shvetsiyalik tadqiqotchi qon tomir tizimida elektron sxemalar oʻrnatilgan atirgullar oʻstirmoqda. Tadqiqotchilar zavodning oʻziga xos arxitekturasi va biologiyasidan foydalanmoqdalar, biroq bu nuqtaga yetib borish zavod orqali simlarni oʻtkazish kabi oddiy ish emas edi. Buning oʻrniga zavod tizimiga oʻtkazuvchan polimerlarni kiritish gʻoyasi bor edi. Ular suvda eritilib, polimerning oʻsimlik ksilemasiga, yaʼni barglarga suv olib boradigan oʻsimlik poyasining kanaliga kirib borishini bilish uchun suvga solingan atirgul poyalarini kesib tashladilar.

Tadqiqot usuli Agrokimyoviy tahlil agrofizik, mikro-biologik tadqiqotlar bilan birga tuproq unumdorligini oshirishga bogʻliq boʻlgan masalalarni hal qilishga yordam beradi. Oʻgʻitlarni qoʻllash, almashlab ekish, tuproqqa ishlov berish, oʻsimliklarni sugʻorish rejimi va boshqalarni oʻrganish yuzasidan tadqiqotlar oʻtkazilganda tuproq va oʻsimliklarni Agrokimyoviy tahlil qilish orqali ularda sodir boʻlgan sifat va miqdor oʻzgarishlarini aniqlash mumkin. Oʻsimliklar tahlili oʻsimlik bilan tuproq, oʻsimlik bilan oʻgʻit oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni oʻrganish uchun za-rur usuldir. Oʻsimlikning vegetativ organlari va hosili tarkibidagi azot, fos-for, kaliy va boshqa oziq elementlarining miqdorini tahlil qilish tuproqdagi oziq moddalarning hosil bilan chiqib ketgan miqdorini aniqlashga yordam beradi. Tuproqdagi oziq moddalarning chiqib ketgan miqdori oʻgʻitlarning asos-langani meʼyorlarini belgilashda juda muhim. Bundan tashqari, bu maʼlumotlar tuproqni tahlil qilish bilan birga tuproq — oʻsimlik tizimida oziq moddalar ba-lansini hisoblashda ham zarur. Odatda koʻpincha oʻsimliklarda quyidagilar: azot, oqsil, aminokislotalar, fosfor, mineral va organik fosfatlarning umu-miy miqdori hamda ularning eng muhim tuzlari, kaliy, kalsiy, magniy, oltingugurt, temir, bor, marganes, mis, molibden, rux, kobalt, yod va boshqa aniqlanadi. Atirgul oʻsmligini agrokimyoviy tahlilari organildi. Oʻsimlikning barcha organlarini ajratib aniqlandi.

Xulosa

Oʻsimliklar tahlili ularning oʻgʻitlarga boʻlgan ehtiyojini aniqlashda tobora keng qoʻllanilmoqda. Keyingi vaqtda yangi uzilgan oʻsimlik namunasi tarkibidagi mineral oziq moddalar miqdorini aniqlash keng tarqaldi. Dala sharoitida oʻsimlik sharbati tarkibidagi oziq elementlarining kimyoviy tahlili yoki uning kes-malarida kuzatiladigan mikroreaksiya orqali oʻsimliklar oziqlanishini na-zorat qilishning bir qator usullari ishlab chiqilgan. Oʻsimliklarning azot bilan oziqlanishini aniqlashda SPAD-502 yangi zamonaviy uskunalarda aniqlash bilan oʻrganildi. Azotli oʻgʻitlar tahlili ammiakni formalin biriktirib, organik birikma — geksametil-tetramin hosil qilishiga va ajralib chiqqan kislotani titrlashga asoslangan. Ammiak va nitratli oʻgʻitlar suvli erit-masining tahlili xuddi oʻsimliklarda umumiy azot miqdorini aniqlagandek, ishqor yordamida haydash usuli bilan oʻtkaziladi. Fosforli oʻgʻitlar tahlili tegishli erituvchi yordamida fosfat kis-lotani ajratib olib, R_2O_5 miqdorini aniqlashdan iborat. Oʻgʻitlar tarkibiga qarab turli erituvchilar qoʻllaniladi. Toshkent botanika bogʻida yangi atirgul navlarini iqlimlashtirish sohasida olib borilayotgan ishlar, asosan, bogʻ, hiyobon va hovlilarni koʻkalamzorlashtirishga yanada kengroq imkon beradigan navlar tanlash, shuningdek ayrim navlarni chatishtirib gʻoyat koʻrkam manzara beradigan, qishlok xoʻjaligi zararkunanda va kasalliklariga hamda qish sovugʻiga chidamli boʻlgan yangi navlarni yaratishga qaratilgan.

REFERENCES

1. I.T. Remiskevich Manzarali bog'dorchilik va gulzorchilik 1964-b 100.
2. M.S. Abdumutalovna Manzarali bog'dorchilik fitopatologiyasidan amliy mashg'ulot 2020-b 55-59
3. Avazov S., Xolmurodov E. Qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi, Navro'z, Toshkent 2022 y b 115-117
4. G'ayratovich, Xurramov Alisher, and Avazov Sardorjon Erkin o'g'li. "PREVALENCE, HARM OF MILDEW DISEASE OF ORNAMENTAL TREES AND THE EFFECTIVENESS OF FUNGICIDES USED AGAINST THEM." *EPRA International Journal of Agriculture and Rural Economic Research (ARER)* 10.10 (2022): 14-19.
5. Avazov S. E. et al. Rust on onion in Uzbekistan //Rasteniyev'dni Nauki/Bulgarian Journal of Crop Science. – 2017. – T. 54. – №. 4. – C. 55-58.
6. www.agro.uz
7. Www.plantspathology.com
8. www.microbiology.com
9. Www.ziyonet.uz
10. www.plantsprotection.uk

MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH

Jumanova Gavhar Abdurazzoq qizi

Toshkent Moliya institutida magistratura bitiruvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8387669>

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos jihatlari, masalaning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Xorijiy investitsiya, investor, iqtisodiyot, metod, kapital.

ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT IN THE NATIONAL ECONOMY

Abstract. This article will discuss specific aspects of attracting foreign investment to our national economy, legal, economic and organizational aspects of the issue.

Keywords: Foreign Investment, investor, economy, method, capital.

ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В НАЦИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИКУ

Аннотация. В данной статье будут рассмотрены особенности привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику, правовые, экономические и организационные аспекты вопроса.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, инвестор, экономика, метод, капитал.

KIRISH

Xorijiy investitsiyalar chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, qonun bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo'lmagligi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

ikkinchidan, o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

to'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnika bazasini yangilaydi va texnik qayta kurollantiradi;

beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko‘maklashadi va h. k.

Investitsiyalar, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya’ni neft va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikasiya tarmoqlariga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Jahon iqtisodiyoti tajribasidan xorij kapitalini, xususan to‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish investitsiyalashda eng samarali vosita ekanligi ma’lum. Aynan chet el investitsiyalari mamlakatda iqtisodiy va texnologik yangilanish jarayonini harakatlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyalashtirish manbalari tarkibiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2022 yilda umumiy investitsiyalar hajmida davlat budjeti mablag‘lari 7,4 foiz; chet el investitsiyalari 28,8 foiz; korxonalar va aholi mablag‘lari 47,3 foizni tashkil etgan. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Moliyalashtirish manbalari	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y. (prognoz)
Davlat budjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1
Chet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3
Korxonalar va aholi mablag‘lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha investitsiyalar tarkibi, foizda

* Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

Uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo‘nalish asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to‘g‘ridan- to‘g‘ri investitsiyalarning o‘rni beqiyosdir.

Bunda ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o‘rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta‘minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyoy, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmasevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda.

Bu imtiyozlarni berishdan maqsad - xorijiy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish orqali iqtisodiyotimizning real sektori salohiyatini oshirish, yurtimiz hududlarida yangi, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, yangi ish o'rinlarini ko'paytirish, pirovard natijada mamlakatimizni barqaror va mutanosib tarzda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishdir.

REFERENCES

1. Ruhiddin Xusniddin o'g'li "O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil 91-b.
2. G'ozibekov D.G'., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: «Iqtisod-moliya», 2007. – 92 b.
3. Vahabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. -T.: Baktria press, 2015. -584 b.
4. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminov. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2010 «Moliya». 103-b.
5. A.S.Azizov. (2021) To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.

M.S.ANDREYEVNING – “АРК БУХАРЫ” ASARINING YOZILISH TARIXI VA BAYONI.

Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrasini o'qituvchisi.

Ashurova Gulnoza Davlatbek qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

Tarix (mamlakat va yo'nalishlar bo'yicha)

2-bosqich bakalavr talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8390819>

Annotatsiya. Ushbu maqolada M.S.Andreyevning Buxoro Ark muzey- qo'rg'onini o'rganganligi, uning sxematik rejasini tuzganligi, xonalar joylashuvi, qo'r'onda joylashgan binolar haqida alohida ma'lumotlar berib o'tganligi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ark, muzey-qo'rg'on, qasr, qal'a, hisor, diz, koh, zarbxona, Jome masjid, “Tahqiqoti arki Buxara”.

THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF M. S. ANDREYEV - "ARK BUKHARI".

Abstract. In this article, it is stated that M.S.Andreyev studied the Bukhara Ark museum-fort, drew up its schematic plan, provided specific information about the location of the rooms, the buildings located in the fortress.

Key words: Ark, museum-fort, castle, castle, fortress, knee, mine, mint, Jame Mosque, "Research Ark of Bukhara".

ИСТОРИЯ И ОПИСАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ М. С. АНДРЕЕВА - " АРК БУХАРИ".

Аннотация. В данной статье говорится, что М.С.Андреев изучил музей-крепость Бухарский Арк, составил его схематический план, дал конкретные сведения о расположении помещений и построек, расположенных в крепости.

Ключевые слова: Арк, музей-крепость, замок, замок, крепость, колена, шахта, монетный двор, мечеть Джаме, «Исследовательский ковчег Бухары».

Ark Osiyo ko'kna shaharlaridagi hukmdorlar qarorgohi joylashgan qal'aband o'rda. Yozma tarixiy manbalarda ko'handiz, diz, koh, qasr, qal'a, hisor nomlari bilan ham tilga olinadi. Tabiiy baland tepa yoki maxsus yaratilgan baland do'nglik ustiga qurilib, atrofi baland devor bilan o'ralgan, bir yoki ikki darvozasi bo'lgan. Ark ichida hukmdorlarning, amaldor va lashkarboshilarning uy-joylari, davlat devonlari, zarbxona, masjid, sardoba va boshqa binolar bo'lgan. Buxoro arki milodning boshlarida qurilgan, ark sun'iy tepalikda joylashgan bo'lib, balandligi 20 metrga yetadi, qal'aning maydoni 4,2 ga ni tashkil qiladi. Dastlab qal'a yopiq ko'pburchak shaklida qurilgan bo'lib, uning tik onlari butunlay tosh bloklari bilan o'ralgan edi. arablar XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida hozirgi ansambl holiga kelgan¹.

Ark qal'asiga kirish darvozasidan boshlab, usti yopiq yo'lak — dolon orqali jome masjidiga tomon kirib boriladi. Qal'a o'z davrida shahar ichidagi shaxarcha maqomiga ega

¹ <https://meros.uz/object/buxoro-ark-qorgoni>

bo'lgan. Muzeysga tashrif buyuruvchilar tor yo'laklar bo'ylab, jome masjidi oldidan o'tib "Chorsu", taxt zali, qabulxona hovlisi, otxona va bosh vazir – qushbegi hovlisini aylanib chiqishlari mumkin. Qal'a tashrif buyuruvchilar nigohida Buxoroning qadimiy arxeologik yodgorligi sifatida qiziqish uyg'otadi².

Qo'rg'onning uncha aniq bo'lmagan qurilish tarixi to'g'risida fikr bildirish ancha og'ir, shu sababli XX asrda qal'adagi ilmiy izlanishlar juda katta ahamiyat kasb etadi. "Buxoro arki to'g'risidagi izlanishlar" ("Taxkikat-i ark-i Buxara") risolasida qayd etilishicha 1922-yillargacha qal'aning shimoli-g'arbiy burchagida devonxona, shaharning maxfiy mirshablari bo'lmish to'pchiboshining turar joyi, hamda Jome masjidining orqa qismida inshootlarni ta'mirlash ustaxonasi, ya'ni "kafisxona" binolari bo'lgan. Masjidning sharq tomonida saroy xizmatchilari uchun oshxona undan so'ng esa zarbxona va zargarlik ustaxonasi o'rin olgan. Ustaxonadan so'ng qo'rilgan devonxona ayni damgacha saqlanib qolinmagan³

Saroy tarixchisi Sayyid Muxammad Nosir fikricha amir Muxammad Raximxon (1756-1758 yillar) davrida Shaxrisabz bekining amir Nasrulloxon tomonidan qamalga olingan harami xotirasiga bag'ishlab, Childuxtaron masjidi qal'a ustida barpo qilingan. Xarobaga aylangan ushbu masjid oldida esa xalifa Alining avlodidan bo'lmish Sayyid Abdul G'ozni maqbarasi qoldiqlarini ko'rish mumkin. Tadqiqodchilarning fikricha Ark qal'asining sharqiy qismida Joniyar sulolasi hukmdori Abdulfayzxonning (1711-1747 yillar) Buxoro taxti uchun kurash chog'ida vafot etgan 7 ta o'g'li qabridan iborat uncha katta bo'lmagan qabriston mavjud bo'lgan. Ushbu etti shaxzoda qabridan iborat qabriston – ya'ni "Xaft sultan", hamda Sayyid Abdul G'ozni (Battol — g'ozni) maqbaralari o'z davrida dong'i ketgan ziyoratgohlardan hisoblangan.

O'z davrida qal'aning markaziy qismida, taxt zali bilan yonma-yon, Buxoro hukmdori oilasining ayollaridan iborat "Haram" (urda) joylashgan. Haram – bu alohida, begonalar nigohidan xoli, faqatgina hukmdorning o'zigagina tegishli hudud xisoblangan. Haramda ko'plab alohida yotoqxonalar, yuvinish xonalari, emakxonalar mavjud bo'lib, u uymakor gullar bilan bezatilgan ayvonlar, gulzoru favvoralar bilan bezatilgan. Haramni amirning validasi boshqargan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan aktrisa Maryam Yakubova o'smirlik chog'ida Buxoro amirining haramida istiqomat qilgan, aktrisaning xotirlashicha, o'sha davrda haramda bosh nazoratchi Muxarramai – g'arch ("g'arch" taxallusi – ushbu ayolning oyoq kiyimidan chiqqan ovozdand kelib chiqib qo'yilgan) ismli ayol bo'lgan. Bosh nazoratchining vazifasi qizlarni saralab, ularni turli yo'nalishdagi ishlarga jalb etishdan iborat bo'lgan. Katta haram "Urdai Kalon"ni amirning onasi boshqargan, amirning ayollari "Urdai Zebocha", "Nav", "Xosa", "Nakshin" kabi yotoqxonalarni egallashgan. Ular taxt vorislarining validalari hisoblangan. "Hammom", "Xonaqo", "Peshga" kabi nomlanuvchi ayollar yotoqxonalarida yuzlab turli ijtimoiy qatlamga mansub qizlar istiqomat qilishgan. Qizlarga haramda maktab tashkil etilgan bo'lib, ularga odob axloq qoidalari, muomala madaniyati, ashula va raqs o'rgatilib, taniqli shoirlarning she'rlari bilan tanishtirilgan. Bundan tashqari muqaddas Qur'on kitobi to'g'risida saboq berilgan. Ba'zida haramdagi ushbu qizlarni saroyning namunali xizmatchilariga hukmdor qaroriga binoan tuhfa sifatida nikohlab berilgan⁴.

² www.bukharamuseums.uz (<https://www.bukharamuseums.uz>)

³ www.bukharamuseums.uz (<https://www.bukharamuseums.uz>)

⁴ www.bukharamuseums.uz (<https://www.bukharamuseums.uz>)

XX asr davomida Buxoro tarixi masalasi, uning etnografiyasi va arxeologiyasiga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Xususan, Sayyid Muhammad Nasir ibn Muzaffar. "Tahqiqoti arki Buxara"⁵, Raхmanov Sh. A. "Средневековая фортификация Термеза", Некрасова Е. Г. "К истории сложения стен арка Бухары" (новые археологические данные)⁶, Мухамеджанов А. Р. Результаты археологических исследований на территории города Бухары, Алимова Д. А. "Бухара конца XIX—начала XX века и зарождение Джадидизма" Андреев М. С. Чехович О. Д., "Арк Бухары"⁷. Shuningdek Ya. G'ulomov, V.A.Shishkin, A.Asqarov, O.A.Suxareva, X.Duke, U.Islomov, M.Qosimov, F.Qosimov, V.A.Bulatova va boshqalar tadqiqotlar olib borib, voha tarixi va arxeologiyasi bo'yicha ulkan yangiliklarni amalga oshirishgan. Ushbu nomlar qatorida Buxoro vohasi me'moriy obidalari sarkori hisoblanmish Ark qo'rg'oninitadqiq etgan Mixail Stepanovich Andreyev alohida o'rin tutadi⁸.

Shu sababli, Buxoro arki bo'yicha O'rta Osiyo xalqlari tillari va turmush tarzi bo'yicha marhum tadqiqotchi, SSSR fanlar akademiyasining muxbir a'zosi M. S. Andreyevning ilmiy arxivida saqlanayotgan material katta qiziqish uyg'otadi. Unda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida M. S. Andreyev tomonidan 1940-1941 yillarda tuzilgan arkda mavjud bo'lgan binolar va ulardagi hayot tavsifi mavjud. Inqilobdan oldin arkda tez-tez bo'lgan bir nechta guvohlarning, Buxoro qariyalarining hikoyalari ga ko'ra, olim ularni topishga muvaffaq bo'lgan.

Kitobning asosiy qismi "arkning sxematik rejasining tavsifi", haqida. Arkning janubi-g'arbiy qismi M. S. Andreyev va M. S. Yusupov, Sharqiy qismidagi qurilmagan binolar uchun, shuningdek Shimoliy va markaz uchun M. S. Yusupov, shimoli - sharqiy qismi uchun esa O. D. Chekovich, ba'zi ish rejalarini texnik bajarishda V. Ivanov va Strushchenko ishtirok etdilar. Inqilobdan keyingi omon qolgan binolar ekspeditsiya ishtirokchilari tomonidan tomonidan tuzilgan sxematik rejalar bo'yicha amalga oshirildi. Ark va uning alohida qismlarining ish rejaları M. S. Andreyevning shaxsiy arxivida - A. Donish nomidagi Tojikiston fanlar akademiyasining Dushanbe shahrida saqlanadi¹⁰.

1936- yilda M. S. Andreyev Usto Ibrogim Hofizov tomonidan tuzilgan Ark qismlarining rejalarining saqlanib qolingani qismi sotib olingan va M.S.Andreyevning arkni o'rganish bo'yicha ishi boshlangan. Toshkentdagi O'zSSR san'at muzeyi ilmiy arxivida Ark rejasining ikkita bo'lagi tavsifi (165 jamg'armasi) mavjud. M. S. Andreyev Ark oldida joylashgan binolar va arkning g'arbiy qismidagi kirish joyiga tutash xonalarni to'liq tavsiflangan va Ark tavsifining nashr etilgan matniga kiritilgan. Rejaning ikkinchi qismining tavsiflari saqlanmagan. Topografik asos sifatida 1927-yilda M. E. Masson tashabbusi va rahbarligida Moraiti va Brede topograflari tomonidan arkning batafsil geodeziyasini suratga olish rejasi qabul qilingan. Rejaning asl nusxasi topilmagan. SSSR fanlar akademiyasi arxeologiya institutining Leningrad bo'limi arxivida yagona nusxasi (ko'k) 1961-yilda O. D. Chekovich tomonidan topilgan. Ushbu rejani tuzishda topograflarning asosiy vazifasi, arkning vayron bo'lgan qismi yuzasi- relyefini batafsil belgilash (kelajakdagi

⁵ Саййид Мухаммад Насир ибн Музаффар. Тахкикат-и арк-и Бухара. (Исследования о Бухарском Арке) / Пер. с перс. Гуломова С. Отв. ред. Юсупова Д. — Т. : Tafakkur, 2009. — 102 p. — ISBN 978-9943-372-56-6.

⁶ Некрасова Е. Г. К истории сложения стен арка Бухары (новые археологические данные) // Из истории культурного наследия Бухары. — Ташкент : «Узбекистан», 1990. — С. 15-27.

⁷ Андреев М. С. Арк Бухары / Чехович О. Д.. — Д. : Дониш, 1972. — 163 p.

⁸ Umarov B, Qo'lyiyev U M. S. Andreev The great Eastern Scientist// International journal of Philosophical studied and Social Sciences Vol: 2, Issue: 3|| 2022 ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

¹⁰ Андреев М. С. О. Д. Чехович "Арк Бухары". "Дониш" Душанбе, 1972.

arxeologik ishlar uchun) edi. O'sha paytda saqlanib qolgan binolar faqat kontur bo'yicha rejalashtirilgan edi. Ushbu rejadani tashqari, M. S. Andreyev arxivida ikkinchi qavat rejalari va yerto'lalar (rasm.4) arkning g'arbiy qismi rejalari mavjud.

Olim 1936-yilda, O'zSSR san'at muzeyida ishlab yurgan paytlarida, Buxoroga tashrif buyurgan va bu yerda Buxoro Ark (Kreml) rejasining muhim qismini topgan. Uni mahalliy qutqaruv omborida tungi qo'riqchi bo'lib xizmat qilgan va o'tmishda arkning rejasini (sxematik) chizgan, so'nggi amirlarning me'mori bo'lgan keksa odam Ibrogim Xofizovdan olgan¹¹.

Buxoroga ekspeditsiya 1940-yilda M. S. Andreyev rahbariyati ostida bo'lib o'tdi.

Buxoroga tashrif buyurgan ekspeditsiya ishtirokchilarining ekspeditsiya davomida to'plagan materiallarida jamoaviy ishlarining bo'limlaridan biridir. Ushbu asar "Old Buxoro" umumiy sarlavhasi ostida nashr etilishi rejalashtirilgan edi.

Ekspeditsiya O'rta Osiyo davlat universiteti tarix fakulteti tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Ekspeditsiya xarajatlarining yarmini o'z zimmasiga - O'zSSR san'at muzeyi, shuningdek, Samarqand va Buxoro muzeylari olgan, ular ekspozitsiyaga yordam berish uchun bitta ilmiy xodim ajratdilar (M. S. Yusupov Samarqand muzeyidan va L. I. Rempel Buxorodan), O'zbekiston qadimiy va san'at yodgorliklarini muhofaza qilish qo'mitasi ham ekspeditsiyada ishtirok etib, Buxoro ark rejasini tuzishni o'z zimmasiga oldi. Yuzaga kelgan masalalar bo'yicha maslahat berishda ishtirok etdi. Buxoroga qisqa muddatga kelgan SAGU tarix fakulteti dekani I. K., Dodonov va professor V. N. kun. Ekspeditsiyaning ilmiy materiallarini yig'ish uchun jami besh kishi ishlagan, ular o'zlariga ergashganlarni tanladilar:

O. D. Chekovich -Buxoroda yer egaligining tabiati, Buxoro savdogarlar bo'yicha, Buxoroda savdo va sudxo'rlik.

M. S. Yusupov - sud tuzilishi va sud jarayoni, armiya, ma'muriyat, moliya.

K. V. Rusinova- Buxoroda hunarmandchilik va hunarmandchilik sexlari.

L. I. Rempel- Buxoroning XIX- XX asr tarixiy topografiyasi.

M. S. Andreyev – XIX asrning oxiri va XX asr boshidagi Buxoro Arki (Kreml)¹².

Bundan tashqari, Buxoroda uzoq vaqt xizmat qilgan muhandis F. V. Yeselevich ishtirok etishga rozi bo'ldi, u geologik tadqiqotlar asosida hozirgi Buxoro arkining tepaligi ostidagi materik yuzasini tavsiflash bo'yicha maqola taklif qildi. Afsuski, uning bevaqt o'limi bu ishga to'sqinlik qildi.

Ekspeditsiya ishining ijobiy tomonlaridan biri, materiallarni to'plagan beshta ishtirokchining hammasi mahalliy tillarni bilishgan va M. S. Yusupov tug'ilib, bolaligini Buxoroda o'tkazgan. Bu tarjimonlarni chetlab o'tib, aholi bilan bevosita muloqot qilish va ishning muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan to'liq tushunish imkoniyatini yaratdi.

M. S. Andreyev tomonidan "Buxoro amiri kuni" mavzusida ma'lumot to'plash (shuningdek, Ark bo'yicha) hali tugallanmagan edi. Biroq, olim asarni o'zi xohlaganidek, tezda tugata olmagan bo'lsa ham, ushbu materialni xuddi shunday nashr etish kerak deb o'ylagan, chunki bu XIX va XX asr boshlarida Buxoroning ikkinchi yarmini o'rganishda qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin.

¹¹ Андреев М. С. О. Д. Чехович "Арк Бухары". "Дониш" Душанбе, 1972.

¹² Андреев М. С. О. Д. Чехович "Арк Бухары". "Дониш" Душанбе, 1972.

“Tahqiqot” asari muallifning so'zlariga ko'ra¹³, Arkada yangi binolar qurish Amir Haydar (1800-1825) davrida boshlangan. Arkda Chahor chaman deb nomlangan bolalar bog'chasi bo'lganligi haqida xabar berilgan. Amir Nasrullo (1826-1860) davrida Rahimxonning uyi qarshisida yana bir qabul zali qurilgan. Amir Muzaffar (1860-1885) davrida arkda rus elchilari uchun uy qurilgan; Abdulahadxon davrida Arsenalning tosh binosi va chang ombori, uning ichida “g'azabxon” chuquri joylashgan bo'lib, u yerda arkda yashirincha o'ldirilgan “aybdor va begunoh” saroy a'zolarining jasadlari tashlangan.

1962-yilda arxitektor E. K. Vidyakin tomonidan “arkning sxematik rejasi tavsifi”ni nashr etishga tayyorlash uchun O. D. Chexovich rahbarligida Toshkentda arkning yig'ma rejasi tuzilgan. 1963-yilda me'mor A. S. Yakovlev rahbarligida A. K. Pisarchik, ish rejalarini qo'shimcha o'rganish asosida, O. D. Chexovich bilan kelishilgan ba'zi tushuntirishlar va tuzatishlar kiritildi¹⁴.

ARKNING SXEMATIK REJASINING TAVSIFI

Arkning asosiy kirish qismi me'moriy jihatdan ikki ustunli minoralar shaklida qurilgan bo'lib, ularning yuqori qismi panjaralar bilan bog'langan, uning ustiga ayvonxona qurilgan. Arkka kirish ikki tomoni ulkan toshlar bilan o'ralgan pandus orqali kiriladi. Pandusning uzunligi taxminan 20 m bo'lib, devorlardan biriga katta charm qamchi (Amir hokimiyatining ramzi) ilib qo'yilgan.

Darvozadan uzun qorong'i yo'lak (dolon) boshlanadi, uning ikki yon tomonida suv, qum va mahbuslar saqlanishi uchun bir nechta hujralar mavjud bo'lib, ularning birida taniqli yozuvchi Sadridin Ayniy ham bir paytlar azob chekib yotgan.

Arkdan g'arbiy tomonda, arablar bosqinidan oldingi davrda, shaharning bir paytlar odamlar bilan gavjum jamoat markazi bo'lgan Registon maydoni vujudga kelgan. XIII asrgacha u yerda devonlar (vazirliklar) ning ma'muriy binolari va zodagon amaldorlarning turarjoy saroylaridan tashkil topgan, keyinchalik esa bozor rastalari egallagan.

Ark ro'parasida qurol aslahaxona ombori, qurol-yarog' ustaxonalari, harbiy bosh qo'mondonning qabulxonasi, shuningdek, katta Poyanda masjidi, kichik mahalla masjidlari, Bozori Gusfand madrasasi va Dorul-shifo-madrasa mavjud bo'lib, u erda bo'lajak shifokorlar ta'lim olishgan, uning tarkibida kasalxona va tibbiy maslahat-yordam bo'limlari mavjud edi. Shuningdek bu maydonda don mahsulotlari, go'sht, attorlik buyumlari, choy, qog'oz, siyoh, yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun beshiklar, qoramol, sabzavotlar, poliz mahsulotlari, qovun, tarvuz, yog'och idishlar va boshqa mahsulotlar savdosi ham amalga oshirilgan¹⁵.

Ark - qurilish nuqtai nazaridan g'arbdan sharqqa bir oz cho'zilgan noto'g'ri to'rtburchak shaklida. Ark devorlarning uzunligi 789,6 metr, maydoni esa 3,96 gektarni tashkil etadi. Ark qal'asi mudofaa devorlari balandligi Registon maydoni sathidan 16 dan 20 m gacha o'zgarib turadi. Arkning baland kirish portali XVII asrda qurilgan galereya (nog'oraxona) bilan bezatilgan. Bu yerda kun davomida turli maqomlar ijro etilgan, ular orqali aholi vaqtni bilishardi.

Dolon XVIII asrda bosh mahalla masjidi tarzida qayta qurilgan Jome masjidiga olib boradi. Masjid u uch tomonli ayvon bilan o'ralgan to'rt ustunli ichki honadan ibirat. Ichki hona bezaklari

¹³ Саййид Мухаммад Насир ибн Музаффар. Тахкикат-и арк-и Бухара. (Исследования о Бухарском Арке) / Пер. с перс. Гуломова С. Отв. ред. Юсупова Д. — Т. : Tafakkur, 2009. — 102 p. — ISBN 978-9943-372-56-6.

¹⁴ Андреев М. С. О. Д. Чехович “Арк БухарЪ” .” Дониш” Душанбе, 1972.

¹⁵ <https://telegra.ph/ARK-06-18>

XIX asr oxiri XX asr boshlariga xosdir. Masjidning e'tiborni o'ziga tortadigan eng go'zal qismi bu - mehrob va qismlarga bo'lingan yog'och shiftidir. Bu erda so'nggi ta'mirlash ishlari 1910-1920 yillarda ganch o'yamakorligi bilan shug'ullangan taniqli o'zbek xalq ustasi Shirin Murodov ishtirokida amalga oshirildi. Hozir ushbu masjidida qo'lyozma kitoblarining noyob eksponatlari ko'rgazmaga qo'yilgan Xattotlik tarixi muzeyi joylashgan¹⁶.

Buxoro saroyiga kelgan amaldorlar otxona (saisxona) ga o'zlarining otlarini qoldirishgan. Faqat Amir otda o'tirgan holda arkga kirishi, harbiy feodallarning boshlig'i – “otaliq” va ruhoniylar orasida eng yuqori daraja – “qozikalon” rampaning yarmigacha otda ko'tarilgan, “rais”, “hokim”, “to'qsabo” “miroxurlar” rampaga chiqmasdan undan uzoqroqda otlardan tushishgan, kichikroq darajadagi savdogarlar otdan tushib uzoq masofaga piyoda borishlari kerak edi. Rampaning uzunligi taxminan 20 m, eni 3,5 m dan 5 m gacha. Dastlab rampa yog'och platformaga ega edi, shuning uchun u Taxtapul deb nomlangan. 1894-95 yillarda eskirganligi sababli, eski turdagi tekis, kuygan g'ishtlardan yasalgan Pol bilan almashtirildi. Rampaning yog'och platformasi ostida “kanaxona” bilan bog'langan bo'sh joy bor edi. Taxtapul ostidagi kanaxonada og'ir jinoyatlarni sodir etgan saroy ahli ham saqlangan. Rampadagi loglar ataylab bir-biriga mahkam bog'lanmagan va ular orasida kanaxon xonasiga havo o'tishi uchun bo'shliqlar qoldirilgan, jinoyatchi u erga tushirilganidan keyin mahkam yopilgan. “Pestokcha” - rampaning yuqorida aytib o'tilgan yon kirish joylari oldidagi devorlarga o'rnatilgan temir halqalar. Rampaning ikkala tomonida ikkita shunday halqa mavjud. Halqalar orasidagi yo'l ba'zi hollarda zanjir bilan to'sib qo'yilgan¹⁷.

REFERENCES

1. Андреев М. С. О. Д. Чехович “Арк Бухары” .” Дониш” Душанбе, 1972
2. АБУ БАҚР МУҲАММАД ИБН ЖАЪФАР НАРШАХИЙ БУХОРО ТАРИХИ УЗБЕКИСТОН ССР «ФАН» НАШРИЕТИ ТОШКЕНТ, 1966. С. 28.
3. Саййид Мухаммад Насир ибн Музаффар. Тахкикат-и арк-и Бухара. (Исследования о Бухарском Арке) / Пер. с перс. Гуломова С. Отв. ред. Юсупова Д. — Т. : Tafakkur, 2009. — 102 p. — ISBN 978-9943-372-56-6.
4. Некрасова Е. Г. К истории сложения стен арка Бухары (новые археологические данные) // Из истории культурного наследия Бухары. — Ташкент: «Узбекистан», 1990. — С. 15-27
5. Umarov B, Qo'yliyev U M. S. Andreev The great Eastern Scientist// International journal of Philosophical studied and Social Sciences Vol: 2, Issue: 3|| 2022 ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039
Internet saytlari:
6. www.bukharamuseums.uz
7. <https://meros.uz/object/buxoro-ark-qorgoni>
8. <https://telegra.ph/ARK-06-18>

¹⁶ <https://telegra.ph/ARK-06-18>

¹⁷ Андреев М. С. О. Д. Чехович “Арк Бухары” .” Дониш” Душанбе, 1972

ЗНАЧЕНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ КАРАКАЛПАКСТАНА

Керанова Райгуль Куандиковна

студент 4 курса

Ажинияз атиндаги НМПИ, исторический факультет.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8391096>

Аннотация. В данной статье мы поговорим об Абу Райхане Беруни и его научном наследии, роли его научного наследия в изучении истории Каракалпакстана.

Ключевые слова: Беруни, Кат, закон природы, минералогия, геодезия, астрономия, филология, Ближний Восток.

THE SIGNIFICANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ABU RAYHAN BERUNI IN THE STUDY OF THE HISTORY OF KARAKALPAKSTAN

Abstract. In this article we will talk about Abu Rayhan Beruni and his scientific heritage, the role of his scientific heritage in the study of the history of Karakalpakstan.

Key words: Beruni, Kat, law of nature, mineralogy, geodesy, astronomy, philology, Middle East.

ВВЕДЕНИЕ

Аль Беруни является автором великого ученого Хорезма, обширного собрания работ, касающихся истории, географии, филологии, астрономии, математики, геодезии, минералогии, фармакологии, геологии и многих других.

Беруни был первым человеком на Ближнем Востоке, определившим окружность Земли, заявив, что Земля может вращаться вокруг Солнца. Не будет преувеличением сказать, что Беруни был настоящим средневековым восточным учёным науки. Американский историк Дж.Сартон сказал о великом ученом: «Астрономия и математика, астрология и география, антропология и этнография, археология и философия, ботаника и минералогия обеднели бы без его великого имени». МАТЕРИАЛЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: Полное имя — Абу Райхан Мухаммад ибн Ахмад аль-Бируни. Он родился 4 сентября 973 года в городе Кат, древней столице Хорезма.

Информации о ранней жизни Беруниса мало, известно только, что Чин был сиротой. Его прозвали «любопытным» из-за большого носа. Однако под его слепой внешностью скрывается обладатель изящного ума, а его министр и двоюродный брат Хорезмшах подпадает под иракского Назари. На старости лет Беруниус писал: «...Иракская семья дала мне хлеб и вывела меня среди людей...» [Он обладал прекрасными математическими и философскими познаниями. Это, в свою очередь, требовало нервов, чтобы определить развитие математики, в частности плоской и сферической тригонометрии с одной стороны, а точнее с другой. Достижения Беруни в этих областях послужили беспрецедентным достижением на протяжении нескольких столетий.

Беруни почти точно определил радиус Земли (более 6000 км), исходя из того, что оно имеет круглую форму. Беруний на основе некоторых астрономических задач перенял и усовершенствовал прогрессивные идеи древнегреческих и древнеиндийских философов: темные тела, т.е. ту же огненную природу Солнца и звезд; Определил движение звезд и определил их гигантские размеры по отношению к Земле; Изучил гравитацию Земли. Подтвердив, что Солнце вращается вокруг Земли, а не вокруг нее, Беруний положил конец

все спекуляции относительно одобрения Птолемеем мировой геоцентрической системы. Он родился в столице Кэт, и его интерес к науке вырос с юных лет. Позже Беруни учился у известного ученого Абу Насра Мансура ибн Ирака ибн. Он написал несколько работ по иракской астрономии, геометрии и математике. 12 он посвящает Беруни.

Помимо родного языка Беруни, есть еще несколько языков: арабский, согдийский, персидский, сирийский, греческий и древнееврейский языки, позже он изучает санскрит в Индии. Беруни занимался астрофизикой, математикой, геодезией, географией и минералогией и естественными науками, он также отличался как известный историк, хронолог и лингвист. Он энциклопедичен, потому что он в совершенстве изучил почти все науки своего времени, известен как известный человек и богато награжден за свои непрекращающиеся исследования во многих областях науки. Согласно одному из его научных трудов, он жил в Хорезме в 990 году.

Важные астрономические наблюдения он проводил в городе Кат. Он сам изобрел астрономические инструменты для наблюдений. Среди дворян Хорезма борьба за престол позволила учёному продолжить научную работу он был вынужден покинуть родину в 22 года из-за неуплаты и долгого проживания Джурджана на юго-восточном побережье Каспийского моря как мигрант в городе. Беруни «Осор аль-Бакия ан алкурун аль-холия» («Памятники, оставленные древними народами»). Значение научного, культурного наследия Абу Райхана Беруни и его роль в развитии науки Абу Райхана Беруни, научное и культурное значение наследия и его науки, его место в развитии. Начал писать свои произведения во время эмиграции в Джурджона и завершил ее в 1000 году. «Артефакт аль-Бакия» принес Беруни большую известность и привел его во все области науки, показав, что он великий ученый, который интересуется.

Кроме того, Беруний Джурджон написал более 10 работ по истории астрономии и астрономии Беруни Хорезма. Новый правитель страны Абу Аббас Маъмун II ибн Маъмун был вызван в столицу Ургенч. С большой честью Хорезмшах принял. Беруни был создан под непосредственным руководством Маъмуна в Ургенчских работах в научном центре. Оккупация Хорезма Махмудом Газневи изменила угрозу жизни Беруни. Его казначей вместе со всеми учёными во дворце хорезмшаха увозят в качестве пленника в город. Беруни жил в Газне в 1017-1048 годах. С одной стороны, его жизнь окончательно сложилась трудной, а с другой стороны, научная жизнь была наиболее продуктивным периодом для его деятельности.

Беруни «Знаменитый Хорезм». «Люди» также были созданы в этот период. Свой важный астрономо-географический труд «Тахдид нихийот аль-амониа ли ташидимасофат аль-масокин» («Между жилыми районами, определяющими окончательные границы мест для проверки расстояния» – «Геодезия») был завершен в 1025 году. Беруни «Начало» искусством астрологических понятий» также был написан в 1029 году в Газне. Завершился год «Индии». Махмуд Газневи умер, и на трон взошел его сын Масуд. За этот период состояние Беруни значительно улучшилось. Закон астрономии Масуда посвятил свою работу султану Масуду. Якутский один из учёных того столетия пишет: «Закон Масуда» — книга по математике и астрономии, стерла следы всех написанных книг». После составления Беруни списка своих трудов он написал ещё две важные книги. За эти годы Беруни написал несколько книг по географии, узнал вещи, животных, некоторые районы

Каракалпакстана и дал свои заключения об истории этого края. Один из таких «минералогий», этот трактат является центральным для своего времени. Минералогия в Азии, на Ближнем Востоке и даже в Европе. Это лучшие и не имеющие аналогов работы в этой области. Последняя работа Беруни - "Здоровая рукопись книги о растениях" найдена в Турции в 30-е годы 20 века. Работа известна как «Сайдона», в которой Беруний Востока, особенно Центральной, дает полное описание лекарственных растений, произрастающих в Азии. Ученик Беруни, по словам Абул Фадла ас-Серахси, умер 11 декабря 1048 года. Беруни оставил последним поколениям великое научное наследие.

Эпохи Беруни более 160 переводов различных областей науки, произведений разного размера, мы знаем, что остались переписки. В большом размере выше показаны помимо его труды по астрономии, астрологии, математике, геодезии, геологии, минералогии, географии, арифметике, медицине, фармакологии, истории, филологии. Он создал ряд трактатов по этим вопросам и с санскрита на арабский, с арабского языка. Он делал переводы на санскрит и писал стихи, а также занимался художественным творчеством. «Введение в астрологию», «Ключ к астрономии», «Книга Солнца, исцеляющего душу», «О необходимости двух действий», «Принципы умножения», «Санскритский перевод Птолемея Альмагести», «Полезные вопросы. и правильные ответы», «Исправление элементов Фергани», «Осторожность тюрков», «Белые одежды» и сведения о карме», «Сборник стихов», «Аль-Муканна», «Перевод сведений об Ибн Сине», «Переписка с Ибн Синой» является одним из них. [5.63] **ВЫВОД:** Короче говоря, Беруни является одним из важнейших людей в истории и человеком, внесшим большой вклад в развитие и совершенствование истории Каракалпакстана.

Христиан Иоаннис Бар Эбрей, сирийский историк и врач, живший в XIII веке (1226–1286), оценивает Беруни следующим образом: «В те минувшие годы грек и индеец Абу Райхан Мухаммад ибн Ахмад аль-Беруни, пересекший море философии приобрел известность в прошлых науках. Он является специалистом по математике, создал ряд важных книг в этой области. Он отправился в Индию и прожил там несколько лет, учился своему искусству у индийских философов и обучал их греческой философии. Его труды чрезвычайно многочисленны, зрелы и чрезвычайно надежны. Одним словом, среди его коллег в свое время, после этого и до сих пор такого ученого в науке астрономии и основах и тонкостях этого времени не было ни одного глубоко знающего ученого.

Абу Райхан Беруни считал, что в природе все существует и изменяется по законам самой природы, а постигнуть эти законы можно только с помощью науки. Его основные работы посвящены математике и астрономии, которые имели огромное практическое значение для хозяйственной жизни Хорезма - для поливного земледелия и торговых путешествий. С 1017 года, после завоевания Хорезма султаном Махмудом Газневи, жил в Газне при дворе султана Махмуда и его преемников Масуда и Маудуда, участвовал в походах Махмуда в Индию, где прожил несколько лет. Совершенные в эти годы путешествия в Индию вылились в написание фундаментального труда «Разъяснение принадлежащих индийцам учений, приемлемых разумом или отвергаемых» («Индия», закончен в 1030 г.). Плодотворный период деятельности в Газне стал самым продуктивным в творчестве Аль-Беруни. В завершённом в 1030 г. труде «Индия» Аль-Беруни дал детальное описание быта, культуры и науки индийцев, изложил их религиозно-философские системы.

Абу Райхан Беруни пользовался в своей работе сравнительным методом: «Я привожу теории индийцев, как они есть, и параллельно с ними касаюсь теорий греков, чтобы показать их взаимную близость», – писал он.

При этом он ссылался на Гомера, Платона, Аристотеля, Галена и других греческих авторов, сопоставлял индийскую и исламскую мысль, особенно выделяя учение суфиев как наиболее близких к индийским теориям санхьи и йоги. При сравнении обычаев разных народов упоминал особенности быта славян, тибетцев, хазар, тюрков. Наряду с работой над «Индией» Беруни сделал перевод «Санхьи» и «Йогасутры Патанджали» на арабский язык и переложение «Начал» Евклида и «Алмагеста» Птолемея на санскрит.

Беруни, владея арабским, персидским, греческим, сирийским языками, а также санскритом, способствовал выработке принципов перевода естественно-научной терминологии с одного языка на другой. Экспериментальное знание Абу Райхан Беруни противопоставлял умозрительному. В старости он потерял зрение, но до последней минуты своей жизни считал главным «механизмом» продолжения жизни бодрый дух. Тело его было предано земле в 1048 году в Газне.

Для увековечения памяти великого ученого родной город Беруни назван в его честь в 1957 году. В 1973 году в Узбекистане по инициативе академика И. М. Муминова проводились мероприятия, посвященные 1000-летию со дня рождения Абу Райхана Беруни. Примечательно, что институт Востоковедения в Ташкенте носит имя Абу Райхана Беруни, также станция метро названа в его честь. Памятники Беруни установлены в Ташкенте и Тегеране. Имя Аль-Беруни носил Ташкентский политехнический институт. В его честь названы лунный кратер и астероид 9936 Беруни. Известный ученый С. П.

Толстов посвятил свою монографию «По следам древнехорезмийской цивилизации» Абу Райхану Беруни.

REFERENCES

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Rayhon_Beruniy
2. <https://arboblar.uz/uz/people/abu-rajkhan-beruni>
3. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/453>
4. "Beruniy". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (in Uzbek). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000–2005.
5. Iskandar, Abdulla (9 February 2008). "Fears over Amu Darya's rage" (in Uzbek). RFE/RL's Uzbek Service. Retrieved 24 January 2015.
6. Soliyev, A.S. Shaharlar geografiyasi [Geography of cities] (PDF) (in Uzbek).
7. "Classification system of territorial units of the Republic of Uzbekistan" (in Uzbek and Russian).
8. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
9. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 196-203.

10. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
11. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.
12. Maksetbaevich O. K. Ethnodemographic procesess at the headquarters of amudarya on the EVE of the 1916 uprising //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 11. – С. 391-395.
13. Кошанов Б. А., Отегенов Х. М., Ержанова Г. М. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – №. SI-3.
14. Rametullaevich K. A., Makhsetbaevich U. K. The Struggle of the Working People of Karakalpakstan against Social and Colonial Oppression in 1916 in Chimbay //resmilitaris. – 2023. – Т. 13. – №. 1. – С. 2980-2984.
15. Отегенов Х., Ҳакимниязов К. НАРОДНОЕ ВОССТАНИЕ 1916 ГОДА В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ И АМУДАРЬИНСКОМ ОТДЕЛЕ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ //ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2015. – Т. 27. – №. 2. – С. 50-55.
16. Отегенов Х. К оценке восстаний в Хивинском ханстве и Амударьинском отделе в 1916 г //Каспийский регион: политика, экономика, культура. – 2019. – №. 2 (59). – С. 31-36.

СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭКСПЕРТНО-КРИМИНАЛИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Нурумбетова Садокат Аллаяровна

Научный секретарь Академии МВД Республики Узбекистан, доктор философии
юридических наук (PhD), доцент.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8391271>

Аннотация. В статье подробно анализируются теоретические, правовые и практические аспекты процесса информационного обеспечения судебно-экспертной деятельности государственных судебно-экспертных учреждений, имеющих на практике возможности компьютерных технологий для организации электронной информационной системы. Внесены конкретные предложения и рекомендации по восполнению имеющихся пробелов в некоторых статьях Закона Республики Узбекистан «О судебной экспертизе».

Ключевые слова: судебно-экспертные учреждения, экспертная деятельность, структурированные информационные ресурсы, профессиональный эксперт, сведения, современная информатизация, картотека, коллекция.

MODERN OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPMENT EXPERT-CRIMINALISTIC ACTIVITY.

Abstract. The article analyzes in detail the theoretical, legal and practical aspects of the process of information support for forensic activities of state forensic institutions, the possibilities of computer technologies available in practice for organizing an electronic information system. Concrete proposals and recommendations were made to fill the existing gaps in some articles of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Forensic Expertise".

Key words: forensic institutions, expert activity, structured information resources, professional expert, data, modern informatization, card index, collection.

Современные международные стандарты подразумевают в качестве основной задачи эффективное гарантирование натуральных и гражданских прав человека. В нашей республике также защита прав и свобод граждан начинается с обеспечения их Конституцией- основным законом государства. Наряду с этим соответствующими законами установлена неотвратимость наказания, устанавливаемого в зависимости от степени опасности деяний против прав и свобод человека.

С точки зрения законодательства установлена доказательная сила экспертного заключения наряду с другими формами доказательств, в частности статья-81 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан гласит “Доказательствами по уголовному делу являются любые фактические данные, на основе которых в определенном законом порядке орган дознания, следователь и суд устанавливают наличие или отсутствие общественно опасного деяния, виновность лица, совершившего это деяние, и иные обстоятельства, имеющие значения для правильного разрешения дела. Эти данные устанавливаются: показаниями свидетеля, потерпевшего, подозреваемого, обвиняемого, подсудимого, заключением эксперта, вещественными доказательствами, материалами звукозаписи, видеозаписи и кинофотосъемки, протоколами следственных и судебных действий и иными документами”. Экспертное заключение является документом в

письменной форме, составляемым судебным экспертом или комиссией судебных экспертов и отражающим ход проведения и результаты судебно-экспертных проверок¹⁰⁶.

Судебная экспертиза — процессуальное действие в гражданском, экономическом, уголовном и административном судопроизводстве, направленное на установление обстоятельств дела и состоящее в проведении судебно-экспертных исследований и даче заключения судебным экспертом на основе специальных знаний в области науки, техники, искусства или ремесла¹⁰⁷. Высокое место, которое, наряду с другими доказательствами, в нашей стране занимает в экспертное заключение для установления наказания за противозаконные действия наглядно отражается в определениях, установленных данными правовыми основами. Именно поэтому эффективное использование экспертной деятельности считается одним из важных требований сегодняшнего дня. В связи с этим возникают вопросы о роли эксперта в судебно-экспертной деятельности, о наличии в его деятельности ошибок, недостатков или проблем. Необходимо глубоко поразмыслить над тем, что можно сделать в этом направлении. Исходя из требований времени, можно заметить, что, согласно статистического анализа преступного мира, самым высоким показателем по своей, совершаемости обладают преступления, связанные с мошенничеством показатели преступлений, совершаемых посредством компьютерных технологий, также занимают не самое последнее место в этом списке. Если это входит в число проблем касательно процесса исследований, то оно чётко прослеживается в деятельности органов внутренних дел в рамках проблем, связанных с рабочей деятельностью эксперта, с объёмом его работы, в том числе по вопросам привлечения его к участию в мероприятиях вне рамок его компетенции, отсутствия временных возможностей для работы над собой с целью повышения профессиональной эффективности, недостаточными возможностями, ввиду огромного количества новой информации, её восприятия и ознакомления.

Среди проблем в деятельности эксперта также прослеживается острая нужда в совершенствовании имеющихся или внедрении новых видов экспертизы в свете возникновения всё более новых сфер деятельности на пути развития Нового Узбекистана. Это выражается в недостаточной сформированности школы экспертов во всех регионах нашей республики по вопросам исследования задач, связанных со стандартизацией цен на продукцию и сырьё, ввозимые на территорию нашего государства из-за рубежа, и с проблемами установления цен на продукцию с учётом их ежедневного роста.

Возникновение некоторых проблем при строительстве зданий, одно замечательнее другого, в регионах нашей республики, которые изо дня в день становятся краше, а также случаев, ожидающих своего разрешения при установлении права собственности на имущество между гражданами, требуют обращения к экспертизе строительной техники. Мы не можем утверждать, что данный вид экспертизы не функционирует, однако недостаточная его организация во всех регионах нашей страны указывает на наличие недостатков в методике по данному вопросу. Один простой пример: большинство новостроек возводятся путём сноса функционировавших на протяжении многих лет жилых

¹⁰⁶ Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. <https://lex.uz/docs/111460>.

¹⁰⁷ Закон Республики Узбекистан «О судебной экспертизе» от 2 июня 2010 года // <https://lex.uz/docs/1633102>

зданий граждан и выделения взамен их владельцам земельных участков или жилья на другой территории, или выплаты им денежной компенсации. Однако не всегда данные ситуации разрешаются положительно. Становится очевидным возникновение проблем в экспертных исследованиях при разрешении задач, возникающих на основе поступающих обращений граждан, недовольных качеством решения вопросов компенсации земли, зданий, строений, израсходованных на них средств и материалов, в том числе при изучении кадастровых вопросов.

Также имеется ряд проблем, связанных с рекламой и убеждающими источниками в социальных сетях, поддельными деньгами и документами, являющимися составной частью преступлений, связанных с мошенничеством. Нередки случаи предъявления поддельных документов для вхождения в доверие и обмана людей¹⁰⁸. Ясно, что у граждан нет возможности напрямую проверить подлинность данных документов путём предъявления на экспертизу, и не всегда присутствует желание обращения в правоохранительные органы, потому что для человека, ищущего путь к своей нужде, это кажется последним действенным путем для решения его проблем.

Как можно найти решения этих и подобных их проблем в свете непрестанно развивающейся судебно-экспертной деятельности? В первую очередь, необходимо урегулировать рабочую деятельность эксперта так, как это указано в её правовых основах, то есть, расширить возможности полного использования объёма своих прав и обязанностей, принять меры по непривлечению экспертов к работам, не входящим в их компетенцию, усовершенствовать курсы повышения квалификации экспертов с использованием инновационного образования нового типа, ограничивающегося стандартизированным повышением уровня саморазвития, знаний и навыков эксперта, внедрить в практику и широко использовать зарубежный опыт в данном направлении¹⁰⁹. Эта же самая задача поставлена Постановлением Президента РУз № ПП-4125.

Следующей задачей является внедрение новых видов экспертизы и совершенствование исследования, в методиках которой присутствуют недостатки. Окинув взглядом историю современной экспертизы, можно заметить огромные изменения, произошедшие с ней за последнее время¹¹⁰, так как, в отличие от современной экспертизы, количество её видов было не таким большим, кроме того, они проводились по устоявшимся традициям, без использования или с использованием недостаточно сформированных технологий и инновационных разработок. С развитием современности в данной сфере происходят крупные изменения. Однако нетрудно заметить отсутствие попыток остановиться на достигнутом. Тому доказательством в том числе является налаживание негосударственной судебно-экспертной деятельности с целью материального обеспечения ряда проводимых научных исследований, ввоза новых иностранных технологий. Однако, несмотря на такое положение вещей, рекомендуется при проведении исследований переходить на оцифрованные экспертные заключения, так как это позволит рационально и эффективно использовать время.

¹⁰⁸ <https://www.xabar.uz/huquq/firibgarlik-ozni-nima-nega-odamlar-tez-va-kop-aladanadi>

¹⁰⁹ ПП № 4125 «О мерах по дальнейшему совершенствованию судебно-экспертной деятельности»
<https://lex.uz/docs/4172023>

¹¹⁰ <http://diss.natlib.uz/ru-RU/Researchwork/OnlineView/>

Исходя из вышеуказанных мнений, предлагается отразить в законодательных актах, касающихся судебно-экспертной деятельности, отразить следующие задачи, необходимые для достижения цели по совершенствованию деятельности экспертно-криминалистических отделов:

- разработка критериев организации управления электронной информатизацией экспертно-криминалистической деятельности в системе Министерства внутренних дел;
- определение направлений использования электронной информатизации в экспертно-криминалистической деятельности;
- внедрение порядка плодотворного и оперативного использования электронной информатизации в экспертно-криминалистической деятельности;
- поэтапное наполнение базы электронной информатизации экспертно-криминалистической деятельности необходимой информацией;
- внедрение системы непрерывного обеспечения электронной информатизации различными достижениями науки и техники и организация контроля;
- организация создания в системе электронной информации образцов заключений проводимых экспертиз и результатов аналитики по ним;
- рекомендуется введение в Закон “О судебной экспертизе” Республики Узбекистан новой статьи 27² под заголовком “Электронная информатизация деятельности государственных учреждений судебной экспертизы” и наполнить её текстом следующего содержания: “Информационное обеспечение государственных учреждений судебной экспертизы- это информационная система, обеспечивающая формирование, систематизацию и использование информационных ресурсов, необходимых для организации эффективного проведения судебной экспертизы и успешного решения задач, поставленных перед судебными экспертами в процессе экспертных исследований (поиск, приём необходимой информации, внесение новых данных, и т.п.)” .

Вместо заключения необходимо отметить, что в какой бы форме ни проводилась информатизация и цифровизация современной профессиональной экспертной деятельности, они всегда будут служить одной цели- улучшению качества проводимых исследований. А это, в свою очередь, повысит достоверность и надёжность экспертных заключений и ещё более укрепит доказательную базу результатов экспертной деятельности, выраженную в форме экспертных заключений и выступающих в качестве составных элементов информации, собранной в ходе предварительного следствия и дознания.

REFERENCES

1. Закон Республики Узбекистан «О судебной экспертизе» от 2 июня 2010 года // <https://lex.uz/docs/1633102>
2. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. <https://lex.uz/docs/111460>.
3. ПП № 4125 «О мерах по дальнейшему совершенствованию судебно-экспертной деятельности». <https://lex.uz/docs/4172023>
4. Маматкулов Т. Б., Закурлаев ва бошқ А. К. Ўзбекистон Республикасининг «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонунига шарҳ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. – 176 б.

5. Об утверждении Концепции развития экспертно-криминалистических подразделений органов внутренних дел Российской Федерации на среднесрочную перспективу (2016–2018 гг.): приказ МВД России от 24 ноября 2016 г. № 758. Доступ из справ.-правовой системы «Консультант Плюс».
6. *Ш.Х. Иномжонов.* Жиноят процессида далилларни тақдим қилиш ва улардан фойдаланиш муаммолари. Монография. Т-2006. 177 б.
7. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/Researchwork/OnlineView/34231>.
8. <https://www.xabar.uz/huquq/firibgarlik-ozni-nima-nega-odamlar-tez-va-kop-alldanadi>

**TILSHUNOSLIK FANLARINI ÓQITISH ASOSIDA QORAQALPOQ MAKTAB
ÓQUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENCIYALARINI METODIK
RIVOJLANTIRISH.**

Abdurazaxova Shaydagúl

NMPI stajor-izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8391393>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf óquvchilarida bolalar adabiyoti orqali til kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari keltirilgan. Maqolaning saviyasi shu mavzuda xorijlik va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari ham yoritilgani bilan belgilanadi.

Kalit sózlar: til, tilshunoslik, lingvistik kompetensiya.

**METHODICAL DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCIES OF BLACK
SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF THE ASSIMILATION OF LINGUISTIC
DISCIPLINES.**

Abstract. This article presents the scientific-theoretical foundations of the formation of language competences in primary school students through children's literature. The level of the article is determined by the fact that the research works of foreign and local scientists on this topic are covered.

Key words: language, linguistics, linguistic competence.

**МЕТОДИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ
КАРАКАЛПАКСКОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВЫХ
ДИСЦИПЛИН.**

Аннотация. В данной статье представлены научно-теоретические основы формирования языковых компетенций у учащихся начальных классов посредством детской литературы. Уровень статьи определяется тем, что освещаются исследовательские работы зарубежных и отечественных ученых по данной теме.

Ключевые слова: язык, лингвистика, языковая компетенция.

Respublikamiz umumtálim maktablarida ona tilini óqitishda óquvchilarning nutqini óstirish, lugát ustida ishlash, tálim oluvchilarning ijodiy fikrlashlariga zamin yaratish va darslarni integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish borasidagi muammolar bir qator olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan.

Bugun kunda tálim sohasida kompetensiya, kompetentlilik kabi tushunchalar muomalada juda keng foydalanilmoqda. Bu sózning asl máno-mazmuni nimalardan iborat?

Kompetensiya (“competence”, “to compete” sózidan kelib chiqib) sózi ózida “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” mánolarini ifodalaydi. Sózma-sóz tarjima qilganda “musobaqalashishga layoqatlilik” mánosida ifodalanadi. Atamaning mohiyati shundan iboratki, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “uquvlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “natijalilik”, “tushunuvchanlik”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar bilan tasniflanadi.

Yuqoridagi málumotlardan kórinib turibdiki, lingvistik kompetensiya óquvchilarda tilning grammatikaga oid bilimlarini rivojlantirish va ózbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda óquvchilar óz fikrlarini tógrí, izchil, ravon va mánoli, shu bilan birga tinglovchiga tushunarli tarzda bayon etishini shakllantirishdan iborat.

Tilning grammatikga oid bilimlari deyilganda esa biz tilshunoslik fanining bólimlari: fonetika – tovushlar, leksikalogiya - sózlarning lug'aviy boyligi, sózning tarkibi, sóz yasalishi, morfologiya - sóz shakllari, sintaksis - sóz tuzilishi va qurilishi, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni egallashi tushuniladi.

Mazkur kompetensiyani rivojlantirish mazmuni óquvchilarda fikr va mulohazalarini óz ona tilida erkin, aniq, qisqa, ravon va tushunarli tarzda bayon eta olishiga, óz nutqida adabiy til normalariga rioya qilgan holda sózlash, imlo va uslubiy xatolarsiz fikr almashishga yordam beradi. Umumtálim maktablarida mazkur kompetensiyalarga ega óquvchini tarbiyalash “Ona tili” fanining zimmasidadir. Biroq amaldagi darsliklarimiz lingvistik bilimdon óquvchini qay darajada tarbiyalamoqda?!

Olima G.Yusupovaning “Bólajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash tálimdan foydalanish metodikasi” nomli tadqiqoti natijasida bólajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash tálimdan foydalanishning tanishuv, ijodiy qism, baholash bosqichlari, ózbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari aniqlashtirilganligini kórishimiz mumkin .

Bolalar adabiyoti orqali boshlang'ich sinf óquvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini yaratish maqsadini amalga oshirish uchun bir qator vazifalar ishlab chiqildi. Mazkur vazifalar quyidagilar etib belgilandi:

- ona tili darslarida óquvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish yuzasidan pedagogik va metodik imkoniyatlarni tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf óquvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik komponentlarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;
- ilgor pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdagi didaktik jihatlarini belgilash;
- boshlang'ich sinf óquvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-metodik taminotini takomillashtirish;
- “Ona tili va óqish savodxonligi” darsligini tahlil qilish va darslik mavzularini mustahkamlashga xizmat qiluvchi qóshimcha metodik adabiyotlar ishlab chiqish.

Mazkur vazifalarning amaldagi holati boshlang'ich sinf óqituvchilari uchun óquvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qilsa, óquvchilar uchun esa maktabda olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Mazkur tadqiqot natijalari tálim sifatiga ijobiy tásir etadi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi haqida gapirar ekanmiz avvalo, kompetensiya sózining tom mánosiga e'tibor qaratishimiz lozim. Shunday ekan “Kompetensiya” tushunchasi lotincha “competere” – *mos kelmoq* sózidan olingan bólib, “**óz kasbiga yaroqli, loyiq**” degan mánoni anglatadi.[1] Bundan tashqari ushbu sóz keng mánoda umumiy yoki muayyan keng qamrovli masalalarni yechishda mavjud bilim va kónikmalarni amaliy tajribada qóllay olishni ham anglatadi. Demak, kompetensiya –kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, kónikma va malakalarni amaliyotda qóllay olish layoqatidir.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bólsak “kompetensiya” atamasi ilk bor XX asr órtalarida N.Xomskiy tomonidan qóllanilgan bólib, tildan foydalanish jarayonida faoliyatga yónaltilgan bilim, kónikma va malakalar majmui sifatida baho beradi. Uning izdoshlari bólgan bázi bir olimlar esa ushbu tushuncha kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etilgan. Bunda

kompetentlilik va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalari tálimda natijaviylikni kórsatuvchi omillar sifatida qayd etiladi.

“Kompetentlik”– subyekt va uning faoliyatiga berilgan tavsif bólib, u kópincha, turli málumotlar beradigan lug’aviy-me’yoriy adabiyotlarda “biror-nima haqida fikr yuritish, óz fikr-mulohazasini bildirish imkonini beradigan bilimlarni chuqur egallash” deya táriflanadi. Boshqacha aytganda, kompetentlik –avvalambor, ishni bajarish (maqsadga erishish) uchun nimalar zarur ekanligini tushunishning chuqur bilimlarga asoslangan darajasidir. Kasbiy kompetentlik esa kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va kónikmalarni amaliy tajribada samarali qóllay olish mahoratidir.

R.P. Milrudning fikricha: “...kompetensiya –shunday alohida faoliyat sohasiki, bunda individ(shaxs) yuqori darajadagi ózlashtirilgan yutuqlar strategiyasini namoyish qiladi. Tajriba, mavjud bilimlar va doimiy óz ustida ishlash asosida atrofdagi borliqning turli sohalarida qanday xatti-harakatlarni amalga oshirish kerakligi haqidagi strategiyalar, malaka va amaliy bilimlar olish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlardir. Demak, kompetentlilik –shakllangan malaka va egallangan amaliy bilimlar asosida muvaffaqiyat strategiyalarini ózlashtirish hisobiga samarali faoliyat yuritish qobiliyatidir. Shuning uchun kompetentlikni zamonaviy tushunish insonda ham óz imkoniyatlarini ishga solish va muayyan funksiyalarni bajara olish qobiliyati hamda unga mustaqil va mas’uliyatli harakat qilishi uchun imkon beradigan ruhiy holatlarning mavjudligini óz ichiga oladi.

Óquv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish muammosi óz tarixiga ega bólib, kelib chiqishiga kóra, N. Xomskiy, R. Uayt, J. Raven, D. Xayms kabi chet mualliflar tadqiqotlariga borib taqaladi.

Bizning respublikada tálimga kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi ushbu yondashuv asosida Davlat tálim standartining takomillashtirilishiga, uzluksiz tálim tizimining barcha bosqich óquv dasturlari va darsliklari mazmuniga ózgartirishlar kiritilishiga olib keldi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilgan va Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 8 aprelda tasdiqlangan Davlat tálim standartida umumiy órta tálim bosqichida óquvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch va xususiy kompetensiyalar shakllantirilishi talablari belgilab berilgan. Tayanch kompetensiyalar sifatida kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari, ózini ózi rivojlantirish kompetensiyalari, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalari, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bólish hamda foydalanish kompetensiyalari belgilangan. Bugungi kunda barcha fanlar bóyicha Davlat tálim standartlarida kompetensiyaning turlari aks ettirilgan va xususiy fanga oid kompetensiyalar ishlab chiqilgan. Davlat tálim standartlarida, xususan, chet tillarni óqitish bóyicha quyidagi kompetensiyalar belgilangan:

Lingvistik kompetensiya yáni bunda til materialini (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab-tushunish, gapirish, óqish va yozish) bóyicha kónikmalarni egallash nazarda tutiladi. Sotsiolingvistik kompetensiya sózlovchining biror-bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadigan kompetensiya hisoblanadi. Órganilayotgan chet tilda kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bólganda takroran sórash, uzr sórash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadigan kompetensiya bu pragmatik kompetensiyadir.

Kompetentlilik yondashuvining shakllanishi tálimni taraqqiy ettirish talabi, zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashish yóllarini qidirish bilan boǵliq hisoblanadi. Kompetentlilik yondashuvi shaxsda bilimlardan tashqari amaliy vazifalarni hal etish qobiliyatini shakllantirishga intilishini ham aks ettiradi. Kasbiy faoliyat mazmunining ózgarishi, yangi texnologiyalarni qóllash, ózgacha miqyosdagi tayyorgarlikni, umumtálim asosi maktabdanoq shakllantiriluvchi kasbiy tayyorgarlikni taqozo etadi.

Yuqorida keltirib ótilgan ushbu kompetensiyalar talabalarning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalarini shakllanishga olib kelishi kózda tutiladi. Bundan kórinib turibdiki, kommunikativ kompetensiya ham tayanch kompetensiyalar asosida turadigan ham xususiy kompetensiyalar jamuljamidan kelib chiqadigan, kompetentlikni táminlab berishga xizmat qiladigan asosiy kompetensiyadir. Óz navbatida kommunikativ kompetentlilik, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarni kabi kompetensiyalarni óz ichiga oladi.

REFERENCES

1. Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Ózbekiston nashriyoti” Toshkent-2021.
2. Axmedova G.M. Ózbek tili darslarida óquvchilar nutqini yasama sózlar bilan boyitishning metodik asoslari: ped.fan.nom. ...diss. – Toshkent, 2007.
3. Haydarova M.E. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli luǵat. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2009.
4. M.A.Kenjayeveva. 5-6-sinf óquvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi: ped.fan.dok (PhD). ...diss. – Toshkent, 2021.
5. Ona tili va adabiyot fanini óqitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar óquv moduli. – Toshkent. 2017. -110-b.
6. Oxunjonova O. Tálim bosqichlarida sinonimlar mavzusini óqitish metodikasi: ped.fan.nom. ...diss. – Toshkent, 2009. – 140-b.
7. Tóxliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. Ózbek tili óqitish metodikasi. – Toshkent. 2010. – 314-b.
8. Yusupova G. Bólajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash tálimdan foydalanish metodikasi: ped.fan.dok (PhD). ...diss. – Urganch. 2020.
9. Yusupova Sh. Hozirgi ózbek dabiyl tili darslarida óquvchilar tafakkurini óstirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida): ped.fan.dok. ... diss. – Toshkent, 2005. – 279-b.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI

Hojiyeva Nasiba Bahodirovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8393142>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari, maktabda onatilini o'qitish vositalari hamda ona tili o'qitishda psixologiya va pedagogika ma'lumotlari haqida metodik ma'lumotlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ona tili, metodologiya, metodika, kompetensiya, kitob, psixologiya va pedagogika, didaktika va xakozo.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНО

Аннотация. В статье рассматриваются методические и научные основы предмета "Методика обучения родному языку в начальной школе", способы обучения родному языку в школе и методические сведения по психологии и педагогике в обучении родному языку.

Ключевые слова: начальная школа, родной язык, методика, методика, компетентность, книга, психология и педагогика, дидактика и т. д.

METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS

Abstract. This article focuses on the methodological and scientific basis of the subject of methods of teaching mother tongue in primary school, the means of teaching mother tongue in school and methodological information on psychology and pedagogy in teaching mother tongue.

Key words: Primary school, mother tongue, methodology, methodology, competence, book, psychology and pedagogy, didactics and so on.

Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi.

Badiiy adabiyot ta'lim bosqichlarida ham san'atning bir turi, ham o'quv predmeti sifatida o'rganiladi. Shunga ko'ra bolalar badiiy adabiyotning so'z san'ati sifatida o'ziga xosliklari, uning yashash tarzi, namoyon bo'lish shakllari, rivojlanish qonuniyatlari ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'rgatiladi. Ma'lumki, bolalikdan kitobga bo'lgan munosabatni ijobiy shakllantirishda maktabgacha bolalar kitobxonligi badiiy adabiyotdagi asosiy mazmun va mohiyatni, ularda aks etgan nafosatni his etishiga alohida urg'u beriladi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Amaliy pedagogik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standarti belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi.

Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzda nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar, til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar.

Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy tamoyillari boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasining vazifalarini belgilab, aniqlashtirib beradi:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi; ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xususiyati; ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarning ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Yuqoridagi ta'lim tamoyillaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani o'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Hozirgi kunda ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va shu asosda Xalqaro talablar asosida yaratilayotgan Milliy o'quv dastiri buning yorqin dalilidir.

"Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi" da maktab bitiruvchilarida filologiya fanlari bo'yicha qo'yiladigan talablarda nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, filologiya

fanlari orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish, ona tili fanini o`qitish konsepsiyasi, ona tili fani bo`yicha o`quvchilarga sinflar kesimida qo`yiladigan talablar belgilab berilgan. Dasturda tilni o`qitish orqali shu til bo`yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to`rt tuqi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o`qish va yozish amallari bo`yicha har bir sinfda taqozo etiladigan ko`nikma va malakalar me`yorini rivojlantirish, bunda o`qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o`qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga munosabat bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi”.

Ta`limni tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutavassislarni tayyorlash Milliy tizimini yaratish asosiy maqsad qilib olingan.

Ta`lim sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog`liq bo`lgan uzluksiz ta`lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Ona tili o`qitish metodikasi fani ham ta`lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi.

Umumiy o`rta ta`limning bir bosqichi bo`lgan boshlang`ich ta`lim 1-4- sinflarni o`z ichiga oladi. Milliy dasturda ta`kidlanganidek, bu bosqichda ta`limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

o`quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta`limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

ta`lim berishning ilg`or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o`quv- uslubiy majmualarini yaratish va o`quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta`minlash va hok.

Milliy dasturda ta`lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo`yicha ta`kidlangan ko`rsatmalar, uzluksiz ta`limni ta`minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ona tili o`qitish metodikasi psixologiya va pedagogika ma`lumotlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. SHuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari metodikaning metodologik asosi hisoblanadi.

Pedagogik psixologiya kishiga ta`lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o`rganishni o`z predmeti deb biladi. U o`quvchilarda tafakkurning shakllanishini tadqiq qiladi, aqliy faoliyat usullari va ko`nikmalarini o`zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o`rganadi, o`qitish jarayoning muvaffaqiyatliligiga, pedagog bilan o`quvchilar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarga va o`quvchilar jamoasidagi munosabatlariga ta`sir qiluvchi psixologik omillarni, o`quvchilardagi individual-psixologik farqlarni, aqliy rivojlanishdan orqada qoluvchi bolalar bilan olib boriladigan ta`lim-tarbiya ishlarining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Bu bilan pedagogik psixologiya metodika faniga o`quv materialini tanlashda, boshlang`ich sinflarda ona tilining mazmuni va hajmini, o`quv materialini aniqlashda hamda ularni sinflar bo`yicha taqsimlashni muayyan izchillikda joylashtirishda yordam beradi, o`qitishning samarali usul va shakllarini belgilashga, o`quvchilar analitik-sintetik faoliyatining to`g`ri o`sishiga ko`maklashadi.

Metodika psixologiya fani ma'lumotlariga tayanib o'qitishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Onatili o'qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida -fikrni bayon qilish turlarini belgilovchi omillar, "nutqni qabul qilish signallari" apparati, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi. Buma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog'lanishli nutqni o'stirish metodikasi uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida vatamoyillarga asoslanadi. Didaktika tamoyillariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rgazmalilik, onglilik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan ona tilidan ham, o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir.

Ona tili metodikasi umumiy pedagogikabilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatdan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hok.

Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga tayanadi.

Ona tili metodikasini umumiy pedagogika bilan bog'lash ayniqsa boshlang'ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalari hali tarbiyalanmagan bo'ladi. Tashkilotchilik, jamoa ishiga tez kirishish, e'tibor bilan eshitish, o'qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va saranjom bajarish kabi ko'nikma va odatlar o'qituvchi va maktab tomonidan amalga oshiriladigan umumpedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi. Tarbiyaning shunga o'xshash nazariy va amaliy masalalarini pedagogika ishlab beradi. O'qituvchi pedagogik talablarni amalga oshirsagina, ona tiliga o'rgatishni ta'lim-tarbiya jihatidan foyda keltiradigan qilib uyushtira oladi.

Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilining ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi, shuning uchun ham fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, so'z yasalishi va etimologiya, grammatika -morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya kabi fanlar ona tili metodikasining muhim ilmiy asosi hisoblanadi.

Fonetika va fonologiya, grafika savod o'rgatish metodikasini ishlashda, elementar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta.

Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi.

Leksikologiyani bilish maktabda lug'at ishi (ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p ma'noli so'zlar, ularning ma'no bo'yoqlari ustida ishlash) ni to'g'ri tashkil etish uchun juda muhimdir.

Soʻzning tarkibi va soʻz yasallishini oʻrganishda metodikaga morfemika, soʻz yasallishi, etimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi.

Morfologiya va sintaksis mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishni toʻgʻri tashkil etishga, grammatik tushunchalardan toʻgʻri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi boʻlmagan oʻquvchilarda imlo va punktuatsiyadan koʻnikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. Grammatika oʻquvchilar nutqini oʻstirishda muhim oʻrin tutadi, chunki grammatika soʻz shakllarini toʻgʻri tuzish, soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarni oʻzaro toʻgʻri bogʻlash va gapni toʻgʻri tuzishga oʻrgatadi.

Toʻgʻri yozuvga oʻrgatish metodikasining rivojlanishida oʻzbek tili imlosi nazariyasini hisobga olish talab etiladi.

Sinfda oʻqish va sinfdan tashqari oʻqish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi, chunki oʻquvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar, ularga adabiyotshunoslikdan nazariy maʼlumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini, ularning oʻquvchilarga taʼsirini, ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning gʻoyaviy mazmuni, uning mavzusi va syujeti, kompozitsiyasi, janri, tasviriy vositalarini hisobga olishi zarur.

REFERENCES

1. Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisidagi” Qonuni 2020 yil 19 may.
2. Umumiy oʻrta taʼlim toʻgʻrisidagi Nizom. /www/ZiyoNet/uz
3. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining 2019 yil 12 oktyabrdagi 931-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” PF-5847-son Farmoni.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda Oʻzbekistonni Rivojlantirish boʻyicha Harakat strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-sonli Farmoni // Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar toʻplami – T.; 2017 – b.37
5. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. Taʼlim toʻgʻrisida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 –yil 19- mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020- yil 7- avgustda maʼqullangan. Toshkent shahri, 2020- yil 23- sentabr. OʻRQ -637.- 3-бет.

YENGIL ATLETIKANING TARIXI VA RIVOJLANISHI

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Nukus filiali 2-kurs talabalari

Iroda Oralbaeva

Yunus Xojabaev

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8398523>

Annotatsiya. Yengil atletika — sportning eng ommaviy turlaridan biri; turli masofalarga yugurish, sportcha yurish, balandlikka sakrash, uzunlikka, uch hatlab, langarcho 'p bilan, nayza uloqtirish, lappak, bosqon, yadro irg'itish, ko'pkurash (o'nkurash, yettikurash) mashqlarini o'z ichiga oladi. Yengil atletikada 50 dan ziyod mashq bor, ulardan 48 tasi Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan. Bundan tashqari, Yengil atletika zamonaviy beshkurash va triatlon sport turlarining bir mashqini tashkil etadi, barcha sport turlarining mashgulot, ta'lim muassasalarining o'quv, harbiy-tayyorgarlik, salomatlik mashqlari, o'quvchi-yoshlarning „Alpomish“ va „Barchinoy“ sport sinovlari dasturidan joy olgan.

Kalit so'zlar: Olimpiya o'yinlari, Xalqaro yengil atletikafederatsiyasi, dekatlon, geptatlon, yozgi paralimpiya o'yinlari, filmlar.

HISTORY AND DEVELOPMENT OF ATHLETICS

